1/2025

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal



ORIENTAL UNIVERSITETI

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Scientific journal

(Birinchi son)

Toshkent – 2025

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

Ilmiy jurnal

Bosh muharrir:
Olimjon Astanaqulov, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Murodjon Axmedov, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Mas’ul muharrir:
Hayotjon Aminov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

“Iqtisod, menejment va pul” ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Saidaxror G‘ulomov	i.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
2. Saidasror G‘ulomov	i.f.d., akademik – tahrir hay’ati a’zosi;
3. Nurislom Tuxliev	i.f.d., akademik- tahrir hay’ati a’zosi;
4. Muxammadi Alimardonov	i.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;
5. Tulkin Rasulov	i.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi
6. Nargiza Mamanazarova	p.f.d., professor v.b. – tahrir hay’ati a’zosi
7. Bobir Tursunov	i.f.d., (DSc), dotsent – tahrir hay’ati a’zosi
8. Gulmira Azretbergenova	i.f.n., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi
9. Zurab Garakanidze	i.f.n., professor (Gruziya) – tahrir hay’ati a’zosi
10. Muhammad Iyd Balbaa	Ph.D., dotsent (Misr) – tahrir hay’ati a’zosi
11. Samshul Amry	Ph.D. (Malayziya) – tahrir hay’ati a’zosi
12. Aleksandr Gurnak	i.f.n., dotsent (Rossiya) – tahrir hay’ati a’zosi

MUNDARIJA

Shernayev Akbar Aqmirzayevich
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ soliqlarni rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari 4

Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich
O‘zbekistonda xalqaro moliya operatsiyalarini rivojlantirishdagi asosiy muammolar 15

Xaydarov Xayrulla G‘ulamovich
Xorij tajribasi asosida sanoat korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni faollashtirish 24

Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi
Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini qayta ishlash sanoati majmualariga joriy etish masalalari 35

Ibragimova Sevara Kabildjanovna
Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv kadrlarini tanlash mexanizmlarini takomillashtirish (jahon tajribasi asosida) 46

Toirova Nozima Miraxmad qizi
Turizmga xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish: jahon tajribasi va O‘zbekistondagi imkoniyatlar 56

Axatova Shahnoza Akram qizi
Kichik biznes va soliq stavkalari: O‘zbekiston sharoitida samaradorlikni oshirish va iqtisodiy rivojlanishga ta’siri 66

Janabayeva Gulbahor Ashirovna
O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish tizimi 75

Isoxonov Javlonxon Hasan o‘g‘li
Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishda strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirish muammolari 85

Abdurayimov Ma’rufjon Saydulla o‘g‘li
Inventarizatsiya o‘tkazish jarayonining talablari va uning ahamiyati 96

Aqmirzayeva Feruza Aqmirza qizi
Iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari 106

Norqobilova Nargiza Abduqodirovna
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo‘llari 117

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV SOLIQLARNI REJALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

DIRECTIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF CORPORATE TAX PLANNING IN JOINT STOCK COMPANIES

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ КОРПОРАТИВНОГО НАЛОГОВОГО ПЛАНИРОВАНИЯ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Shernayev Akbar Aqmirzayevich
Oriental universiteti
Moliya va menejment kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Tel.: +998 33 766-80-77
e-mail: shernaev.akbar@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ soliqlarni rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirishning dolzarb yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Maqolada moliya bozoridagi dinamik o‘zgarishlar, global iqtisodiyot sharoitlari va investitsiya faoliyatining korporativ soliq rejalashtirishga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Bundan tashqari, korxonalarning moliya strategiyasi, moliyaviy rejalashtirish, valyuta siyosati, devalvatsiya, revalvatsiya, to‘lov balansi va xususiylashtirish kabi omillarning korporativ soliq rejalashtirishga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining statistik ma’lumotlaridan foydalanilgan bo‘lib, korporativ soliqlarni samarali rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada aksiyadorlik jamiyatlari uchun soliq rejalashtirishni yanada takomillashtirish, soliq yukini optimallashtirish va moliyaviy samaradorlikni oshirishga qaratilgan strategik yondashuvlar taqdim etilgan. Tadqiqot natijalari korporativ soliq rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha qimmatli tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *Aksiyadorlik jamiyatlar, moliya bozori, global iqtisodiyot, investitsiya faoliyati, korxonalar moliya strategiyasi, moliyaviy rejalashtirish, valyuta siyosati, devalvatsiya, revalvatsiya, to‘lov balansi, xususiylashtirish, kompaniyalar.*

Annotation. This article highlights current trends in improving the methodology of corporate tax planning in joint-stock companies. The article provides an in-depth analysis of the impact of dynamic changes in the financial market, global economic conditions and investment activities on corporate tax planning. In addition, the impact of factors such as financial strategy of enterprises, financial planning, currency

policy, devaluation, revaluation, balance of payments and privatization on corporate tax planning is considered. The study uses statistical data from the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan and develops practical recommendations for effective planning and management of corporate taxes. The article presents strategic approaches aimed at further improving tax planning for joint-stock companies, optimizing the tax burden and increasing financial efficiency. The results of the study contain valuable recommendations for the introduction of modern methods of corporate tax planning and ensuring financial stability.

Keywords: *Joint-stock companies, financial market, global economy, investment activity, financial strategy of enterprises, financial planning, currency policy, devaluation, revaluation, balance of payments, privatization, companies.*

Аннотация. В статье рассматриваются современные тенденции совершенствования методологии корпоративного налогового планирования в акционерных обществах. В статье представлен углубленный анализ динамических изменений на финансовых рынках, мировых экономических условий и влияния инвестиционной деятельности на корпоративное налоговое планирование. Кроме того, было рассмотрено влияние таких факторов, как финансовая стратегия предприятий, финансовое планирование, валютная политика, девальвация, ревальвация, платежный баланс и приватизация на корпоративное налоговое планирование. В исследовании использованы статистические данные Государственного налогового комитета Республики Узбекистан и разработаны практические рекомендации по эффективному планированию и управлению корпоративными налогами. В статье представлены стратегические подходы, направленные на дальнейшее совершенствование налогового планирования акционерных обществ, оптимизацию налоговой нагрузки и повышение финансовой эффективности. Результаты исследования включают ценные рекомендации по внедрению современных методов корпоративного налогового планирования и обеспечению финансовой устойчивости.

Ключевые слова: *Акционерные общества, финансовый рынок, мировая экономика, инвестиционная деятельность, финансовая стратегия предприятий, финансовое планирование, валютная политика, девальвация, ревальвация, платежный баланс, приватизация, компании.*

KIRISH

Iqtisodiyot modernizatsiyasi va liberallashuvi jarayoni, fiskal siyosat va korxonalar soliq salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvi va aksiyadorlik jamiyatlari taraqqiyotining samarali mexanizmlarini davlat tomonidan qo‘llash ko‘p jihatdan soliqlarni rejalashtirishning samarali tashkil etilishiga ham bevosita bog‘liqdir. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab korxonalar moliyasini samarali boshqarishga qaratilgan moliya-soliq siyosati olib borilmoqda. Chuqur institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini kompleks rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilindi, maqsadli kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Bunda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, foydalanilmayotgan resurslar va moliyaviy imkoniyatlardan yuqori darajada va samarali foydalanish, soliq siyosati sohasida shakllanib qolgan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri – korxonalar miqyosida soliq menejmenti samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu sohada soliq tizimini to‘liq raqamlashtirish, soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, rasmiy sektor nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo‘lishi uchun barcha zarur sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilangan.

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlari maxsus, mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmaganligi ilmiy maqola uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida soliqlarni rejalashtirish metodologiyasini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asosini aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv va korporativ soliq menejmenti, soliqlarni rejalashtirishni tashkil etish va boshqarishning makroiqtisodiy va korporativ ko‘lami vazifalari, korxonada soliqlarni strategik va taktik rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish konsepsiyalari tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Soliqlarni rejalashtirish nazariyasi va amaliyotiga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili ko‘rsatishicha, bu sohaga oid adabiyotlar soni ko‘p bo‘lishiga qaramay, mualliflarning “soliqlarni rejalashtirish” tushunchasiga bergan ta’riflari har doim ham soliqlarni rejalashtirish, soliqlarni mukammallashtirish va soliqlarni minimallashtirish tushunchalarini aniq farqlashga imkon bermaydi. Masalan, S. Malakeeva mazkur tushunchalarni birday ko‘radi va ularning mohiyatini soliq to‘lovchilarning soliq to‘lovlarini kamaytirish yuzasidan harakatlari sifatida talqin etadi (Малакеева С., 2017: 114).

S. Elmirzayev “Soliqlarni rejalashtirish – qonunchilik tomonidan taqdim etilgan yengilliklar va soliq majburiyatlarini qisqartirishning boshqa qonuniy usullaridan foydalangan holda soliq va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni kamaytirish bo‘yicha belgilanadigan moliyaviy rejalashtirish turidir”, deb ta’kidlaydi (Elmirzaev S., 2012: 9).

X. Zaripov fikricha, “Soliqlarni rejalashtirish jarayonida asosiy tijorat va investitsion natijalarga erishish to‘lanadigan soliqlar summasi darajasining asoslangan yoki optimal miqdori orqali ta’minlanmog‘i lozim (Зарипов X., 2019).

A. Zaynutdinov soliqlarni rejalashtirishni mikro darajada umumiy rejalashtirish tizimining bir qismi sifatida, boshqaruv faoliyatining ko‘rinishi sifatida, xo‘jalik subyekti harakatlarini soliqqa tortish orqali tartibga solish usuli sifatida talqin etadi. Soliqlarni rejalashtirish korxonani boshqarishning umumiy maqsadiga erishishni ta’minlaydi: tang vaziyatlarda yashab qolish, normal vaziyatlarda samaradorlikni oshirish, o‘z moliyaviy resurslari hajmini oshirish va raqobatchilar oldida ustunliklarga ega bo‘lishdir.

X. Jamalov ta’kidlashicha, soliqlarni rejalashtirish moliyaviy resurslarni oshirishga, soliq bazasi tarkibi va miqdorini tartibga solish orqali korxonani moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan rejali faoliyatlar majmuidir (Джамалов X., 2021: 95).

Agar davlat foiz stavkasini oshirsa, pulga talab kamayib, ishlab chiqarish sektoridagi jamg‘arma shaklida (shuningdek, valyuta shaklida)gi pul mablag‘larining reinvestitsiyalashuvi tezlashib, o‘lik holatdagi moliyaviy resurslarning foydalanish koeffitsiyenti oshadi. Aksincha, foiz stavkalarining haddan ziyod pasayishi esa iqtisodiyotga bir (yoki bir necha) martalik foydali moliyaviy resurslarning ko‘payishiga olib keladi, ammo qisqa vaqt davomida salbiy ta’sirni keltirib chiqaradi.

Soliqlarni rejalashtirish mikro darajada korxonalar, ya’ni soliq to‘lovchilarda ular zimmasiga yuklatilgan soliq majburiyatlarini bajarishning moliyaviy rejasi - soliqlarni rejalashtirish shaklida namoyon bo‘ladi. Aksariyat iqtisodchi-olimlar soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlarining mohiyatini izohlashdagi yondashuvga e’tibor berilsa, ularni sinonim kategoriyalar desa bo‘ladi. Bizningcha bunday emas. Ayrim iqtisodchilar (Барулин E., 2007: 78) soliqlarni rejalashtirish jarayonini korxonalarda soliq qonunchiligi doirasida soliqlar bo‘yicha xarajatlarni minimallashtirish va korxonaning moliyaviy natijasini maksimallashtirishga qaratilgan moliyaviy rejalashtirishning tarkibiy qismi sifatida izohlaydilar. Bu yerda soliqlarni minimallashtirish deganda, mavjud qonunchilikdagi o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilgan holda mavjud imtiyozlardan to‘laqonli foydalanish, soliq majburiyatlarini o‘z vaqtida amalga oshirish

hisobiga ortiqcha jarimalarni to‘lamaslik hisobiga xarajatlarni kamaytirish nazarda tutiladi. Ba’zi adabiyotlarda soliqlarni rejalashtirish jarayonini korxonalarda byudjetlashtirish jarayoni sifatida izohlashsa, ba’zi iqtisodchilar soliqlarni byudjetlashtirish jarayonini soliqlarni to‘g‘ri rejalashtirish oqibatida iqtisod qilib qolingan daromadlar va soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan bog‘liq xarajatlarning solishtirma tahlili sifatida qaraydilar. Shuningdek, ushbu qayd etib o‘tilgan adabiyotlarda korxona doirasida amalga oshirishning metodlari sifatida korxonaning soliq siyosatini shakllantirish, korxonaning iqtisodiy-huquqiy faoliyatini tahlil qilish, xo‘jalik munosabatlarini almashtirish, munosabatlarni taqsimlash, soliq to‘lovlarini kechiktirish, soliq obyektlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qisqartirish va shu kabi metodlarni keltirib o‘tadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ soliqlarni rejalashtirish metodologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda analitik usul – soliq qonunchiligi va mavjud metodikalarni tahlil qilish; statistik usul – aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko‘rsatkichlari va soliq yukini hisoblash; taqqoslash usuli – turli mamlakatlarning soliq rejalashtirish tajribasini solishtirish uchun qo‘llanildi. Maqola yozishda ilmiy adabiyotlar, qonunchilik hujjatlari va kompaniyalarning ochiq moliyaviy hisobotlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida modellashtirish usuli orqali soliq tizimini optimallashtirishning yangi yondashuvlari taklif qilindi. Ushbu metodlar maqolaning ilmiy asosliligini ta’minlash va amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda korporativ soliqlarni rejalashtirish tizimini takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar soliq organlari faoliyatini, jumladan, ularning soliq to‘lovchilar va davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish, soliq qarzlarini o‘z vaqtida va to‘liq undirish, soliq nazoratining zamonaviy shakl va usullarini joriy etish yo‘nalishlariga qaratilganligi hammaga ma’lum.

Mamlakatimizda samarali va ta’sirchan soliq nazorati tadbirlarini yo‘lga qo‘yish, shuningdek soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muayyan muammolarning mavjudligi yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishning barqaror manbalarini ta’minlashga salbiy ta’sir etmoqda. (1-jadval)

Tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekneftgaz OAJ — neft va gazni qidirish, qazib olish, tashish, saqlash, qayta ishlash va sotish bilan O‘zbekistondagi eng yirik davlat kompaniyasi hisoblanadi. Tahlil qilayotgan jadval ma’lumotlari ko‘rsatib turibdiki, O‘zbekneftgaz OAJ ning yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2019-yilga nisbatan (17 828,5/20,6) 865 baravarga oshgani ahamiyatlidir.

Buning natijasida byudjetga to‘lovlar (4803,8/22,3) ham 215 baravarga oshib, 2023-yilda 4803,8 mlrd so‘mni tashkil qilayotgani ijobiy holdir. Zero, 2019-yilda soliq hamda majburiy to‘lovlar soni 14 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 9 ta soliq turi amal qilayotgani xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirishga sababchi bo‘layotganidan dalolat beradi.

1-jadval

“O‘zbekneftgaz” Aksiyadorlik Jamiyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari va ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Yalpi hududiy mahsulot hajmi	mlrd. so‘m	20,6	11 803,3	12 244,9	12 969,7	17 828,5
Mahalliy byudjet daromadlari ijrosi	mlrd. so‘m	0,024	288,7	145,2	473,2	689,1
“O‘zbekneftgaz” AJ mahsulot sotishdan sof tushumi	mlrd. so‘m	481,4	15 484,2	14 465,7	16 825,5	18 361,2
“O‘zbekneftgaz” AJ to‘lagan jami soliqlar va majburiy ajratmalar	mlrd. so‘m	22,3	3 521,4	3 321,4	4 291,2	4 803,8
“O‘zbekneftgaz” AJ to‘lagan sof soliqlar	mlrd. so‘m	22,1	3 510,4	3 290,6	4 282,6	4 799,3
“O‘zbekneftgaz” AJ mahsulot sotishdan sof tushumining YaIMdagi ulushi	foizda	0,09	2,67	1,97	1,89	1,72
“O‘zbekneftgaz” AJ to‘lagan jami soliqlar va majburiy ajratmalar hajmining YaIMdagi ulushi	foizda	0,004	0,61	0,45	0,48	0,45
“O‘zbekneftgaz” AJ to‘lagan sof soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi	foizda	0,004	0,61	0,45	0,48	0,45

2-jadval

“O‘ztransgaz” Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy ko‘rsatkichlari va ularning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Yalpi hududiy mahsulot hajmi	mlrd. so‘m	22 069	20 241	19 241	17 952	13 910
Mahalliy byudjet daromadlari ijrosi	mlrd. so‘m	10,4	20,3	146,4	252,4	115,7
AJning mahsulot sotishdan sof tushumi	mlrd. so‘m	19,2	20 817	21 128	20 795	21 484
AJ to‘lagan jami soliqlar va majburiy ajratmalar	mlrd. so‘m	5,7	8	6,3	5,7	1,7
AJ to‘lagan sof soliqlar	mlrd. so‘m	5,6	7,9	6,2	5,6	1,7
AJ mahsulot sotishdan sof tushumining YaIMdagi ulushi	foizda	0,003	3,6	2,9	2,3	2
AJ to‘lagan jami soliqlar va majburiy ajratmalar hajmining YaIMdagi ulushi	foizda	0,001	0,001	0,0008	0,0006	0,0002
AJ to‘lagan sof soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi	foizda	0,001	0,001	0,0008	0,0006	0,0002

Tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, O‘ztransgaz OAJ - gaz, gaz kondensati va neftni tashish, saqlash va sotish bilan shug‘ullanadigan O‘zbekistondagi yirik energetika kompaniyasi hisoblanadi. Tahlil qilayotgan jadval ma’lumotlari ko‘rsatib turibdiki, O‘ztransgaz OAJ ning yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi 2019-yilga nisbatan -36,97 foizga kamaygan. Natijada byudjetga to‘langan to‘lovlar summasi ham 2019-yilga nisbatan (5,7/1,7) 3,3 baravarga kam bo‘lgan. Bu albatta salbiy holdir. O‘ztransgaz OAJ bunday salbiy ko‘rsatkichga erishganini asosan 2023-yilda gaz qazib chiqarish hajmi 2023-yilda 5 mlrd kub metrga kamaygani bilan izohlamoqda.

Soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi, jumladan soliq tekshiruvi obyektlari zarur tahlilsiz belgilanishi soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni barvaqt profilaktika qilish samaradorligini pasaytirayotganligi bu borada bir qancha ishlarni amalga oshirishni talab etayotganligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarda O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh etishning muhim yo‘nalishlari sifatida soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish,

soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish kabi masalalar nazarda tutilgan. Jahon soliq amaliyotining hozirgi zamon yutuqlari va ilg‘or namunalaridan foydalangan holda mamlakatimizda soliq nazorati sifatiga ta’sir etuvchi asosiy mezonlar va masofaviy moliyaviy tranzaksiyalardan foydalangan holda kredit-moliya va soliq organlari tomonidan soliq intizomiga rioya etilmasligi sxemalarini aniqlash uchun foydalaniluvchi ma’lumot manbalarini tarkiblashtirish, tizimlashtirish va analitik maqsadlarda umumiy tarzda foydalanish imkoniyatlarini yaratish muhim hayotiy zarurat hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar soliq amaliyotida soliq risklarini segmentlashtirish jarayoni soliq to‘lovchining tasnifini hisobga olgan holda unga soliq riskining yuqori yoki o‘rta darajasi biriktirilishi bilan amalga oshiriladi hamda soliq nazorati sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli mezonlar bilan aniqlanadi: risk zonasi, soliq to‘lovchilar guruhlari (segmentlari), soliq to‘lovchining xulqi.

Xorijiy mamlakatlar soliq organlari va kredit-moliya institutlari umumiy yondashuvlarini o‘rganish soliq intizomiga rioya etilmasligi sxemalarini aniqlash uchun foydalaniluvchi ma’lumot manbalari tarkibida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: tashqi voqea-hodisalar monitoringi, jamoat ma’lumot resurslari, uchinchi shaxslar ma’lumotlari, tasodifiy tekshiruvlar, yirik tarmoq tadqiqotlari, bozor signallari, masofaviy moliyaviy tranzaksiyalardan foydalanish orqali soliq intizomiga rioya etilmasligi sxemalariga jalb etilgan soliq to‘lovchilar haqidagi ma’lumotlar.

Shunday qilib, mazkur masalaning tadqiqi tasdiqlashicha, davlatda soliq axloqi va soliq mentalitetining shakllanishi daromadlari darajasi, ma’lumoti, bandlik turi, har xil demografik belgilari turlicha bo‘lgan soliq to‘lovchilar guruhlarini tahlil qilishga yondashuvlar va tamoyillarning farqlanishi lozimligini shart qilib qo‘yadiki, buning natijasida davlat maqsadlarida fiskal instrumentdan foydalanish nuqtai nazaridan soliq nazoratining yangi shakllari yuzaga keladi. Soliq to‘lovchilarning xulqiy tavsiflarini o‘rganish aholi daromadlarining amaldagi miqdoriga soliq axloqining ta’siri haqida xulosalar olishga imkon berdi. Daromad olish darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan mamlakatlarda soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlari miqdori sezilarli tarzda pastdir va soliqning o‘zi individuumlar tomonidan qo‘shimcha yuklama tarzida emas, balki jamiyatda ne’matlarni qayta taqsimlash manbai sifatida qabul qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy maqolada, soliq mentaliteti va soliq madaniyatining amal qilishi davlatda soliq nazorati tarkibini shakllantiruvchi tamoyillar va yondashuvlarni aniqlaydiki, ular qat’iy tarzda tabaqalashtirilishi va soliq to‘lovchilar ayrim guruhlariga soliq yukini oshirish zarurligini hisobga olmog‘i lozim. Aks holda aholi va biznesning davlat

tomonidan yuritilayotgan fiskal siyosatga bo‘lgan ishonchi pasayishi hisobiga soliq nazorati samaradorligi ham doimiy tarzda pasayib boradi.

O‘zbekiston Respublikasida korporativ soliqlarni rejalashtirishda interaktiv tizimlarni samarali tashkil etish va ulardan foydalanish soliq va boshqa majburiy to‘lovlarning markazlashtirilgan tartibda hisobini yuritish tizimini takomillashtiradi. Turli shakldagi tezkor va tahliliy hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari yaratiladi. Soliq to‘lovchilarga keng ko‘lamli zamonaviy interaktiv xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yiladi. Soliq to‘lovchilar majburiyatlarining paydo bo‘lishi bo‘yicha vazirlik va idoralardan turli yo‘nalishdagi ma’lumotlar olinishi tashkil etilishiga va Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar yagona axborot bazasiga integratsiyalashtirilishiga va natijada tashqi manba ma’lumotlari asosida qo‘shimcha soliq obyektlarini hisobga olish imkoniyati yuzaga kelishiga va buning natijasida byudjetga soliqli tushumlar miqdori oshishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida korporativ soliqlarni rejalashtirish maqsadida ichki soliq nazorati samaradorligini oshirishga informatsion tizim va texnologiyalarni modernizatsiyalash hamda soliq munosabatlari ishtirokchilarining elektron muloqotli hamkorligini yo‘lga qo‘yish bilan erishish mumkin. Elektron ma’murchiligida hisob-fakturalarni elektron ro‘yxatga olishning yagona tizimini tashkil etish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi manbasini aniqlash, korxonalar o‘rtasidagi munosabatlar shaffofligini ta’minlash imkonini beradi.

Korporativ soliqlarni rejalashtirishga quyidagi samarali tadbirlarni amalga oshirish orqaligina erishish mumkin: soliq organlari ishini tashkil etishda “mijozga asoslangan yondashuv”ni joriy etish, takomillashtirish va yanada mukammallashtirish, nazorat faoliyatining ta’sirchan shakllari va usullariga, soliq to‘lovchi faoliyatini tekshiruvdan oldingi chuqurlashtirilgan tahliliga asoslangan soliq maslahati institutini takomillashtirish, soliq inspektorlarining o‘z xizmat majburiyatlarini sidqidildan bajarishlariga yuksak shaxsiy javobgarliklarini oshirish, soliq nazorati tadbirlarida foydalaniluvchi informatsion tizim va texnologiyalarni modernizatsiyalash hamda soliq munosabatlari ishtirokchilarining elektron muloqotli hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida, 12.09.2023-yil, 06/23/158/0694-son; Manba: https://lex.uz/docs/6600413

2. Малакеева С. (2017) Роль налогового планирования на предприятиях малого бизнеса // Предпринимательство. - № 6.

3. Elmirzayev S. (2012) O‘zbekiston Respublikasida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish istiqbollari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. – Toshkent.

4. Зарипов Х. (2019) Экономическое значение налогов и налоговая политика Узбекистана. Электр. Ресурс: https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskoe-znachenie-nalogov-i-nalogovaya-politika-uzbekistana

5. Джамалов Х. (2021) Диагностика финансового здоровья предприятий малого бизнеса // Journal of Economy and Business. V. 1-1 (71). – pp. 99-105

6. Киров А. (2009) Влияние налогового планирования на обеспечение финансовой устойчивости предприятия. Финансы и бизнес. № 3.

7. Лепа Р., Дзюба Б. (2012) Информационное обеспечение оперативного налогового планирования на предприятиях. Налоги и финансовое право. № 3.

8. Барулин Е. (2015) Налоговый менеджмент. Учебник. – Москва.

9. Попова Л. (2007) Прогнозирование и планирование в налогообложении: учеб. пособие для вузов. – Орел: Орел ГТУ. – 264 с.

10. Shernayev A. (2020) On the issue of the efficiency of taxation of joint stock companies // Экономика и бизнес: теория и практика. Международный ежемесячный научный журнал - № 9-2 (67). – Москва: ООО «Kapital».

11. Shernayev A. (2020) General methodological bases of tax planning in enterprises // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April.

12. Шернаев А. (2020) Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности акционерных обществ // Научный журнал «Интернаука» - № 12 (141). Часть 2. – Москва. – С. 43-45.

REFERENCES:

1. “O‘zbekiston–2030” strategiyasi to‘g‘risida, 12.09.2023-yil, 06/23/158/0694-son; Manba: https://lex.uz/docs/6600413 (In Uzbek)

2. Malakeeva S. (2017) Rol nalogovogo planirovaniya na predpriyatiyax malogo biznesa // Predprinimatelstvo. - № 6. (In Russian)

3. Elmirzayev S. (2012) O‘zbekiston Respublikasida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish istiqbollari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. avtoref. – Toshkent. (In Uzbek)

4. Zaripov X. (2019) Ekonomicheskoe znachenie nalogov i nalogovaya politika Uzbekistana. Elektr. Resurs: https://cyberleninka.ru/article/n/ekonomicheskoe-znachenie-nalogov-i-nalogovaya-politika-uzbekistana. (In Russian)

5. Djamalov X. (2021) Diagnostika finansovogo zdorovya predpriyatiy malogo biznesa // Journal of Economy and Business. V. 1-1 (71). – pp. 99-105. (In Russian)

6. Kirov A. (2009) Vliyanie nalogovogo planirovaniya na obespechenie finansovoy ustoychivosti predpriyatiya. Finansi i biznes. № 3. (In Russian)

7. Lepa R., Dzyuba B. (2012) Informasionnoe obespechenie operativnogo nalogovogo planirovaniya na predpriyatiyax. Nalogi i finansovoe pravo. № 3.

8. Barulin E. (2015) Nalogoviy menedjment. Uchebnik. – Moskva. (In Russian)

9. Popova L. (2007) Prognozirovanie i planirovanie v nalogooblojenii: ucheb. posobie dlya vuzov. – Orel: Orel GTU. – 264 s.

10. Shernayev A. (2020) On the issue of the efficiency of taxation of joint stock companies // Ekonomika i biznes: teoriya i praktika. Mejdunarodniy ejemesyachniy nauchniy jurnal - № 9-2 (67). – Moskva: OOO «Kapital». – C. 149-152. (In Russian)

11. Shernayev A. (2020) General methodological bases of tax planning in enterprises // International Journal of Economics, Commerce and Management. United Kingdom ISSN 2348 0386 Vol. VIII, Issue 4, April.

12. Shernayev A. (2020) Nalogovoe planirovanie v sisteme obespecheniya finansovoy bezopasnosti aksionernix obshestv // Nauchniy jurnal «Internauka» - № 12 (141). Chast 2. – Moskva. – S. 43-45. (In Russian)

O‘ZBEKISTONDA XALQARO MOLIYA OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY MUAMMOLAR

MAIN PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL FINANCIAL TRANSACTIONS IN UZBEKISTAN

ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ОПЕРАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich
Oriental universiteti
Moliya va menejment kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Tel.: +998 90 902-04-04
e-mail: n.mirzaakhmedov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolamizda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning ahamiyati va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni, hamda O‘zbekistonning bugungi kundagi xalqaro moliya tashkilotlari bilan moliyaviy munosabatlari tahlili va ular o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish istiqbollari haqida so‘z yuritiladi. Mamlakatimizda iqtisodiyotdagi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bu moliya bozorini rivojlantirish va xalqaro moliyaviy munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdir. Moliya bozori iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotlarni oshirish, kapital jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilishini ko‘rishimiz mumkin. Maqolada O‘zbekistonning bu tashkilotlar bilan uzoq muddatli strategiyalar orqali barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, inklyuziv iqtisodiyot, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash va zamonaviy infratuzilmani yaratishga qaratilgan istiqbolli loyihalari yoritilgan. Ushbu hamkorlik natijasida mamlakatimizning global iqtisodiyotga integratsiyasining kuchayishi ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: *moliyaviy hisobotning xalqaro standarti, buxgalteriya hisobining milliy standarti, moliyaviy hisobot, moliyaviy tahlil, sifatli moliyaviy axborot, iqtisodiy samaradorlik, investitsion muhit, kapital bozori.*

Annotation. Our article discusses the importance of international financial organizations and their role in economic development, as well as an analysis of Uzbekistan’s current financial relations with international financial organizations and the prospects for expanding cooperation between them. One of the important tasks of our country’s economy today is the development of the financial market and the establishment of international financial relations. We can see that the financial market serves to develop the economy, increase gross domestic product, attract capital, and increase investment attractiveness. The article highlights Uzbekistan’s promising projects with these organizations aimed at sustainable development, green economy,

inclusive economy, poverty reduction, employment generation, and creation of modern infrastructure through long-term strategies. As a result of this cooperation, it is envisaged that our country will strengthen its integration into the global economy.

Keywords: *international financial reporting standard, national accounting standard, financial reporting, financial analysis, quality financial information, economic efficiency, investment environment, capital market.*

Аннотация. В нашей статье рассматривается значение международных финансовых организаций и их роль в экономическом развитии, а также анализ текущих финансовых отношений Узбекистана с международными финансовыми организациями и перспективы расширения сотрудничества между ними. Одной из важных задач экономики нашей страны сегодня является развитие финансового рынка и налаживание международных финансовых отношений. Мы видим, что финансовый рынок служит развитию экономики, увеличению валового внутреннего продукта, привлечению капитала и повышению инвестиционной привлекательности. В статье освещаются перспективные проекты Узбекистана с этими организациями, направленные на устойчивое развитие, зеленую экономику, инклюзивную экономику, сокращение бедности, создание рабочих мест и создание современной инфраструктуры посредством долгосрочных стратегий. Ожидается, что это сотрудничество усилит интеграцию нашей страны в мировую экономику.

Ключевые слова: *международный стандарт финансовой отчетности, национальный стандарт бухгалтерского учета, финансовая отчетность, финансовый анализ, качественная финансовая информация, экономическая эффективность, инвестиционная среда, рынок капитала.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining rivojlanib borishi mamlakatlarni xalqaro maydonga chiqishga va yagona jahon iqtisodiyotini barpo etishga undamoqda. Bu esa “dunyodagi barcha mamlakatlar umumiy iqtisodiy qonunlarga ko‘ra rivojlanadi va ular xalqaro munosabatlar iqtisodiy xarakterining ustuvor bo‘lishini anglatadi” (Aliyev A., 2007:10). Bugun O‘zbekiston tashqi siyosati va iqtisodiy faoliyatidagi o‘zgarishlar, islohotlar mamlakatimiz bilan hamkorlik qilayotgan jahon va mintaqa mamlakatlari hayotida yangi sahifa, yangi burilish yasamoqda. Eng avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlari qarashlari va intilishlarini bir maqsadda birlashtirish hamda xalqaro doiradagi jarayonlarda bir-birini o‘zaro qo‘llab-quvvatlash prinsipi mintaqa davlatlari tashqi siyosatining ustuvor vazifasiga aylanishga ulgurdi. O‘zini dunyoga qayta kashf qilayotgan O‘zbekiston ham qo‘shni mamlakatlar bilan iliq do‘stona munosabatda bo‘lib, hamkorlik va integratsiya aloqalarini yanada yangi bosqichga olib chiqishga

harakat qilmoqda. Ammo, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro moliya tizimiga sekin kirib borayotgani, integratsiya dasturlarini amalga oshirishda vujudga kelayotgan tushunmovchilik va kamchiliklar, monopol korxonalarning yopiq moliya tizimini yoqlashi ushbu sohada bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va ushbu muammolar yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, eng maqbul variantlarda xalqaro tizim elementlarini qabul qilish masalalarini ko‘rib chiqish bugunning eng muhim masalalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI


Jahon moliya bozori atamasini turli mualliflar turli xilda izohlaydi. “Jahon moliya bozori” atamasining turli izohlardagi farqi uning keng yoki tor ma’nodagi izohi hisoblanadi. Lekin keng yoki tor ma’nodagi izohi ham turlicha tushuniladi. Masalan, taniqli olim L. Krasavinaning qayd etishicha, “jahon moliya bozorlari keng ma’noda mamlakatlar orasida pulli kapitallarning akkumulyatsiyasi va qayta taqsimotini ta’minlovchi bozor munosabatlari sohasidir. Jahon moliya bozori tor ma’noda fond bozori, ya’ni qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar bozoridir” . D. Mixaylov jahon moliya bozorini unda muomalada bo‘lgan vositalar nuqtai nazaridan ko‘rsatib o‘tadi. Bunda uning fikricha, jahon ssuda kapitali bozori va jahon moliya bozori “tushuncha nuqtai nazaridan bu tushunchadan ko‘proq amaliy foydalanishda o‘xshash kategoriyalar hisoblanadi. Shuningdek, V. Slepov va E. Zvonovalar xalqaro moliya bozori ta’rifida bozorning mohiyatini emas, balki moliyaviy tizim tushunchasini asos qilib oladilar: “Xalqaro moliya bozori – xalqaro moliyaning xalqaro moliya tizimidagi ma’lum doiralardagi harakati shakli”. Mazkur mualliflarning fikricha, Jahon moliya bozori tushunchasi xalqaro moliya bozoriga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi, bunda xalqaro va milliy moliya bozorlari yig‘indisini tushunish lozim, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlar, (yagona) alohidalik va mustaqillikka ega. Xalqaro moliya bozoriga kelsak, u quyidagi bozorlar: valyuta, kredit, fond, investitsiyalar, sug‘urta bozorini o‘z ichiga oladi. R. Olimova o‘z tadqiqotida O‘zbekiston va xalqaro moliyaviy tashkilotlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish masalalari, hozirgi kunda mustaqil respublikamizning dunyoning yirik moliya tashkilotlari bilan aloqasi kuchayib borayotganini ko‘rsatib o‘tgan. Bu esa o‘z navbatida, O‘zbekiston tadbirkorlari uchun jahon bozoriga chiqishni va natijada respublikada iqtisodiy, ijtimoiy farovonlikni yanada tezlashtirishini ta’kidlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish jarayonida xalqaro moliya operatsiyalarini rivojlantirishdagi asosiy muammolar bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma’lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro moliya munosabatlari bu xalqaro moliya bozori ishtirokchisi bo‘lgan shaxsning qaroriga muvofiq tarzda o‘ziga tegishli bo‘lgan xorijiy valyutalarning harakat jarayonini tavsiflovchi fundamental iqtisodiy kategoriyadir. 1970-yillarda xalqaro moliya tizimida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va mazkur o‘zgarishlar ta’sirida zamonaviy jahon valyuta-moliya tizimi shakllana boshladi.” (Ataniyazov J., 2014: 8). Xalqaro moliya munosabatlari rivojlanishiga jahon iqtisodiyotida bo‘lib o‘tgan boshqa muhim voqea-hodisalar ham ma’lum ma’noda ijobiy va salbiy jihatdan ta’sir ko‘rsatadi.



1-rasm. Xalqaro moliya tizimining tuzilmaviy tarkibi (Ataniyazov J., 2014)

Jahon moliyaviy muhitida xalqaro moliya tizimining barcha tashkiliy elementlari mujassamlashadi. Jahon moliyaviy muhiti – investorlar va korporatsiyalar moliyasi, banklar boshqaruvchilari qabul qiluvchi qarorlarga ta’sir ko‘rsatadi hamda jahon moliya bozori o‘sishi sharoitini aniqlaydi.

Xalqaro moliya munosabatlarining subyektlari esa quyidagilar: davlat, korxona, tashkilotlar, firmalar hamda xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, transmilliy korporatsiyalar, transmilliy banklar, birjalar, jismoniy shaxslar. Xalqaro moliya munosabatlari turli mamlakatlarning xo‘jalik yurituvchi subyektlari o‘rtasida, davlat va boshqa mamlakatlar hukumatlari hamda xalqaro tashkilotlar o‘rtasida, davlat va korxonalar bilan xalqaro moliya institutlari o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin.


Davlat xalqaro moliya sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy subyekt hisoblanadi. Markaziy banklar bu iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish organlari bo‘lib, ularga monopol tarzda banknotalar chiqarish, pul muomalasi, kredit va valyuta kursini tartibga solish, valyuta zaxiralarini saqlash vazifalari biriktirilgan.

Asosiy funksiyalari	valyutalar ayriboshlash va hisob-kitob tizimi shartlarining bir xillashuvi;
	valyuta kurslari rejimlarini tartiblashtirish va valyuta cheklovlarini tartibga solish;
	xalqaro valyuta likvidligini tartibga solish;
	kredit, sug‘urta, investitsiya va fond operatsiyalari xalqaro qoidalarini bir xillashtirish;
	mazkur funksiyalarni amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi xalqaro moliya institutlarini tashkil etish.

2-rasm. Xalqaro moliya tizimining asosiy funksiyalari (Ataniyazov J., 2014).

Xalqaro tashkilotlar – ular xalqaro shartnoma asosida tashkil etilgan bo‘lib, doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi organlarga ega bo‘lgan holda jahon xo‘jaligi birliklarining iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga yordamlashish vazifalarini bajaradi. Xalqaro valyuta-kredit va moliya tashkilotlari – jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish maqsadida xalqaro valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish uchun davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan iqtisodiy tashkilotlar. Xalqaro moliyaning rivojlanishida transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklar kabi subyektlar muhim rol o‘ynaydi.

Xalqaro moliya tizimi va moliya munosabatlarining rivojlanish evolyutsiyasi jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayoniga uzviy bog‘liqdir. Xalqaro moliya tizimi jahon xo‘jaligining shakllanishi jarayonida alohida o‘rin tutadi. Xalqaro moliya munosabatlari asta-sekin jahon xo‘jaligining tarkibiy elementiga aylana borgan. Hozirgi vaqtda xalqaro moliya munosabatlarini jahon xo‘jaligining rivojlanishi natijasida shakllangan mustaqil iqtisodiy tizim sifatida baholash mumkin.




3-rasm. Jahon tovar savdosi hajmi, (2015-2024-yillar 4 chorak)

Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining yuzaga kelishi, tez harakatlanuvchi kompyuter texnikasi, uyali telefon aloqasi, kibernetika, tarmoq texnologiyalari, Internet global tarmog‘ining yaratilishi bilan boshqa texnik yutuqlar ham birin-ketin paydo bo‘ldi.

Milliy moliya va kapital bozorlarining liberallashuvi axborot texnologiyalarining jadal takomillashuvi va milliy iqtisodiyotlarning globallashuvi bilan birgalikda moliyaviy innovatsiyalarni faollashtirdi va transchegaraviy kapital harakatining o‘sishiga turtki bo‘ldi. Moliyaviy vositachilikning globallashuvi qisman transchegaraviy oqimlarning oraliq mexanizmlariga bo‘lgan talabga javob bo‘lsa, qisman moliyaviy xizmatlar savdosidagi to‘siqlarning kamayishi va xorijiy moliya institutlarining ichki kapital bozorlariga kirishini tartibga soluvchi liberallashtirilgan qoidalarga javobdir. Texnologik taraqqiyot va moliyaviy liberallashuv tufayli vositachilik xizmatlarini yetkazib beruvchilar o‘rtasida raqobat kuchaydi. Ko‘pgina mamlakatlarda tartibga soluvchi organlar kengroq doiradagi institutlarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga ruxsat berish uchun moliyaviy vositachilikni tartibga soluvchi qoidalarni o‘zgartirdi va banksiz moliya institutlarining yangi sinflari, shu jumladan institutsional investorlar paydo bo‘ldi.

Investitsiya banklari, qimmatli qog‘ozlar firmalari, aktivlarni boshqaruvchilar, investitsion fondlar, sug‘urta kompaniyalari, ixtisoslashgan va savdoni moliyalashtirish kompaniyalari va hatto telekommunikatsiya, dasturiy ta’minot va oziq-ovqat kompaniyalari an’anaviy ravishda banklar tomonidan taqdim etilgan xizmatlarga o‘xshash xizmatlarni ko‘rsatishni boshlaydilar.

Blokcheyn-kriptovalyuta va blokcheyn texnologiyalar moliyaviy inqilobning muhim tarkibiy qismidir. Blokcheynlar yordamida tashkilotlar ma’lumotlarni saqlab qolishi, shaxslarni autentifikatsiya qilishi va identifikatsiyalashi, tranzaksiyalarni tekshirishi, bitimlar imzolashi va kuzatuvni kuchaytirishi mumkin.



4-rasm. Jamiyat iqtisodiyotining tarixiy sivilizatsiyasi

Yuqoridagi 4-rasmda ham insoniyatning qabila jamiyatidan tortib to tarmoq jamiyatigacha jamiyatda turli xil o‘zgaruvchan muhit mavjud. Ya’ni, bugungi kunda bir mamlakat iqtisodiyoti faqat ichki iqtisodiyot (ishlab chiqarish)ga emas, balki, boshqa davlatlarning iqtisodiyotiga bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni globallashuv natijasida mamlakatlar iqtisodiyoti bir-biriga chambarchas bog‘langanini anglashimiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalar butun dunyoda tarmoq jamiyatini yaratmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalqaro moliya tizimi – ikki yoki undan ko‘p bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi makroiqtisodiy munosabatlar va ularning pul operatsiyalari bilan shug‘ullanadigan moliyaviy iqtisodiyotning tizimi. Foiz stavkasi, ayirboshlash kursi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va valyuta kabi tushunchalar ushbu moliya tizimiga kiradi. Biz globallashgan dunyoda yashamoqdamiz. Rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan arzon ishchi kuchini, rivojlanayotgan mamlakatlar esa xizmatlar va mahsulotlarni izlaydi. Ikki davlat o‘rtasida savdo sodir bo‘lganda, ular moliyaviy integratsiyaga kirishishadi. Biroq, moliyaviy globallashuv va moliyaviy integratsiya, asosan, turli tushunchalardir. Moliyaviy integratsiya deganda alohida davlatning xalqaro kapital bozorlari bilan aloqasi tushuniladi. Shubhasiz, bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Barcha o‘rganishlarni umumiy xulosa sifatida keltiradigan bo‘lsak, bizda integratsiya borasida bir qancha yechimini kutayotgan muammolar mavjud, va ulardan ba’zilarini keltirib o‘tamiz:

1. Yuqori moliyaviy integratsiyalashgan mamlakatlar bilan tashqi savdo balansimiz doimiy manfiyligicha qolmoqda, bundan tashqari savdo infrastrukturasining yaxshi tashkil etilmaganligi;

2. Xalqaro moliya tashkilotlari biz uchun faqat kredit olish vositasi va manbasiga aylanib boryapti;

3. Mavjud tizim va qonunchiligimiz zamonaviy dunyo talabiga javob bera olmayapti, biz hali hamon investorlar uchun riski yuqori zona bo‘lib ko‘rinmoqdamiz;

4. Erkin valyuta munosabatlariga juda kech qadam qo‘yganimiz, investorlar va boshqa turdagi kapital egalari uchun valyutamizning mobil emasligi;

5. Iqtisodiyot uchun asosiy qon tomirlar vazifasini o‘tovchi banklarning nomustaqilligi, yangi innovatsiyalar o‘rniga doimiy ravishda eskirgan tizimdan foydalanib kelayotganligi.

Ushbu muammolarni hal etishda faqatgina nazariy tomondan emas amaliyot bilan yaqindan tanishgan holda quyidagi takliflar amalga oshirilsa, Respublikamiz global moliya tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Birinchidan, xalqaro savdo-moliya sohasiga integratsiyaga kirishishda mamlakatimizga yuqorida ta'kidlaganimizdek infrastruktura talab etiladi. Ya'ni, O'zbekiston dengizga chiqish uchun ikkita mamlakat chegarasini kesib o'tishi zarur. Mustaqillik yillarida zamonaviy yo'l-transport infratuzilmasini shakllantirish, chet mamlakatlar bilan bog'laydigan ilg'or transport-kommunikatsiya tarmoqlarini yaratish, dunyo bozorlariga yangi yo'llarni ochish muammoni kompleks hal qilish imkonini berishi mumkin;

Ikkinchidan, xalqaro moliya tashkilotlaridan faqatgina kredit jalb qilib emas, ulardagi yuqori salohiyatli mutaxassislarni tizimga olib kirish zarur deb o'ylaymiz.

Uchinchidan, biz tezroq moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishimiz kerak, aynan mana shu kichik detal investorlar oqimini bir necha barobar oshirish imkonini beradi, hozirgacha foydalaniladigan milliy standartda qilingan hisobotlarni qaytadan tarjima qilish amaliyoti yechim emas;

To'rtinchidan, xalqaro moliya bozoriga kirish amaliyotini jadallashtirishimiz zarur, xalqaro valyuta birjalarida so'm bilan savdolarni amalga oshirish jarayonini yo'lga qo'yish zarur. Bundan tashqari valyutamiz tebranishini tartibga solish eng muhim qilinadigan ishlardan biri hisoblanadi;

Beshinchidan, bank tizimimizni imkon qadar tezroq erkinlashtirish choralarini ko'rish kerak. Davlat banklarini xususiy sektorga taqsimlab, tizimga hukumat aralashuvini minimallashtirish zarur.

Hozirgi urush davrida tizim oldida yana bir muammo paydo bo'ldi, endilikda erkin savdo va bank faoliyatida sanksiyalarga tushib qolish ehtimoli kelib chiqmoqda. Global moliyaning muhim unsurlaridan biri bo'lgan Swift tizimidan uzilib qolish ehtimoli hozirgi moliya tashkilotlarining har birida mavjud. Shularni inobatga olgan holda ushbu tizimga muqobil variantlarni ko'rish zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mukesh Ralhan. (2017) Determinants of capital flows: a cross country analysis. Department of Economics, University of Victoria, Victoria. – Canada.
2. Ataniyazov J., Alimardonov E. (2014) Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti. – 481 b.
3. Ataniyazov J. (2020) Xalqaro moliya munosabatlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. – 632 b.
4. Vahobov A., Burxanov U., Jumayev N. (2013) Xalqaro moliya munosabatlari. – Toshkent: Toshkent moliya instituti. – 433 b.
5. Axmedov I., Hamidov O., Iminov Z. (2011) Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – 276 b.
6. Colin D. Campbell, Edwin G. Golan. (2017) Money, banking, and monetary policy. – The Dryden Press. – 596 p.

7. Paramasivan C., Subramanian T. (2019) Financial management. – New age international publishers, Vivekananda college of arts and sciences for women. – 404 p.

8. Ismailova N., Axrarova D. (2013) Xalqaro savdoning rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent. – 190 b.

9. Nazarova X., Xalilov A., Azimov I. (2010) Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Darslik. – Toshkent: Tafakkur.

10. Jeff Madura. (2018) International financial management. 11th edition. – 781 p.

11. Heribert Golsong. (2018) International organizations in General Universal international organizations an cooperation. – 305 p.

12. Eiteman Stonehill Moffett. (2013) Multinational business finance. 13th edition. – 651 p.

REFERENCES:

1. Mukesh Ralhan. (2017) Determinants of capital flows: a cross country analysis. Department of Economics, University of Victoria, Victoria. – Canada.

2. Ataniyazov J., Alimardonov E. (2014) Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti. – 481 b. (In Uzbek)

3. Ataniyazov J. (2020) Xalqaro moliya munosabatlari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. – 632 b. (In Uzbek)

4. Vahobov A., Burxanov U., Jumayev N. (2013) Xalqaro moliya munosabatlari. – Toshkent: Toshkent moliya instituti. – 433 b. (In Uzbek)

5. Axmedov I., Hamidov O., Iminov Z. (2011) Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. – 276 b. (In Uzbek)

6. Colin D. Campbell, Edwin G. Golan. (2017) Money, banking, and monetary policy. – The Dryden Press. – 596 p.

7. Paramasivan C., Subramanian T. (2019) Financial management. – New age international publishers, Vivekananda college of arts and sciences for women. – 404 p.

8. Ismailova N., Axrarova D. (2013) Xalqaro savdoning rivojlanish tendensiyalari. – Toshkent. – 190 b. (In Uzbek)

9. Nazarova X., Xalilov A., Azimov I. (2010) Xalqaro iqtisodiy integratsiya. Darslik. – Toshkent: Tafakkur. (In Uzbek)

10. Jeff Madura. (2018) International financial management. 11th edition. – 781 p.

11. Heribert Golsong. (2018) International organizations in General Universal international organizations an cooperation. – 305 p.

12. Eiteman Stonehill Moffett. (2013) Multinational business finance. 13th edition. – 651 p.

XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA SANOAT KORXONALARIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI FAOLLASHTIRISH

ACTIVATING STRUCTURAL CHANGES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES BASED ON FOREIGN EXPERIENCE

АКТИВИЗАЦИЯ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Xaydarov Xayrulla G‘ulamovich
Oriental universiteti dotsenti v.b., PhD
Tel.: +998 94 413-89-13
e-mail: rashidov.a.r1991@gmail.com

Annotatsiya. Sanoat korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni faollashtirish xorij tajribasi asosida zamonaviy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzu doirasida rivojlangan mamlakatlarning sanoat sohasidagi muvaffaqiyatli tajribalari o‘rganiladi va ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Xorijiy tajribada ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va boshqaruv tizimlarini takomillashtirish kabi strategiyalar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu yondashuvlar orqali korxonalar samaradorligi oshadi, xarajatlarni kamaytirishga erishiladi va raqobatbardoshlik darajasi yuqori darajaga ko‘tariladi. O‘zbekistonda ushbu tajribalarni qo‘llash uchun mahalliy iqtisodiy sharoitlar, infratuzilma va kadrlar salohiyatini hisobga olish zarur. Tadqiqotda xorijiy modellarni sinchkovlik bilan tahlil qilib, ularning ijobiy jihatlari va mahalliy sanoatga moslashuvi bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi. Natijada, sanoat korxonalarida barqaror rivojlanish va modernizatsiya jarayonlarini tezlashishga xizmat qiluvchi amaliy yechimlar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: *Tannarx, samaradorlik, moliyaviy mablag‘, konsepsiya, davlat byudjeti, bank tizimi, eksport, globallashuv, modernizatsiya, infratuzilma, innovatsiya.*

Annotation. Activating structural changes in industrial enterprises based on foreign experience holds significant importance in the modern economy. This study explores successful practices in the industrial sectors of developed countries and examines ways to adapt them to local conditions. Foreign experience highlights strategies such as the adoption of advanced technologies, optimization of production processes, and improvement of management systems, which play a crucial role in enhancing enterprise efficiency, reducing costs, and elevating competitiveness. To implement these practices in Uzbekistan, it is essential to consider local economic conditions, infrastructure, and workforce capacity. The research meticulously analyzes foreign models, identifying their positive aspects and proposing adaptations for the

local industry. Ultimately, practical solutions are presented to accelerate sustainable development and modernization processes in industrial enterprises.

Keywords: *Cost, efficiency, financial resources, concept, state budget, banking system, export, globalization, modernization, infrastructure, innovation.*

Аннотация. Активизация структурных изменений на промышленных предприятиях на основе зарубежного опыта имеет важное значение в современной экономике. В рамках данной темы изучается успешный опыт развитых стран в промышленной сфере и рассматриваются пути его адаптации к местным условиям. В зарубежной практике значительную роль играют такие стратегии, как внедрение передовых технологий, оптимизация производственных процессов и совершенствование систем управления. Эти подходы способствуют повышению эффективности предприятий, снижению затрат и увеличению уровня конкурентоспособности. Для применения данного опыта в Узбекистане необходимо учитывать местные экономические условия, инфраструктуру и кадровый потенциал. В исследовании проводится тщательный анализ зарубежных моделей, выявляются их положительные аспекты и разрабатываются предложения по их адаптации к местной промышленности. В результате предлагаются практические решения, способствующие устойчивому развитию и ускорению процессов модернизации на промышленных предприятиях.

Ключевые слова: *себестоимость, эффективность, финансовые ресурсы, концепция, государственный бюджет, банковская система, экспорт, глобализация, модернизация, инфраструктура, инновации.*

KIRISH

Mamlakatlar milliy iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va undagi tarkibiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish korxonalarining murakkab iqtisodiy sharoiti, iqtisodiy zararlar, mahsulot qiymatining ishlab chiqarish tannarxidan arzonligi, yetkazib beruvchi va kreditorlar bilan hisoblashish uchun mablag‘larning yetishmasligi, qarzdorliklarning ortib ketishi o‘z o‘zidan davlat byudjeti va bank tizimiga keskin zarba bera boshladi. Bunday sharoitda yagona vosita ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish bo‘lib, unda eskirgan jihozlarni almashtirish, moliyaviy mablag‘larni tartibga solish va mahsulotni sotish tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, respublikamiz sanoat tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga bo‘lgan konseptual yondashuvlar va ularning qo‘llanilish turlarini tahliliy o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirishda tarkibiy o‘zgarishlar qilish muhim omillardan biri bo‘lib, bu borada turli yondashuvlar mavjud. Iqtisodchi olimlar, Merfi

(1989), Polterovich (2004) va Popov (2005) nazariy modellarida, mamlakatni sanoatlashtirish hamda sanoat ishlab chiqarishining eksport salohiyatini oshirishda tashqi ijobiy ta’sirlar mavjudligi g‘oyasi ilgari suriladi.

Iqtisodchilar Xan va Gibbs (2007) tadqiqotlarida rivojlanayotgan mamlakatlar sanoat siyosatidan farqli ravishda, sharqiy Osiyo mamlakatlari siyosatining muvaffaqiyat sirlari ochib berilgan. Ularning fikricha, tarkibiy siyosatning muvaffaqiyatiga eksport salohiyatini kengaytirishda ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Hausmanning (2006) ta’kidlashicha, iqtisodiyotda eksportni kengaytirish hisobiga erishilgan rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish samaradorligiga mos kelishi yoki bog‘liq bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, murakkab va yuqori texnologiyali mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish - yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish, sifatli va samarali mehnatni tashkil etish kabi bir qator sa’y-harakatlarni talab etadi.

Hausman va Rodrik (2006) konseptual va nazariy qarashlarida sanoati nisbatan rivojlangan va texnologik jihatdan murakkab sanoat ishlab chiqarishiga ega mamlakatlar, o‘zlarining eksport salohiyatini boshqa mamlakatlarga qaraganda tezroq kengaytirishiga alohida e’tibor qaratishgan. Biroq, zamonaviy globallashuv talablarini inobatga olgan holda, ushbu konseptual yondashuvlar sanoatni texnologik modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish jarayoniga har doim ham mos kelavermaydi.

Xitoylik iqtisodchi olim Jastin Ifu Lin (2010) "Yangi tuzilmaviy iqtisodiyot" nomli tadqiqotida, iqtisodchi olimlar oxirgi yuz yillik tarixga nazar tashlasalar, Braziliya, Chili, Xitoy, Indoneziya, Hindiston, Janubiy Koreya, Malayziya, Mavrikiy, Singapur, Tailand va Vetnam kabi sanoqli mamlakatlar o‘zlarini nihoyatda orqada qolgan qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotidan sanoatlashgan iqtisodiyotga aylantirish jarayonini tezlashtirishi natijasida iqtisodiyoti tez sur’atlar bilan o‘sganini va bir necha yuz million aholini qashshoqlikdan olib chiqqanligining guvohi bo‘lishlari mumkin. Uning konseptual yondashuvlari quyidagi fikrlarga asoslanadi:

- iqtisodiyotning sanoat tarkibi, rivojlanishning har xil bosqichlarida turlicha bo‘ladi. Tarmoqlardagi kapital sarfining farqlanishidan tashqari, turli xil sanoat tuzilmalari tushunchasi – firmalarning optimal hajmi, ishlab chiqarish masshtabi, bozor diapazoni, tranzaksiyalarni amalga oshirishning murakkabligi, shuningdek, turli xildagi xavf-xatar belgilaridagi farqlarni ham nazarda tutadi. Natijada, har bir sanoat tuzilmasining tranzaksiya va operatsiyalarini osonlashtirish uchun yumshoq va qattiq holatdagi infratuzilma talab etiladi;

- iqtisodiy rivojlanishning har bir bosqichi keng spektrdagi past daromadli natural qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotidan yuqori daromadli industriallashgan iqtisodiyotga o‘tish nuqtasi hisoblanadi. Sanoat tarkibiy siyosatini ishlab chiqishning

har bir bosqichida endogenlikni inobatga olgan holda, rivojlanayotgan mamlakatning sanoatini modernizatsiya qilish va infratuzilmasini yaxshilash maqsadi, daromadi yuqori rivojlangan mamlakatlardagi mavjud tarmoqlar va infratuzilmalarga muvofiq bo‘lishi shart emas;

- bozor, resurslarni samarali taqsimlashning asosiy mexanizmi hisoblanadi, iqtisodiy rivojlanish bir bosqichdan keyingi bosqichga o‘zgarib boruvchi jarayon sifatida, sanoatni diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni hamda qattiq va yumshoq infratuzilma holatini yaxshilashni talab etadi. Industrial diversifikatsiya va modernizatsiyalash jarayoni bu innovatsiya jarayonidir. Diversifikatsiya va modernizatsiya sohasida birinchilardan bo‘lgan korxonalar iqtisodiyotda boshqa korxonalar uchun ommaviy (raqobatdosh bo‘lmagan, istisno qilinmaydigan) bilimlarni ishlab chiqishadi, ya’ni, birining yangi bilimlarni o‘zlashtirishi boshqasining ushbu bilimlardan foydalanishini chegaralamaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi xorij tajribasini o‘rganish va sanoat korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni faollashtirish jarayonlarini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada qiyosiy tahlil usuli qo‘llanilib, ilg‘or xorijiy mamlakatlarning sanoat sohasidagi strategiyalari va O‘zbekistonning mavjud holati solishtirildi. Shuningdek, statistik ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlarni sharhlash orqali empirik tadqiqot usullari ishlatildi. Natijalar sintez qilinib, mahalliy sharoitga mos takliflar ishlab chiqish uchun tizimli yondashuvdan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu yondashuvlarni qisman qamrab olgan murakkab iqtisodiyot sharoitida jahon tajribasida bunday tarkibiy o‘zgarishlarning quyidagi 3 xil turlari qo‘llanilgan:

- korxonani boshqarish va mulkchilik tizimida xususiylashtirishning muhim o‘zgarishlari amalga oshirildi;
- talab qilingan qonunlar qayta ishlandi;
- maqsadli soliq siyosati olib borildi.

Tarkibiy o‘zgarishlarning yuqorida keltirilgan konsepsiyalaridan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiyot rivojlanishining turli bosqichlarida uni tartibga solishning bozor mexanizmlarini rivojlantirish darajasi, davlat institutlarining iqtisodiyotdagi ishtiroki, shuningdek, boshqa ijtimoiy, geoiqtisodiy va geosiyosiy omillarning ta’siri turlicha bo‘lib, har bir bosqichda tarkibiy o‘zgarishlar va sanoat siyosati o‘ziga xos farqli jihatlarga ega bo‘ladi. Bunda sanoat siyosatining samarali vositasi tarkibiy o‘zgarishlarni davlat tomonidan tartibga solish, ya’ni, tarmoq va tarmoqlararo nisbatlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir hamda mamlakatning sanoat salohiyati balansiga bevosita ta’sir ko‘rsatish, resurslarni qayta taqsimlashda oqilonalikni ta’minlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarning sanoatlashish davri bizga tarkibiy o‘zgarishlarning uchta asosiy modelini: import o‘rnini bosish, eksportga yo‘naltirish va innovatsion modellarni aniqlash imkonini beradi. Modelni tanlash tashqi yoki ichki bozorga yo‘naltirish mezoniga va investitsiya resurslarini jalb qilish mexanizmiga muvofiq ajratilgan uchta strategiyadan birini tanlash bilan bog‘liq. Shunday qilib, tashqi bozorga yo‘naltirilganlik mamlakatdan yuqori darajada ixtisoslashuvni rivojlantirishni talab qiladi, ichki yo‘nalishda esa an’anaviy va strategik ahamiyatga ega sanoat va faoliyatni rivojlantirish talab etiladi. Bundan tashqari, ushbu farqlar, asosan, mahsulot ishlab chiqarish va xom ashyo qazib olish bo‘yicha yirik loyihalarni amalga oshirishda investitsiya resurslarining manbai bo‘lishi bilan belgilanadi.

Turli mamlakatlarda, vaqt o‘tishi bilan, amaldagi tashqi va ichki bozorlar, mamlakatning eng ko‘p talab qilinadigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mehnatning xalqaro bo‘linmasida ishtirok etish uchun moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda modellarning o‘zgarishi yuz berdi. Misol uchun, jahon iqtisodiyotida tarkibiy o‘zgarishlarni rivojlantirish tarixidagi o‘zgarishlar – avtomobillar yaratish va ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lib, bu Yaponiya iqtisodining tarmoq tarkibini o‘zgartirdi. 1930-yillarning o‘rtalarida qabul qilingan milliylashtirish qonuni, barcha xususiy korxonalar Yaponiyaning mulkiga aylangan va 1949-yilgacha Amerika avtomobillarini olib kirishga ruxsat berish bilan birga amerikacha avtomobillarni yapon analoglari bilan import qilishga qaratilgan edi. Ko‘plab iqtisodchilar fikricha, Yaponiyaning iqtisodiy mo‘jizalari sirini mamlakatning tashqi tomonga yo‘naltirilgan iqtisodiy o‘sishiga emas, balki iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni boshlayotgan, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini aniqlash, xatarlarni kamaytirish, investitsiyalarni jalb qilishda hukumatning o‘ziga xos rolini e’tiborga olib, investitsion loyihalar, subsidiyalar, ma’muriy boshqaruv va boshqalar orqali siyosat olib borishidir (Кузнесов О., 2002).

Masalan, AQShda sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlar siyosati tadbirkorlik faoliyatini har tomonlama rag‘batlantirish bilan ajralib turgan. Ya’ni, barqaror konyunktura va iqtisodiy muvozanatni saqlashga qaratilgan davlat ta’siri choralari bilan o‘ziga xos bo‘lgan. Ayniqsa, AQSh va Xitoy sanoat siyosatida jahondagi tarkibiy o‘zgarishlar masalalarining iqtisodiy masshtabdagi yechimlari, geosiyosiy holati va boshqa makroiqtisodiy o‘lchamlari namoyon bo‘ldi. Ushbu mamlakatlar 80-yillarning o‘rtalariga kelib, barcha qayta ishlash sanoatining tashkiliy-texnologik tizimini tubdan qayta qurdi. Ya’ni, nisbatan yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik sonli yig‘uvchi korxonalar ishlab chiqarishini iste’molchilar bilan shartnomalar asosida tashkil qildi; tor ixtisoslashtirilgan korxona-yig‘ish ishlab chiqaruvchilari tugallangan mahsulot tayyorlashni subpudrat shartnomalar bilan yo‘lga qo‘ydi. Mazkur usullar milliy iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirishda ustuvor omil bo‘ldi. Ayni vaqtda, kichik va

o‘rta tadbirkorlik ishlab chiqarishida ham tarkibiy o‘zgarishlar qo‘llab-quvvatlandi hamda innovatsiyalarni amalga oshirish, diversifikatsiya qilish uchun ham qo‘llanildi. Bunday innovatsion va korxona tarkibiy o‘zgarishlarining “tabiiy” mexanizmi reinjiniring atamasi bilan yuritildi.

Belorus esa rivojlangan mamlakatlarning ko‘p asrlik tajribasiga tayanib, ushbu strategiyalarga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini guruhlashni o‘z ichiga olgan noyob tarkibiy o‘zgarishlarni aniqladi. Ya’ni, "Belarus Respublikasining tarkibiy siyosati belgilangan rivojlanish strategiyalarini ularning raqobatbardosh ustunliklaridan maksimal darajada foydalanishni inobatga olgan holda, respublika tarmoqlararo komplekslari va tarmoqlarining o‘ziga xos xususiyatlariga nisbatan oqilona birlashishini ta’minlashi kerak" (Шимова В., 2012).

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi samarali milliy innovatsion tizimni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, uning barcha sohalarida va rivojlanish bosqichlarida (innovatsion infratuzilmaning rivojlanishidan va asosiy ishlab chiqarishni sanoat ishlab chiqarishda amaliy qo‘llash uchun moliyalashdan) davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini o‘z ichiga oladi. Tarkibiy o‘zgarishlarning innovatsion modelini yaratish jarayonining ulkan sarmoyaviy intensivligi dunyo tajribasining noldan boshlab rivojlanish misollari yo‘qligi bilani izohlanadi.

Ushbu modelni iqtisodiyotni samarali, dinamik, barqaror va sifatli o‘sishining natijasi sifatida qarash mumkin. Shuning uchun ushbu model AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Honkong va Janubiy Koreyada keng qo‘llaniladi. Aynan 1971-1974-yillarda GFR iqtisodiyotidagi tarkibiy beqarorlik 1975-1976-yillarda juda kuchli ishlab chiqarish inqirozini keltirib chiqargan va boshqa mamlakatlarda ham mazkur holatlar kuzatilgan (Акаева С., Соколов В., 2016:38).

Jumladan, Germaniya sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlarning o‘ziga xos xususiyatida, faol ravishda “shtandort” siyosatining yuritilishi, sanoat innovatsiyalarini qo‘llash va uni qayta ishlash jarayonlari samaradorligini oshirish, sanoatda tadqiqotlarni rag‘batlantirish, kichik va o‘rta korxonalar uchun qulay sharoitlar yaratish va ularning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishga yosh va yuqori malakali kadrlarni jalb etishni qo‘llab-quvvatlash, malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish, ishlanma va tadqiqotlar sohasidagi kooperatsiyani muvofiqlashtirish, sanoatda fundamental tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, sanoat klasterlari va texnoparklar rivojlanishiga katta e’tibor berildi. Ayniqsa, ijtimoiy bozor xo‘jaligi konsernlarining tugatilishi va barcha xo‘jalik yuritish shakllariga (yirik, o‘rta, kichik) barqaror rivojlanish imkoniyatlarini berish asosida shakllandi. Bunda “mittelshtand” deb ataladigan kichik va o‘rta korxonalar, fermer xo‘jaliklarining alohida homiyligidan foydalanildi.

Janubiy Koreya sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlar, subsidiya kreditlarini taqdim etish (Koreya rivojlanish banki orqali), kompaniyalarni qayta tashkil etish, sanoat tarmoqlarini oqilona kreditlash (1983-yilgacha), valyuta siyosati orqali sanoat ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash (1990-yillargacha), sanoatning kichik tarmoqlarini himoyalash, import texnologiyalarni litsenziyalash, milliy korxonalar kapitalida xorijiy transmilliy kompaniyalar ishtirokini cheklash, yuqori texnologiyali tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash (nanotexnologiya, biotexnologiya, yashil o‘sish texnologiyasi), sanoatda ishlanmalar va tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda himoyalash bilan ajralib turdi.

Iqtisodiyotda sanoat korxonalarini tarkibiy o‘zgartirish modernizatsiya qilishning yangi ilmiy-texnik yutuqlari va ilg‘or texnologiyalarini joriy qilishni, ilg‘or tarkibiy siljishlar va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, uning xalqaro mehnat taqsimotidagi raqobatbardoshligini ta’minlashga qaratilgan institutsional islohotlarni amalga oshirish asosida yangilashni o‘zida mujassamlashtirdi.

Singapur sanoatida tarkibiy o‘zgarishlar, erkin savdo tartibini shakllantirish (1960-yillar oxiri), sanoat tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, jamg‘arishni rag‘batlantirish (1990-yillar oxirigacha) sanoatda ish haqi va mutaxassislik darajasini oshirish, faol klaster siyosatini amalga oshirish (biotibbiyotda), davlat kompaniyalarini rivojlantirish, bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi xalqaro kompaniyalarga subsidiyalar taqdim etish orqali qo‘llab-quvvatlandi. Tarkibiy o‘zgarishlar va sanoatlashtirish bo‘yicha Osiyo mamlakatlari (Yaponiya, Xitoy kabi) tajribasidan ma’lumki, rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlangan mamlakatlarga nisbatan mavjud texnologiyalarni o‘zlashtirish va sanoat ishlab chiqarishi ixtisoslashuvi hisobiga tez sur’atlarda o‘sishi mumkin. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlar tarkibiy jihatdan farqlanadi va mehnat samaradorligi bo‘yicha sezilarli darajada orqada qolgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar yanada boy bo‘lishidan tashqari, ularda sanoat ishlab chiqarish diversifikatsiyasi ham kuchayib bormoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya samarali boshqaruv nuqtai nazaridan eng muvaffaqiyatli mamlakatlardan bo‘lib, ularda davlat pragmatik tarkibiy siyosatni amalga oshirish yo‘li orqaligina industrial masalalarga aralashadi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi past bo‘lgan. Osiyo mamlakatlarida olib borilgan sanoat siyosati natijalari, xususan Hindiston va Xitoyda Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan ancha yaxshidir. Shu o‘rinda Xitoy va Lotin Amerikasi sanoatlarida tarkibiy o‘zgarishlar amalga oshirish quyidagicha bo‘lganini eslab o‘tamiz:

Xitoy sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlarning o‘ziga xosligi, iqtisodiyotni liberallashtirish (1990-yillar o‘rtalari), transmilliy kompaniyalarga boshlang‘ich investitsiyalarni jalb etish, turli iqtisodiy zonalar tashkil etish orqali sanoat ishlab

chiqarishini rivojlantirish, yuqori texnologiyali tarmoqlar va ularning infratuzilmalarini rivojlantirishga ustuvorlik berilishi, energiyani tejashga ustuvorlik berilishi, proteksionistik vositalardan foydalanish, mahsulotning lokalizatsiya darajasiga talab qo‘yilishi, eksportni subsidiyalash va uni cheklash, sanoat tarmoqlariga maqsadli subsidiyalar ajratish (Xitoy eksport-import banki, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish banki, Xitoy rivojlanish banki orqali), klaster siyosati yuritilishi, faol davlat xaridlarining amalga oshirilishida namoyon bo‘ldi.

Lotin Amerikasi sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlar, ahamiyatli darajadagi indikativ rejalashtirish (1950-1980-yillar), yangi sanoat tarmoqlarini yaratishga yo‘naltirilganlik, sanoat ixtisoslashuvidagi o‘zgarishlar, faoliyat turlari bo‘yicha intensiv texnologik rivojlanish, savdo proteksionizm va import o‘rnini bosuvchi siyosatning qo‘llanilishi, yuqori import tariflari, import hajmlarini cheklash, qazib olish va qayta ishlash sanoati bo‘yicha davlat kompaniyalarini rivojlantirishda siyosatning ustuvorligi, sanoat tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, savdoni liberallashtirish (1980-yillar oxiri 1990-yillar boshi), makroiqtisodiy siyosatni barqarorlashtirish (1990-yillar), Braziliyada sanoatni innovatsion rivojlantirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan moliyaviy dasturlarni qo‘llab-quvvatlash, Chilida esa, vertikal sanoat siyosatidan foydalanib, subsidiyalashga katta e’tibor berilishi bilan ajralib turgan.

Finlandiya sanoatidagi tarkibiy o‘zgarishlar samarasi, kapitalni tejovchi tarmoqlarga (sellyuloza-qog‘oz) va davlat kompaniyalariga katta ahamiyat berilishi (1950-60-yillar), xususiy sektorga investitsiyalarni yo‘naltirish bo‘yicha ustuvorlikning berilishi, eksport o‘sishini qo‘llab-quvvatlashi (1957-1982-yillar), sanoatni innovatsion rivojlantirish maqsadida ilmiy parklarning rivojlanishiga katta ahamiyat berishi, mintaqaviy sanoatni rivojlantirishda klaster siyosatiga ustuvorliklar berishida bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan tarkibiy o‘zgarishlarning xorij tajribalarini tahlil qilish bizga quyidagi xulosalar qilish imkonini berdi:

Tarkibiy o‘zgarishlar mexanizmi alohida xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun universal yechim emas, chunki ularning ayrimlari o‘ziga xos muammolarga ega bo‘lganligi sababli unga individual talablar qo‘yiladi. Yirik va katta bo‘lmagan korxonalarni tarkibiy o‘zgartirish loyihasi uyushmalar tuzish, singdirish yoki bo‘lish, ajratish kabi usul va rag‘batlar bilan amalga oshiriladi. Ayni vaqtda, loyihani korxonalar o‘zlari quyidan boshlashi; korxona rahbarlari tomonidan loyihani real boshqarish (rasmiy emas); loyihani moliyalashtirish manbalarini o‘zgartirish; konsalting xizmatlarining rag‘batlantiruvchi usullarni o‘zgartirish kabi rivojlanishning ikkinchi bosqichiga kirdi.

Tarkibiy o‘zgarishlarning barcha tashkiliy usullari orasida holding, o‘zaro egalik qiluvchi yirik aksiyadorlik jamiyatlari tuzish alohida o‘rin egalladi. Iqtisodiy rivojlanishning ushbu bosqichida davlatning qo‘llab-quvvatlashi jiddiy ta’sir qiladi, ayniqsa mintaqaviy darajada.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida gumanitar infrastrukturani isloh qilish eng qimmat va murakkab yechim hisoblanadi, bunda xodimlarni ommaviy o‘qitish, bozorga mos keladigan mehnatga oid imtiyozlarni yaratish talab etiladi.

Jahon mamlakatlari amaliyotida milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tarkibiy o‘zgarishlar konsepsiyasi ilmiy jihatdan eng rivojlangan, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muvozanatli, eng muvaffaqiyatli islohot hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bundan kelib chiqadiki, barcha mamlakatlarning ichki iqtisodiy holati nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, balki daromadlar tengsizligi, ijtimoiy siyosat olib borish, infratuzilmani rivojlantirish maqsadlariga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o‘zgarishlarning quyidagi tizimli usullarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

1. Tarkibiy o‘zgarishlarning normativ-huquqiy bazasini yaratish: bunda uzoq muddatli istiqbolli normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish va hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mexanizmini rivojlantirish;

2. Mahsulot sifati va bozorga xos usullar: tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshiruvchi mas’ullar faolligini oshirish. Bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy tartibga solish vositalarini joriy etish lozim;

3. Fan-ta’lim va innovatsion faoliyatni amalga oshirish: tarkibiy o‘zgarishga oid ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash hamda moliyalashtirish jamg‘armasini yaratish. Tajriba konstruktorlik ishlarini rag‘batlantiruvchi imtiyozlarni taqdim etish;

4. Milliy innovatsiya tizimini shakllantirish: sanoat tarmoqlariga oid innovatsiya infratuzilmasini ishlab chiqish, tarkibiy o‘zgarishlarning tashkiliy, qonuniy, tarkibiy va funksional tizimini yaratishdan iborat. Innovatsiya jarayonlarini, xususan, ilmiy tajribalar, moliya va resurslarni muhim yo‘nalishlarga jalb etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.

Iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshirilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, mahalliy xom ashyo va materiallarni chuqur qayta ishlash hisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar qabul qilish lozim. Shuni ta’kidlash lozimki, sanoat korxonalarida samarali tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish boshqaruvning yangi mexanizmlarini talab etadi. Shuningdek, statistik hisob va ushbu jarayonlarni tahlil qilishga yangicha yondashuvlar zarurligini namoyon etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o‘zgarishlarning samarali yo‘llarini statistik metodlar asosida o‘rganish va takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – Toshkent: TMI. 2017.

2. Tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tamoqlarini medernizatsiya va diversifikatsiya qilish. Ma’ruza va tezislar to‘plami. – Toshkent: TDIU. 2017.

3. Xomidov S. va boshqalar. (2018) Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillari va tendensiyalari. O‘quv qo‘llanma. 373-bet.

4. Xodiyev B., Nosirov N., va boshqalar. (2018) Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillari va tendensiyalari. Monografiya. – Toshkent: “IQTISODIYOT”.

5. Кузнесов О. (2002) История экономики. – Москва: Наука. – 207 с.

6. Шимова В. (2012) Националная экономика Беларуси. Учебник. – Минск: БГЕУ. – 472 с.

7. Акаева С., Соколов В. (2016) Об отраслевих и технологических структурных сдвигах, необходимих для модернизации Российской экономики. МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). Т. 7. № 3. – С. 38-48.

8. Мискевич В. (1999) Реструктуризация крупного предприятия: опит, проблеми, оценки // Економика и жизн. - Москва: 1999, № 33.

9. Financial integration, innovation and the monetary policy transmission mechanism. OECD Economic Surveys: Euro Area 2009. World Development Indicators database. World Bank. 2012.

10. Wang, J., Sun, Y., & Meng, Q. (2024). How does industrial policy experimentation influence innovation performance? A case of Made in China 2025. Humanities and Social Sciences Communications, 11(1), Article 11. https://doi.org/10.1057/s41599-023-02523-6

REFERENCES:

1. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o‘zgarishlarning samarali yo‘llarini statistik metodlar asosida o‘rganish va takomillashtirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. – Toshkent: TMI. 2017. (In Uzbek)

2. Tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tamoqlarini medernizatsiya va diversifikatsiya qilish. Ma’ruza va tezislar to‘plami. – Toshkent: TDIU. 2017. (In Uzbek)

3. Xomidov S. va boshqalar. (2018) Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillari va tendensiyalari. O‘quv qo‘llanma. 373-bet. (In Uzbek)

4. Xodiyev B., Nosirov N., va boshqalar. (2018) Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirish omillari va tendensiyalari. Monografiya. – Toshkent: “IQTISODIYOT”. (In Uzbek)

5. Kuznesov O. (2002) Istoriya ekonomiki. – Moskva: Nauka. – 207 s. (In Russian)

6. Shimova V. (2012) Natsionalnaya ekonomika Belarusi. Uchebnik. – Minsk: BGEU. – 472 s. (In Russian)

7. Akaeva S., Sokolov V. (2016) Ob otraslevix i texnologicheskix strukturnix sdvigax, neobxodimix dlya modernizasii Rossiyskoy ekonomiki. MIR (Modernizasiya. Innovasii. Razvitie). T. 7. № 3. – S. 38-48. (In Russian)

8. Miskevich V. (1999) Restrukturizasiya krupnogo predpriyatiya: opit, problemi, osenki // Ekonomika i jizn. - Moskva: 1999, № 33. (In Russian)

9. Financial integration, innovation and the monetary policy transmission mechanism. OECD Economic Surveys: Euro Area 2009. World Development Indicators database. World Bank. 2012.

10. Wang, J., Sun, Y., & Meng, Q. (2024). How does industrial policy experimentation influence innovation performance? A case of Made in China 2025. Humanities and Social Sciences Communications, 11(1), Article 11. https://doi.org/10.1057/s41599-023-02523-6

SIRKULYAR IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QAYTA ISHLASH SANOATI MAJMUALARIGA JORIY ETISH MASALALARI

ISSUES OF INTRODUCING CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES INTO PROCESSING INDUSTRY COMPLEXES

ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ ПРИНЦИПОВ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КОМПЛЕКСЫ ПЕРЕРАБАТЫВАЮЩЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi
Oriental universiteti,
Iqtisodiyot va turizm kafedrasi o‘qituvchisi, PhD
Tel.: +998 94 666-55-09
e-mail: rguli617@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7204-6986

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini O‘zbekistonda qayta ishlash sanoati majmualariga joriy etish masalalari, shuningdek hozirgi zamon olimlari tomonidan ilgari surilayotgan nazariyalar talqini hamda xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi tajribalari tahlil qilingan. Maqolada sirkulyar iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, resurslarni tejash va yashil iqtisodiyotning zamonaviy sanoatdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Maqolada chiqindilarni qayta ishlash, qayta foydalanish va qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish orqali barqaror biznes modellarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, “yashil” texnologiyalar va ekotexnoparklar kabi innovatsion yondashuvlarning qayta ishlash sanoatida qo‘llanilishi va ularning ekologik va iqtisodiy samaradorligi muhokama qilinadi. Tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyotning an’anaviy iqtisodiyotdan ustunligi, resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni minimallashtirishdagi roli ta’kidlanadi. Maqola sanoat majmualarini barqaror rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Kalit so‘zlar: *sirkulyar iqtisodiyot, tamoyillar, resurslarni tejash, yashil iqtisodiyot, biznes modellar, chiqindilarni qayta ishlash, ekotexnoparklar, qayta foydalanish, qayta ishlash, “Yashil” texnologiyalar.*

Annotation. This study examines the issues of implementing circular economy principles within the recycling industry complexes of Uzbekistan, offering an interpretation of theories proposed by contemporary scholars and an analysis of the experiences of foreign countries in this field. The article explores the core principles of the circular economy, emphasizing its significance in resource conservation and the role of the green economy in modern industrial frameworks. It analyzes the development of sustainable business models through the optimization of waste recycling, reuse, and processing practices. Furthermore, the application of innovative approaches such as

"green" technologies and ecotechnoparks in the recycling industry is discussed, alongside their ecological and economic efficiency. The research highlights the superiority of the circular economy over traditional linear models, underscoring its contributions to efficient resource use and waste minimization. The article concludes with practical recommendations aimed at fostering the sustainable development of industrial complexes.

Keywords: *circular economy, principles, resource conservation, green economy, business models, waste recycling, ecotechnoparks, reuse, processing, "green" technologies.*

Аннотация. В данном исследовании рассматриваются вопросы внедрения принципов циркулярной экономики в комплексы перерабатывающей промышленности Узбекистана, а также интерпретация теорий, выдвигаемых современными учеными, и анализ опыта зарубежных стран в данной сфере. В статье освещаются основные принципы циркулярной экономики, значение ресурсосбережения и зеленой экономики в современной промышленности. Анализируются вопросы развития устойчивых бизнес-моделей путем оптимизации процессов переработки отходов, повторного использования и рециклинга. Кроме того, обсуждается применение инновационных подходов, таких как «зеленые» технологии и экотехнопарки, в перерабатывающей промышленности, а также их экологическая и экономическая эффективность. В исследовании подчеркивается превосходство циркулярной экономики над традиционной линейной моделью, ее роль в эффективном использовании ресурсов и минимизации отходов. Статья завершается практическими рекомендациями по устойчивому развитию промышленных комплексов.

Ключевые слова: *циркулярная экономика, принципы, ресурсосбережение, зеленая экономика, бизнес-модели, переработка отходов, экотехнопарки, повторное использование, рециклинг, «зеленые» технологии.*

KIRISH

Jahon bankining "Sirkulyar iqtisodiyot: Markaziy Osiyo uchun imkoniyat" nomli 2024-yildagi tahliliy hisobotida, sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining mintaqa mamlakatlaridagi imkoniyatlari tahlil qilingan bo'lib, unda Markaziy Osiyo mintaqasiga tegishli xulosalar keltirilgan hamda mintaqadagi tabiiy resurslar va chiqindilarni boshqarishdagi umumiy muammolarga yechim topish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasini ilmiy o'rganish va ko'proq tadqiqotlar o'tkazish talab etilishi bayon etilgan. Mazkur hisobotda sirkulyar iqtisodiyotning asosiy maqsadi, chiqindilarni qayta ishlash, resurslarni tejash, shuningdek mahsulot va materiallardan imkon qadar uzoq vaqt davomida foydalanish orqali, ularning atrof-muhitga zararli

ta’sirni kamaytirishdir - deb, ta’rif berilgan. Bundan tashqari, mintaqa davlatlari sirkulyar iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun kelgusidagi amaliy chora-tadbirlarga yo‘l ko‘rsatadigan sohalarga oid harakatlar strategiyasini ishlab chiqishi, ushbu turdagi strategiyalar tegishli siyosat mexanizmlarini aniqlash va amalga oshirishga yordam berib qolmay, balki xususiy sektorni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratgan holda, sirkulyar iqtisodiyotga jadallik bilan o‘tishni ta’minlashi mumkinligi ta’kidlangan.

Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi sirkulyar iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanish sari katta qadam tashlamoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yilning 21-oktyabr kuni Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetida maishiy chiqindilarni qayta ishlash, ulardan elektr energiyasi va mahsulot ishlab chiqarish loyihalari taqdimoti bilan tanishish davomida zavodlar mamlakatning hayot-mamotini hal qiladigan masalalardan biri ekanini shuningdek, “Bular shunchaki zavod emas, hayot-mamotimizni hal qiladigan masalalardan biri.

Yer-suvlarimizning yaroqliligi ham, aholi salomatligi ham, havo tozaligi-yu energetika barqarorligi ham shu sohaga bog‘liq. Chiqindilar to‘g‘ri to‘planib, ko‘proq qayta ishlansa, ekologik muvozanat yaxshilanadi, tabiat toza bo‘ladi, jamiyat o‘zgaradi”, deya ta’kidlagani, chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish naqadar dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda mazkur soha izchil takomillashtirib kelinmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-sentyabrdagi farmoni bilan, “Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi” tashkil etildi. Agentlikka chiqindilarni to‘plash, saralash, zararsizlantirish, qayta ishlash, yoqish, utilizatsiya qilish va ularni yo‘q qilishning zamonaviy usullarini joriy etish bilan shug‘ullanish vazifalari yuklatildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahonda kuzatilayotgan globallashuv va resurslar tanqisligi ortib borayotgan sharoitda dunyo olimlari tomonidan sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida ko‘plab ilmiy tadqiqot va sinov tajribalari o‘tkazilmoqda. Jumladan, xorijlik olimlardan K. Varren o‘z ilmiy qarashlari sifatida “Sirkulyar iqtisodiyot an’anaviy iqtisodiyotga muqobil bo‘lib, unda biz resurslardan imkon qadar uzoq vaqt foydalanamiz, ulardan foydalanish paytida eng yuqori qiymatni olamiz, so‘ngra mahsulot va materiallarni qayta tiklaymiz va qayta foydalanamiz” - deb ta’kidlab o‘tgan (Warren K., 2015). Iqtisodchi olim J. Kirchherr ilmiy izlanishlarida “Sirkulyar iqtisodiyot “end of life” tushunchasi bilan almashtiradigan biznes modellariga asoslanadi, barqaror rivojlanishga erishish uchun mikrodaraja *(mahsulotlar, kompaniyalar, iste’molchilar)*, mezo-daraja *(ekosanoat*

parklari) va makro daraja *(shahar, viloyat, mamlakat)*da ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonida materiallarni qayta ishlash va qayta tiklash, bu hozirgi va kelajak avlodlar uchun atrof-muhitning tozaligi, iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy adolatni ta'minlash"ni nazarda tutgan (Kirchherr J., 2017: 224). AQShlik olim H. Wilts "Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy g'oyasi bu mahsulotlarning hayotiy sikli oxiriga yetganda, ularning qiymatini iloji boricha saqlab qolishdir" deb ta'kidlaydi (Wilts H., 2017). Rossiyalik olima A. Shishmaryova "Sirkulyar iqtisodiyot nafaqat chiqindilarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi, balki texnologik, tashkiliy va ijtimoiy innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda muhim rol o'ynaydi" - deb, o'z qarashlarini ilgari surgan (Шишмарёва А., 2021).

O'zbekistonlik tadqiqotchi M. Xudoyberdiyev "Chiqindilarni boshqarish infratuzilmasini to'laqonli tarzda yaratish uchun odamlar ongiga chiqindi real iqtisodiy foyda keltiruvchi strategik resurs ekanligini singdirish, bu esa o'z navbatida mamlakatimizda chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bilan bog'liq vaziyatni yanada yaxshilashga yordam beradi" - deb, fikrlarini bayon etgan (Xudoyberdiyev M., 2024). Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishda ustuvorliklar mamlakatlarning rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlar uchun - ishlab chiqarish va iste'mol, raqobat, ish o'rinlari tarkibidagi o'zgarishlar, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun, avvalo, barqaror rivojlanish, kambag'allikni qisqartirishni hal qilish kabi masalalar birlamchi hisoblanadi. Xususan, quyida keltirilgan jadvalda dunyoda sirkulyar iqtisodiyot modellarini joriy etish tashabbuskori bo'lgan bir nechta yetakchi davlatlarni ko'rish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida deduksiya, tasniflash, umumlashtirish hamda taqqoslash kabi ilmiy-nazariy uslublardan foydalanilgan. Ilmiy izlanish va tadqiqot uchun zaruriy normativ-huquqiy hujjatlar statistik ma'lumotlarni jamlash hamda tipologik tahlil usullari asosida tadqiq qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot va tahlillarimiz natijasiga ko'ra, sirkulyar iqtisodiyotga o'tish inkor etib bo'lmaydigan uchta asosiy afzalliklarga ega:

birinchisi, ishlab chiqarishda resurslardan foydalanishni qisqartirish hisobiga, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish;

Ikkinchisi, ishlatiladigan birlamchi resurslar *(xomashyo, materiallar)* hajmini kamaytirish hisobiga, ishlab chiqarish xarajatlarini maksimal darajada qisqartirish;

uchinchidan, yangi bozorlarning paydo bo'lishi va yangi ish o'rinlari yaratish, umumiy farovonlik darajasini yuksaltirish.

1-jadval

Sirkulyar iqtisodiyotning ilg‘or biznes modellari hamda ularni joriy qilgan yetakchi davlatlar

Yetakchi mamlakatlar	Sirkulyar iqtisodiyot sohasidagi korxona, tashkilotlar, dasturlar va turli tashabbuslar
Yaponiya	Euglena, Denso, Toyota Production Systems
Finlandiya	TEKES, SITRA, North European Bio Tech Oy, Ponsse /sr-Harvesting, Swappie, Taitonetti, 3 Steplit
Niderlandiya	Netherlands as a Circular Hotspot, Madaster, DSM-Niaga, Royal DSM, Phillips, Circular Lighting, BMA Ergonomics, Koppert, Bundles, VDL Group, DAF Reblend
Buyuk Britaniya	Unilever, Circularity Capital, Advanced Sustainable Developments, Waste and Resources Action Program, Earth Angel Invertors
AQSh	Ford, Heinz, Novellis, Ford Motor Company, POET-DSM Advanced Biofuels, Apple Renew, Ecovative, Balbo Group, Caterpillar inc, Xerox
Fransiya	Renault Environmental, Roll-GOM, Le Relais, Baudelet, Ouateco Bata, Sailbags 727, Alstom & Health Hub, Michelin
Daniya	Novo Nordisk, Novozymes, DONG Energy, Statoil

Mamlakatlar o‘zlarining ichki iqtisodiy siyosatidan kelib chiqib, sirkulyar iqtisodiyot doirasida quyidagi biznes modellarni alohida yoki kombinatsiyalangan holda qo‘llashi mumkin:

- Doiraviy *(aylanma)* qiymat zanjirlari modeli – resurslar cheklangan sharoitda, butunlay qayta tiklanadigan manbalar bilan almashtiriladi. Misol uchun, ichki yonuv dvigatellariga yoqilg‘i sifatida neft mahsulotlarini emas, balki o‘simlik biomassasidan olingan bioetanol va biodizelni qo‘llash mumkin;
- mahsulotning hayotiylik siklini uzaytirish modeli – qayta tiklash orqali, imkon qadar uzoqroq muddatga iqtisodiy foydani saqlab qolish uchun mahsulotni qayta ta’mirlash, yangilash yoki sotish. Shuningdek, ushbu model, tovarlarni sotish hisobiga, ulardan foydalanish uchun xizmatlarni sotishga o‘tishni ham nazarda tutadi;
- o‘zaro almashish va birgalikda foydalanish modeli *(sharing economy)* foydalanish darajasi past bo‘lgan tovar yoki aktivlarning almashinuviga asoslanadi. Bunga misollar sifatida transportdan umumiy foydalanish platformasi – “Blablacar”, uy-joy bo‘yicha – “Airbnb” va boshqalarni keltirish mumkin;
- mahsulot xizmat sifatida *(xizmat ko‘rsatish)* modeli – “ijara”ga haq to‘lash orqali mijozlar mahsulotlardan foydalanishi. Bir qator xorijiy kompaniyalar yoritish jarayonini xizmat sifatida sotadi. Bunda, kompaniya qurilmalarga egalik huquqini o‘zida saqlab qoladi, shuning uchun mijozlar o‘rnatish va qurilmalar nosozligi uchun haq to‘lamaydi. Bularning barchasi tomonlar o‘rtasida tuzilgan shartnomaning xizmat ko‘rsatish qismida aks ettiriladi;


- qayta ishlash va qayta tiklash modeli. Bunda resurslarni tiklash va qayta foydalanishda innovatsion texnologiya hamda uning imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Yopiq tarzdagi qayta ishlash sikli hamda chiqindilarni qayta ishlash asosida yangi resurslarni yaratish kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, chiqindilarni qayta ishlash va ulardan qayta foydalanish sirkulyar iqtisodiyotning asosiy elementlaridan biridir. Bunda, asosiy qiymat birliklarini yaratishda ekotexnoparklar muhim rol o‘ynaydi.

Ekotexnoparklar bu ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish imkoniyatlariga, yashil iqtisodiyotga xos ishlab chiqarish uskuna, zamonaviy laboratoriya, texnologik jihozlar hamda bino va inshootlarga ega, chiqindilarni uzluksiz qayta ishlash va ular asosida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan majmualardir.

Umume’tirof etilgan konsepsiyaga ko‘ra, chiqindilarni boshqarish tizimining samarali ishlashi ko‘p jihatdan “uchta R tamoyili”, ya’ni qisqartirish (Reduce), qayta foydalanish (Reuse) va qayta ishlash (Recycle)ga asoslanadi. Buning ma’nosi “qayta foydalan” va “qayta ishla” yoki chiqindilarni kamaytirish uchun “iste’molni chekla”.

Hozirgi kunda sirkulyar iqtisodiyotning ko‘plab modellari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati umumiy jihatlarga ega. Biroq, mazkur biznes modellar ichida “Ellen MacArthur” jamg‘armasi tomonidan ishlab chiqilgan sirkulyar iqtisodiyot modeli, keng qamrovligi hamda juda soddaligi bilan ajralib turadi *(1-rasm)*.



1-rasm. “Ellen MakArtur jamg‘armasi” sirkulyar iqtisodiyot modeli

Bizningcha, sirkulyar iqtisodiyotning ushbu modeliga o‘tish ortiqcha iste’mol xarajatlarini kamaytiradi hamda mavjud resurslardan unumli foydalanish va atrof-muhitga ekologik zararni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bu maqsadli rasmiy ma’muriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat dasturlariga yashil rivojlanish tamoyillarini joriy etish, iqlim o‘zgarishi va gazlar chiqindilariga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni jadallashtirish hamda chiqindilarni qayta ishlash sanoatini rivojlantirishda o‘z ifodasini topmoqda.

Shu kunga qadar ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishning asosiy natijalari sifatida so‘nggi yillarda iqtisodiyotni yashil transformatsiyalashga qaratilgan 154 dan ortiq chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi 20 dan ortiq rasmiy hujjat qabul qilindi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”, “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Qarori, “Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha jadal chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Qarori, “2019-2028-yillarga mo‘ljallangan qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish Strategiyasi” shular jumlasidan.

“Yashil” texnologiyalar va energetika sohasiga iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida qaralishining sabablaridan biri – respublika hududida yiliga o‘rtacha 14 million tonna chiqindilar hosil bo‘ladi. Biroq, mazkur chiqindilarning atigi 4-5 foizi qayta ishlanadi. Chiqindi poligonlaridan 7 million tonnadan ziyod issiqxona gazlari atmosferaga chiqadi, 43 ming tonna zaharli filtratlar yer ostiga singadi.

O‘zbekistonda chiqindilarning fuqarolar hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-muhitga zararli ta’sirining oldini olish, chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish va ulardan xo‘jalik faoliyatida oqilona foydalanishni ta’minlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 05-apreldagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi 362-II-son Qonuni qabul qilingan. Mazkur Qonunning 2-moddasida “Chiqindilar – ishlab chiqarish yoki iste’mol qilish jarayonida xomashyo, materiallar, xomaki mahsulotlar, boshqa buyumlar yoki mahsulotlarning hosil bo‘lgan qoldiqlari, shuningdek o‘zining iste’mol xususiyatlarini yo‘qotgan tovarlar *(mahsulotlar)*” deb, ta’rif berilgan.

Shunday ekan, chiqindilarni qayta ishlash orqali ularning tabiatga ta’sirini kamaytirish, hamda qayta tiklanuvchi manba sifatida katta foyda olish mumkin. Hozirda, aholining qattiq maishiy chiqindilarni yig‘ish va tashib olib ketish xizmatlaridan foydalanishi asosan mamlakatimizning yirik shaharlarida ta’minlangan. “Mamlakatda 296 ta ko‘mish va chiqindilarni yo‘q qilish uchun poligonlar, jumladan, qattiq maishiy chiqindilar (221), sanoat chiqindilari (16), qurilish chiqindilari (4), loy

yig‘ish kollektorlari (21), chiqindilarni yig‘ish joylari (15), maxsus poligonlar (19) va shuningdek, xavfli chiqindilarni utilizatsiya qilish uchun 23 ta poligon mavjud”. Aralash qattiq maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib ketish mexanizmi ham mavjud.

2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq quyidagi asosiy muammolar keltirib o‘tilgan:

- qishloq aholi punktlarida qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash, olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlarning yetarli darajada ta’minlanmaganligi;
- qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi infratuzilmaning qoniqarsiz holatda ekanligi;
- mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarining sanitariya talablari va ekologik me’yorlarga muvofiq kelmasligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Qattiq maishiy chiqindilar hajmi 2010-yildagi 6,1 million tonnadan 2017-yilda 7,0 million tonnagacha oshdi. Qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasida qattiq maishiy chiqindilar hosil bo‘lishining yillik hajmi prognozi 14-14,5 mln tonna atrofida baholanadi. Eng yomon ssenariyni hisobga olganda esa, ushbu ko‘rsatkich 2028-yilga kelib 16-16,7 mln tonnaga yetishi mumkinligi taxmin qilinmoqda.

Strategiyada 2028-yilgacha aholini chiqindilarni yig‘ish va olib chiqib ketish xizmatlari bilan qamrab olishni 100 foizga, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 60 foizga yetkazish kabi qator maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan. Shuningdek, yangidan ishlab chiqilgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha konsepsiya”da qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 65 foizgacha oshirish maqsadli ko‘rsatkich sifatida joy olgan *(PF-5863, 2019)*.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni boshqarish sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga oid qarorida *(PQ-4865, 2020)* 2020-yil oxiriga qadar aholini maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib chiqib ketish xizmatlari bilan qamrab olish darajasini 90 foizga, 2021-yil oxirigacha esa 100 foizga, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash hajmini 2020-yil oxiriga qadar 21,8 foizga, 2021-yil oxiriga kelib esa 36,5 foizga, 2022-yil oxirigacha maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlarni tashkil etishda xususiy sektor ulushini 50 foizga yetkazish maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lsa-da, hozircha mazkur vazifalar ijrosi to‘liq amalga oshirilmadi.

Iqlim o‘zgarishi ta’sirini yumshatish bo‘yicha loyihalar chiqindilardan issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga yordam beradi, lekin ular o‘sib borayotgan emissiyalarning asosiy sababi bo‘lgan ishlab chiqarish va iste’moldan hosil bo‘ladigan chiqindilarning o‘sib borayotgan hajmini bartaraf etmaydi va bunga o‘z navbatida normativ qoidalar, standartlar, nazorat mexanizmlari, materiallarni qayta ishlatish va

qayta ishlash borasida ma’lumot va rag‘batlantirish choralarining yetishmovchiligi ham o‘z salbiy hissasini qo‘shadi. “2019-2028-yillarga mo‘ljallangan qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish Strategiyasi” institutsional va huquqiy baza, asosan yetishmovchiligi tufayli chiqindilar bilan ishlashni boshqarishning yangi integratsiyalashgan tizimini yaratishga qaratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini qayta ishlash sanoati majmualariga joriy etishni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tashkiliy-huquqiy yo‘nalishdagi muammolarni hal etish zarurati mavjud, deb o‘ylaymiz:

1. Chiqindilar bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarni oqilona boshqarish bo‘yicha me’yorlar yetarli emas hamda yanada yaxlit tizimni qurish va faoliyatini yuritish bo‘yicha mas’uliyat taqsimlanmagan.

2. Infratuzilmani rivojlantirishni ham, uning ishlashini ham barqaror moliyalashtirishni talab qiluvchi qoidalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

3. Mamlakatning turli hududlarida ekosanoat zonalari hamda ekotexnoparklar tashkil etish hamda ularga sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini to‘liq joriy etish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmagan.

Mazkur muammolar o‘z yechimini topishi, kelgusida sohani rivojlanishiga hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga zamin yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, bu borada sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini qayta ishlash sanoati majmualariga keng joriy etish hisobiga ekologik vaziyat barqarorlashadi, iqtisodiyotning energiya samaradorligi oshadi, zararli gazlar emissiyasi sezilarli darajada pasayib, sanitar holat yaxshilanadi, aholiga xavfli kasalliklar yuqishi kamayadi. Chiqindilar qayta ishlanib, muqobil energiya, xomashyo va organik o‘g‘it olinishi jadallashadi. Mavjud chiqindi poligonlari hududida, zamonaviy ekosanoat zonalari, ekotexnoparklar tashkil etiladi. Xomashyodan tayyor mahsulotgacha va chiqindisiz texnologiyadan foydalanishga asoslangan iqtisodiyot modelini jadal joriy etish imkoniyatlari yanada kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 05-apreldagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi 362-II-son Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi “2019-2028-yillarga mo‘ljallangan qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4291-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi

texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha jadal chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4422-son Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori.

6. Kirchherr, J. Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions / J. Kirchherr, D. Reike, M. Hekkert // Resources, Conservation and Recycling. – 2017. – Vol. 127. – P. 224.

7. Wilts, H. (2017) The digital circular economy: Can the digital transformation pave the way for resource-efficient materials cycles? / Sustainability Impulses from Wuppertal. – URL: https:// juniperpublishers.com

8. Warren, K. Circular economy study identifies 3 million jobs across Europe / K. Warren // WRAP. – 2015. − URL: https://www.wrap.org.uk/content/ circular-economy-study-identifies-3-million-jobs-across-europe

9. Xudoyberdiyev Muhammad. (2024) Chiqindilarni yo‘q qilish va ularni qayta ishlash masalalari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Ilmiy-elektron jurnal, 1-son.

10. Шишмарёва А. (2021) Реализация принципов циркулярной экономики в лесопромышленном комплексе региона // 2222-534X Journal of Economics, Entrepreneurship and Law.

11. https://www.ellenmacarthurfoundation.org/

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 05-apreldagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi 362-II-son Qonuni. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-apreldagi “2019-2028-yillarga mo‘ljallangan qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish Strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4291-son Qarori. (In Uzbek)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-avgustdagi “Iqtisodiyot va ijtimoiy soha tarmoqlarining energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo‘yicha jadal chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4422-son Qarori. (In Uzbek)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo‘ljallangan “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori. (In Uzbek)

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-436-son Qarori. (In Uzbek)

6. Kirchherr, J. Conceptualizing the circular economy: An analysis of 114 definitions / J. Kirchherr, D. Reike, M. Hekkert // Resources, Conservation and Recycling. – 2017. – Vol. 127. – P. 224.

7. Wilts, H. (2017) The digital circular economy: Can the digital transformation pave the way for resource-efficient materials cycles? / Sustainability Impulses from Wuppertal. – URL: https:// juniperpublishers.com

8. Warren, K. Circular economy study identifies 3 million jobs across Europe / K. Warren // WRAP. – 2015. − URL: https://www.wrap.org.uk/content/ circular-economy-study-identifies-3-million-jobs-across-europe

9. Xudoyberdiyev Muhammad. (2024) Chiqindilarni yo‘q qilish va ularni qayta ishlash masalalari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. Ilmiy-elektron jurnal, 1-son. (In Uzbek)

10. Shishmaryova A. (2021) Realizasiya prinsipov sirkulyarnoy ekonomiki v lesopromishlennom komplekse regiona // 2222-534X Journal of Economics, Entrepreneurship and Law. (In Russian)

11. https://www.ellenmacarthurfoundation.org/

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV KADRLARINI TANLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (JAHON TAJRIBASI ASOSIDA)

IMPROVEMENT OF MANAGEMENT STAFF SELECTION MECHANISMS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (BASED ON WORLD EXPERIENCE)

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ОТБОРА УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КАДРОВ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ (НА ОСНОВЕ МИРОВОГО ОПЫТА)

Ibragimova Sevara Kabildjanovna
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi
Tel.: +998 99 487-28-85
e-mail: isevara432@gmail.com

Annotatsiya. Oliy ta’lim muassasalarida (OTM) boshqaruv kadrlarni tanlash jarayoni institutsional samaradorlik va rivojlanishga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Ushbu tadqiqot xalqaro tajribani chuqur o‘rganish va O‘zbekiston oliy ta’lim tizimi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Jahon tajribasiga asoslangan holda, tanlov jarayonini shaffof, samarali va kompetentlikka asoslangan qilib tashkil etish mexanizmlari tahlil qilindi. Tadqiqotda liderlik qobiliyatlari, boshqaruv ko‘nikmalari va raqobatli tanlov tizimini joriy etishning ahamiyati alohida e’tiborga olindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompetentlikni baholash tizimi, rahbarlik bo‘yicha maxsus tayyorgarlik dasturlari va xalqaro tajribadan foydalanish boshqaruv kadrlari sifatini oshiradi hamda oliy ta’lim muassasalarining umumiy samaradorligini yaxshilaydi.

Kalit so‘zlar: *oliy ta’lim, boshqaruv kadrlari, tanlov mexanizmi, liderlik, boshqaruv, xalqaro tajriba.*

Annotation. The process of selecting managerial personnel in higher education institutions (HEIs) is a critical factor influencing institutional effectiveness and development. This study aims to thoroughly examine international experiences and develop practical recommendations for Uzbekistan’s higher education system. Drawing on global practices, mechanisms for establishing a transparent, efficient, and competency-based selection process were analyzed. Particular attention was paid to the significance of leadership skills, managerial competencies, and the implementation of a competitive selection system. The findings suggest that introducing a competency assessment framework, specialized leadership training programs, and leveraging

international experience can enhance the quality of managerial personnel and improve the overall efficiency of higher education institutions.

Keywords: *higher education, managerial personnel, selection mechanism, leadership, management, international experience.*

Аннотация. Процесс отбора управленческих кадров в высших учебных заведениях (ВУЗах) является одним из ключевых факторов, влияющих на институциональную эффективность и развитие. Данное исследование направлено на глубокое изучение международного опыта и разработку практических рекомендаций для системы высшего образования Узбекистана. На основе мировых практик были проанализированы механизмы организации прозрачного, эффективного и основанного на компетенциях процесса отбора. Особое внимание уделено значимости лидерских качеств, управленческих навыков и внедрения конкурентной системы отбора. Результаты показывают, что внедрение системы оценки компетенций, специальных программ подготовки лидеров и использование международного опыта способствуют повышению качества управленческих кадров и улучшению общей эффективности высших учебных заведений.

Ключевые слова: *высшее образование, управленческие кадры, механизм отбора, лидерство, управление, международный опыт.*

KIRISH

Oliy ta’lim muassasalarining samarali faoliyat ko‘rsatishi malakali rahbarlarga bog‘liq. Universitet rahbarlarini tanlash jarayoni akademik sifat, innovatsiya jarayonlari va strategik rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Samarali boshqaruv kadrlari ta’lim muassasasining barqarorligi, xalqaro reytinglardagi o‘rni va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda oliy ta’lim muassasalari boshqaruv tizimida zamonaviy yondashuvlar qo‘llanilmoqda. Masalan, Yevropa va AQShda universitet rahbarlari mustaqil ekspert komissiyalari tomonidan, nomzodlarning strategik boshqaruv qobiliyatlari va innovatsiyaga moyilligi asosida tanlab olinadi. Janubiy Koreya va Yaponiyada esa rahbarlik lavozimlari uchun nomzodlar maxsus malaka oshirish dasturlaridan o‘tishi talab qilinadi.

Shuningdek, Buyuk Britaniya va Germaniyada universitet rahbarlari demokratik usullar asosida, o‘qituvchi va tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan mezonlar bo‘yicha baholanadi. Bu modellar rahbarlarning strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, innovatsion loyihalarni joriy etishga va ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda xalqaro tajribalarni o‘rganish va O‘zbekistondagi tanlov jarayonini takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqishga urg‘u berilgan. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida rahbarlik lavozimlariga tayinlash jarayonini xalqaro standartlar asosida modernizatsiya qilish samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shaffoflik va adolatli tanlov tizimini joriy etish, rahbarlarning kompetentligini baholash va malakalarni oshirish mexanizmlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida ko‘rib chiqilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv kadrlarini tanlash mexanizmlarini takomillashtirish masalasi so‘nggi yillarda jahon tajribasiga asoslanib keng o‘rganilmoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlar boshqaruv jarayonlarining samaradorligi va universitetlarning global miqyosdagi raqobatbardoshligiga ta’sirini ko‘rib chiqadi. Oliy ta’lim tizimida rahbar kadrlarni tanlash mexanizmlarini yaxshilash nafaqat ma’muriy samaradorlikni oshirish, balki ta’lim sifatini yuksaltirish uchun ham muhimdir. Ushbu tahlilda Altbach va Salmi, Deem va Brehony, Middlehurst, hamda Scott kabi xorijlik mualliflar va bir qancha mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ko‘rib chiqilib, ularning jahon tajribasiga asoslangan yondashuvlari tahlil qilinadi. Jumladan, Altbach va Salmi o‘z tadqiqotlarida jahon miqyosidagi tadqiqot universitetlarini shakllantirishda boshqaruv kadrlarining roliga e’tibor qaratadi. Ular rahbarlarni tanlashda shaffof va professional mexanizmlarning muhimligini ta’kidlab, AQSh, Yevropa va Osiyo tajribalarini ko‘rib chiqadilar. Mualliflarning xulosalariga ko‘ra, malakali rahbar kadrlarga sarmoya kiritish akademik muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi.

Deem va Brehony oliy ta’limda “yangi boshqaruvchilik” (new managerialism) konsepsiyasining ta’sirini o‘rganadi va boshqaruv kadrlarini tanlashda korporativ modellarning kuchayishini tanqid qiladi. Ular Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlar misolida boshqaruvning akademik qadriyatlardan uzilib qolganligini ko‘rsatadilar. Ushbu tadqiqot rahbarlarni tanlashda professionalizm va ta’lim sohasining o‘ziga xosligi o‘rtasida muvozanatni saqlash zarurligini ta’kidlaydi.

Middlehurst akademik muhitda rahbarlik masalalariga bag‘ishlangan kitobida boshqaruv kadrlarini tanlashning samarali modelini taklif qiladi. U rahbarlarda ma’muriy malaka bilan birga akademik nufuz bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Buyuk Britaniya universitetlari tajribasiga asoslangan bu tadqiqot tanlash mexanizmlarini mahalliy madaniyat va institutsional xususiyatlarga moslashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Scott oliy ta’limdagi globallashuv jarayonlarini o‘rganadi va bu jarayonlarning boshqaruv yondashuvlari va kadrlarni tanlashga ta’sirini tahlil qiladi. U xalqaro raqobatning oshishi universitetlarni global kontekstda ishlay oladigan rahbarlarni izlashga majbur qilishini ta’kidlaydi. Uning ishi milliy tizimlarga jahon

tajribasini integratsiya qilish va madaniyatlararo kompetensiyaga ega rahbarlarni tanlash zarurligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tadqiqotlar oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv kadrlarini tanlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun turli yondashuvlarni namoyish etadi. Altbach va Salmi global standartlar va professionallikka urg‘u bersa, Deem va Brehony boshqaruvning tijoriylashuvini tanqid qiladi. Middlehurst akademik muhitga moslashgan muvozanatli yondashuvni taklif etadi, Scott esa xalqaro tajriba va globallashuvning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bizning maqolamizda esa ushbu ishlarga qo‘shimcha ravishda yangi tadqiqot natijalari taqdim etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sifatli tahlil usuli qo‘llanildi. Hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va turli davlatlar tajribasiga asoslangan holda qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Quyidagi mezonlar tahlil qilindi:

- shaffoflik darajasi;
- kompetentlikni baholash mezonlari;
- rahbarlik ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablar;
- me’yoriy-huquqiy asoslar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Universitet rahbarlarini tayyorlash va tanlash usullari turli davlatlarda har xil yo‘llar bilan tashkil etiladi. Bu jarayonda asosan shaffoflik, raqobatbardoshlik va malakani baholash mezonlari muhim rol o‘ynaydi. Quyida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Janubiy Koreyadagi modellar va ularning o‘ziga xos jihatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekistondagi mavjud muammolar tahlil qilinadi.

Davlat	Tanlov usuli	Baholash mezonlari	Liderlik tayyorgarligi
AQSh	Mustaqil tanlov komissiyasi	Akademik tajriba, strategik fikrlash	Universitet boshqaruv kurslari
Yevropa Ittifoqi	Xolis baholovchi guruhlar	Ilmiy daraja, boshqaruv tajribasi	Davlat dasturlari
Yaponiya va Janubiy Koreya	Innovatsion fikrlash asosida	Raqamli transformatsiyaga tayyorlik	Innovatsion boshqaruv treninglari

AQShda universitet rektorlari va rahbarlarini tanlash jarayoni mustaqil tanlov komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu komissiyalar odatda universitet professorlari, tajribali mutaxassislar va jamoatchilik vakillaridan iborat bo‘ladi. Ular nomzodlarning akademik tajribasini, strategik fikrlash qobiliyatini, ilmiy va boshqaruv salohiyatini tahlil qiladilar.

Liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun Amerika universitetlarida maxsus boshqaruv kurslari mavjud. Bu kurslarda oliy ta’lim muassasalarini samarali

boshqarish, moliyaviy menejment, ta’lim sifatini yaxshilash strategiyalari va innovatsion yechimlar bo‘yicha o‘quv dasturlari tashkil etiladi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida universitet rahbarlarini tanlash jarayoni xolis baholovchi guruhlar tomonidan olib boriladi. Ular asosan nomzodlarning ilmiy darajasi, boshqaruv tajribasi, ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha loyihalari va xalqaro aloqalarini baholaydilar.

Yevropa davlatlarida universitet rahbarlari uchun maxsus davlat dasturlari amalga oshiriladi. Bunday dasturlar rektorlar va ta’lim muassasalari rahbarlarini boshqaruv ko‘nikmalariga o‘rgatish, xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ta’limda innovatsiyalarni joriy etishga yo‘naltirilgan.

Yaponiya va Janubiy Koreyada universitet rahbarlarini tanlashda innovatsion fikrlash va raqamli transformatsiyaga tayyorlik kabi mezonlar asosiy ahamiyat kasb etadi. Bu davlatlarda universitetlarning raqamli transformatsiyasiga, innovatsiyalarni joriy etish qobiliyatiga va ta’lim jarayonlarini zamonaviylashtirish bo‘yicha strategiyalarga e’tibor beriladi.

Liderlik tayyorgarligi innovatsion boshqaruv treninglari orqali amalga oshiriladi. Bu treninglar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili va raqamli ta’lim platformalarini joriy etishni o‘rgatishga qaratilgan.

O‘zbekistondagi muammolar va imkoniyatlar. O‘zbekistonda universitet rahbarlarini tanlash va baholashda bir qator muammolar mavjud:

Raqobatli va shaffof tanlov tizimining mavjud emasligi. Hozirda universitet rahbarlari asosan markazlashgan tartibda tayinlanadi. Bu esa tanlovda shaffoflik va raqobatbardoshlikni ta’minlashga to‘sqinlik qilishi mumkin. AQSh va Yevropa mamlakatlaridagi kabi mustaqil komissiyalar yoki xolis baholovchi organlarni joriy etish orqali shaffoflikni oshirish mumkin.

Universitet rahbarlari uchun maxsus liderlik kurslarining mavjud emasligi. Rektor va universitet boshqaruv kadrlari uchun maxsus boshqaruv kurslari tashkil etilmagan. Yevropa va AQSh tajribasiga asoslanib, universitet rahbarlari uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim.

Xalqaro tajribalardan yetarlicha foydalanilmayotganligi. Rektorlar va rahbarlar uchun xalqaro stajirovkalar, konferensiyalar va tajriba almashish dasturlari cheklangan holda amalga oshirilmoqda. Jahon tajribasidan samarali foydalanish uchun xalqaro ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, stajirovkalarni oshirish zarur.

Mustaqil baholovchi organlarning yetishmovchiligi. Rektorlarning faoliyatini xolisona baholash uchun mustaqil baholovchi organlar yetarlicha rivojlanmagan. Universitet rahbarlarining samaradorligini baholash uchun maxsus indeks va ko‘rsatkichlar joriy etish zarur.

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini isloh qilish va xalqaro tajribalarni joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasini o‘rganish natijasida universitet rahbarlarini tanlash va tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi vazifalar amalga oshirilishi zarur:

1. Mustaqil tanlov komissiyalarini tashkil etish. Hozirgi kunda universitet rahbarlarini tayinlash jarayoni markazlashgan va nazorat qilingan shaklda amalga oshiriladi. Bu esa ko‘pincha shaffoflik va raqobatbardoshlikning kamayishiga olib keladi. AQSh, Yevropa va Yaponiya tajribasidan kelib chiqib, mustaqil tanlov komissiyalarini tashkil etish taklif qilinadi.

- **Shaffoflikni ta’minlash** – tanlov jarayoni ochiq va adolatli bo‘lishi uchun ekspertlar, mutaxassislar va jamoatchilik vakillaridan iborat mustaqil komissiyalar faoliyat yuritishi kerak.
- **Tanlov mezonlarini ishlab chiqish** – nomzodlarning kasbiy malakasi, boshqaruv tajribasi, strategik fikrlash qobiliyati va innovatsion yondashuvi hisobga olinishi kerak.
- **Jamoatchilik fikrini inobatga olish** – universitet jamoasi, talabalar va o‘qituvchilarning fikrini eshitish uchun ochiq muhokamalar o‘tkazish.

2. Liderlik kompetensiyalarini baholash tizimini joriy qilish. Hozirgi oliy ta’lim tizimida universitet rahbarlarining liderlik qobiliyatlarini baholash bo‘yicha yagona standart mavjud emas. Shu bois, yetakchilik kompetensiyalarini baholash tizimini joriy qilish taklif qilinadi.

Asosiy baholash mezonlari:

- Strategik boshqaruv va qaror qabul qilish qobiliyati
- Tashkilotchilik ko‘nikmalari va jamoa bilan ishlash malakasi
- Innovatsion fikrlash va raqamli transformatsiyaga tayyorlik
- Xalqaro hamkorlik va global tendensiyalarni tushunish

Baholash usullari:

- Hujjatlarni tahlil qilish (ilmiy ishlar, rahbarlik tajribasi)
- Amaliy keyslar va simulyatsiyalar orqali baholash
- Universitet rahbariyatining strategik rejalashtirish qobiliyatini aniqlash uchun testlar o‘tkazish

3. Nomzodlarning strategik fikrlash qobiliyatini baholash uchun test va suhbatlar o‘tkazish. Rahbarlik vazifasiga nomzodlar universitetlarning kelajakdagi rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun ularning strategik fikrlash qobiliyatini baholash tizimini joriy etish kerak.

Test sinovlari

- Universitetni rivojlantirish strategiyalari bo‘yicha savollar
- Xalqaro ta’lim standartlarini bilish darajasi

- Innovatsion yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati

Suhbatlar va amaliy keys tahlillari

- Universitetni moliyaviy va ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha takliflar
- Boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonidagi real keyslar
- Talabalar va o‘qituvchilar uchun sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha yechimlar

Bu baholash jarayonlari universitet rahbarlarini sifatli tanlash va ularning kelajakda samarali boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

4. Yevropa va Osiyo tajribasiga asoslangan maxsus liderlik kurslarini tashkil qilish. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, universitet rahbarlari uchun doimiy ravishda malaka oshirish kurslari o‘tkazilsa, ta’lim tizimi yanada samarali bo‘ladi. Shu bois Yevropa va Osiyo davlatlarining tajribasiga asoslangan maxsus liderlik kurslarini tashkil qilish taklif etiladi.

Yevropa tajribasi

- Davlat dasturlari asosida rektor va universitet rahbarlari uchun boshqaruv kurslarini tashkil etish
- Xalqaro universitetlar bilan tajriba almashishni kuchaytirish
- Boshqaruvga zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash (raqamli transformatsiya, innovatsiyalarni joriy etish)

Osiyo tajribasi (Yaponiya, Janubiy Koreya)

- Universitet rahbarlarini raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga o‘rgatish
- Innovatsion boshqaruv va startap ekotizimi asoslarini o‘qitish
- Universitetlarning jahon reytinglarida yuqori o‘rinlarga chiqishi uchun strategiyalar ishlab chiqish

Kurslar mavzulari:

- Oliy ta’limni boshqarishda innovatsion yondashuvlar
- Universitet moliyaviy menejmenti va grantlar jalb qilish
- Talabalar va o‘qituvchilar uchun zamonaviy ta’lim sharoitlarini yaratish
- Universitetlarning raqamli transformatsiyasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta’lim muassasalari rahbarlarini tanlash jarayoni universitetlarning strategik rivojlanishi va institutsional barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Samarali boshqaruv tizimini shakllantirish uchun rahbarlarni tanlash jarayoni ochiq, shaffof va raqobatbardosh bo‘lishi lozim. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, universitet rahbarlarini tayyorlash va tanlashning shaffof mexanizmi oliy ta’lim muassasalarining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda universitet rahbarlarini tanlash jarayonini takomillashtirish zarurligini aniq ko‘rsatib berdi. Tahlil qilingan xalqaro tajribalar asosida quyidagi asosiy takliflar ishlab chiqildi:

1. **Shaffof va raqobatli tanlov mexanizmlarini joriy etish** – universitet rahbarlarini tayinlash jarayoni mustaqil tanlov komissiyalari tomonidan amalga oshirilishi, baholash jarayoni shaffoflik prinsiplariga asoslanishi lozim. AQSh va Yevropa tajribasi bu jarayonda nomzodlarning kasbiy malakasi, boshqaruv qobiliyati va strategik fikrlash salohiyatiga asoslangan baholash tizimini joriy qilish samarali ekanini ko‘rsatadi.

2. **Kompetensiyaga asoslangan baholash tizimini amalga oshirish** – rahbarlarning liderlik kompetensiyalarini, akademik va boshqaruv salohiyatini baholash uchun test va amaliy suhbatlar o‘tkazish zarur. Universitet rahbarlarini tanlashda strategik fikrlash qobiliyati, raqamli transformatsiyaga tayyorlik va xalqaro hamkorlik bo‘yicha bilimlari baholanishi kerak.

3. **Liderlik tayyorgarligini kuchaytirish** – rektorlar va boshqa boshqaruv kadrlari uchun maxsus tayyorgarlik kurslari tashkil etish muhim. Yevropa va Osiyo davlatlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim rahbarlari uchun muntazam ravishda malaka oshirish dasturlarini joriy etish universitet boshqaruvini samarali tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, innovatsion boshqaruv usullari, raqamli ta’lim texnologiyalari va moliyaviy menejment yo‘nalishlarini qamrab olgan kurslar universitetlarning xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Ushbu takliflarni amalga oshirish O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Universitet rahbarlarini tanlash va baholash jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish, ta’lim sifatini oshirish va oliy ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun zarur chora-tadbirlardan biri hisoblanadi. Shaffoflikni ta’minlash, raqobatbardosh muhit yaratish va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish universitetlar boshqaruvini takomillashtirishda muhim qadamlardan biri bo‘lib, O‘zbekiston oliy ta’limida innovatsiya va strategik rivojlanishni tezlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Altbach, P. G., & Salmi, J. (2011). *The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities*. The World Bank.

2. Deem, R., & Brehony, K. J. (2005). "Management as ideology: The case of ‘new managerialism’ in higher education." *Oxford Review of Education, 31*(2), 217–235.

3. Middlehurst, R. (1993). *Leading Academics*. Open University Press.

4. Mok, K. H. (2016). "Massification of higher education, graduate employment and social mobility in the Greater China region." *British Journal of Sociology of Education, 37*(1), 51–71.

5. OECD (2019). *Higher Education Policy in International Perspective: Trends and Strategies.* OECD Publishing.

6. Scott, P. (1998). *The Globalization of Higher Education.* Open University Press.

7. Sporn, B. (1999). *Adaptive University Structures: An Analysis of Adaptations to Socioeconomic Environments of US and European Universities.* Jessica Kingsley Publishers.

8. UNESCO (2021). *Trends in Higher Education Policies and Governance.* UNESCO Publishing.

9. Болотова, М. А. (2019). "Развитие управленческих компетенций руководителей высших учебных заведений." *Вопросы образования, 3*, 112–127.

10. Васильев, И. В. (2020). *Управление высшим образованием в условиях цифровой трансформации.* – Москва: Издательство МГИМО.

11. Князев, В. В., & Поляков, А. В. (2017). "Глобальные тренды в развитии высшего образования: вызовы для России." *Журнал Высшего Образования, 5*(2), 34–49.

12. Минобрнауки РФ (2022). *Современные механизмы управления высшими учебными заведениями.* – Москва: Издательство РАНХИГС.

13. Тихомирова, Н. В. (2018). "Лидерские компетенции руководителей университетов в международной практике." *Вестник образования и науки, 10*, 77–90.

14. Филиппов, В. М. (2016). *Стратегическое управление университетами в XXI веке.* – Москва: Высшая школа экономики.

15. Каримов, Б. (2020). *Ўзбекистонда олий таълим муассасалари раҳбариятининг бошқарув компетенциялари.* – Тошкент: Фан ва технологиялар.

16. Раҳимов, Ш. (2018). "Олий таълимни бошқаришнинг замонавий моделлари ва Ўзбекистон учун тажриба." *Иқтисод ва Таълим, 4*(6), 23–39.

17. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги (2023). *Олий таълим тизимини такомиллаштириш бўйича миллий стратегия.* – Тошкент: Маърифат нашриёти.

REFERENCES:

1. Altbach, P. G., & Salmi, J. (2011). *The Road to Academic Excellence: The Making of World-Class Research Universities.* The World Bank.

2. Deem, R., & Brehony, K. J. (2005). "Management as ideology: The case of 'new managerialism' in higher education." *Oxford Review of Education, 31*(2), 217–235.

3. Middlehurst, R. (1993). *Leading Academics*. Open University Press.

4. Mok, K. H. (2016). "Massification of higher education, graduate employment and social mobility in the Greater China region." *British Journal of Sociology of Education, 37*(1), 51–71.

5. OECD (2019). *Higher Education Policy in International Perspective: Trends and Strategies*. OECD Publishing.

6. Scott, P. (1998). *The Globalization of Higher Education*. Open University Press.

7. Sporn, B. (1999). *Adaptive University Structures: An Analysis of Adaptations to Socioeconomic Environments of US and European Universities*. Jessica Kingsley Publishers.

8. UNESCO (2021). *Trends in Higher Education Policies and Governance*. UNESCO Publishing.

9. Bolotova, M. A. (2019). "Razvitie upravlencheskix kompetensiy rukovoditeley visshix uchebnix zavedeniy." Voprosi obrazovaniya, 3, 112–127. (In Russian)

10. Vasilev, I. V. (2020). Upravlenie visshim obrazovaniem v usloviyax sifrovoy transformasii. – Moskva: Izdatelstvo MGIMO. (In Russian)

11. Knyazev, V. V., & Polyakov, A. V. (2017). "Globalnie trendi v razvitii visshego obrazovaniya: vizovi dlya Rossii." Jurnal Visshego Obrazovaniya, 5(2), 34–49. (In Russian)

12. Minobrnauki RF (2022). Sovremennie mexanizmi upravleniya visshimi uchebnimi zavedeniyami. – Moskva: Izdatelstvo RANXIGS. (In Russian)

13. Tixomirova, N. V. (2018). "Liderskie kompetensii rukovoditeley universitetov v mejdunarodnoy praktike." Vestnik obrazovaniya i nauki, 10, 77–90. (In Russian)

14. Filippov, V. M. (2016). Strategicheskoe upravlenie universitetami v XXI veke. – Moskva: Visshaya shkola ekonomiki. (In Russian)

15. Karimov, B. (2020). O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari rahbariyatining boshqaruv kompetensiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar. (In Uzbek)

16. Rahimov, Sh. (2018). "Oliy ta'limni boshqarishning zamonaviy modellari va O'zbekiston uchun tajriba." Iqtisod va Ta'lim, 4(6), 23–39. (In Uzbek)

17. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (2023). Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha milliy strategiya. – Toshkent: Ma'rifat nashriyoti. (In Uzbek)

TURIZMGA XIZMAT KO‘RSATUVCHI KORXONALAR FAOLIYATIGA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH: JAHON TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTONDAGI IMKONIYATLAR

INTRODUCING INNOVATIONS TO THE ACTIVITIES OF TOURISM SERVICE ENTERPRISES: GLOBAL EXPERIENCE AND OPPORTUNITIES IN UZBEKISTAN

ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ, ОБСЛУЖИВАЮЩИХ ТУРИЗМ: МИРОВОЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Toirova Nozima Miraxmad qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti,
Tel.: +998 99 655-01-07
e-mail: ms.mirsobitova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda jahon tajribasi va O‘zbekiston uchun imkoniyatlarga e’tibor qaratgan holda turizm korxonalarining xizmat ko‘rsatish sohasiga innovatsiyalarni joriy etish masalalari o‘rganiladi. Tadqiqotda raqamli innovatsiyalar bo‘yicha yetakchi yo‘nalishlardan olingan ma’lumotlarga asoslanib, sun’iy intellekt (AI), virtual reallik (VR) va blokcheyn texnologiyalarining zamonaviy turizm xizmatlariga integratsiyalashuviga urg‘u beriladi. O‘zbekistonning raqamli transformatsiya salohiyatini baholash, boy madaniy merosi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi kabi kuchli tomonlarini, shuningdek cheklangan raqamli infratuzilma va kiber xavfsizlik kabi muammolarni aniqlash maqsadida SWOT tahlili o‘tkaziladi. Tadqiqot natijalaridan biri sifatida turizm sohasida ilg‘or xalqaro tajribalardan foydalanish O‘zbekistonni jozibador mamlakat va texnologik jihatdan ilg‘or sayyohlik yo‘nalishiga ega davlat sifatida nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *smart turizm, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, virtual reallik, blokcheyn.*

Annotation. This study explores the integration of innovations into the service sector of tourism enterprises, with a focus on global experiences and opportunities for Uzbekistan. Drawing on data from leading trends in digital innovation, the research emphasizes the integration of artificial intelligence (AI), virtual reality (VR), and blockchain technologies into modern tourism services. A SWOT analysis is conducted to assess Uzbekistan’s digital transformation potential, highlighting strengths such as its rich cultural heritage and state support, as well as challenges including limited digital infrastructure and cybersecurity concerns. One of the key findings of the study is that leveraging advanced international practices in the tourism sector can enhance

Uzbekistan’s reputation as an attractive destination and a technologically advanced tourism hub.

Keywords: *Smart tourism, digital transformation, artificial intelligence, virtual reality, blockchain, Uzbekistan, SWOT analysis*.

Аннотация. Данное исследование посвящено изучению вопросов внедрения инноваций в сферу обслуживания туристических предприятий с акцентом на мировой опыт и возможности для Узбекистана. Опираясь на данные о ведущих направлениях цифровых инноваций, исследование подчеркивает интеграцию искусственного интеллекта (ИИ), виртуальной реальности (VR) и технологий блокчейн в современные туристические услуги. Для оценки потенциала цифровой трансформации Узбекистана проводится SWOT-анализ, в котором выделяются сильные стороны, такие как богатое культурное наследие и поддержка со стороны государства, а также проблемы, включая ограниченную цифровую инфраструктуру и вопросы кибербезопасности. Одним из ключевых выводов исследования является то, что использование передового международного опыта в туристической отрасли может способствовать повышению репутации Узбекистана как привлекательной страны и технологически развитого туристического направления.

Ключевые слова: *Умный туризм, цифровая трансформация, искусственный интеллект, виртуальная реальность, блокчейн, Узбекистан, SWOT-анализ.*

KIRISH

Tez o‘sib borayotgan global turizm sanoatida innovatsion texnologiyalarning xizmat ko‘rsatish sohasiga joriy etilishi raqobatbardoshlikni oshirish va sayyohlarning tajribasini yaxshilashning muhim omiliga aylandi. Dunyo mamlakatlari sayyohlik xizmatlarini yanada qulay va samarali qilish uchun mobil ilovalar, sun’iy intellekt (AI) va virtual haqiqat (VR) kabi raqamli texnologiyalardan keng foydalanmoqda. Masalan, VR sayyohlarga diqqatga sazovor joylarni oldindan ko‘rish imkonini bersa, sun’iy intellekt asosida ishlovchi chat-botlar ularga real vaqt rejimida xizmat ko‘rsatishda yordam beradi. Bu esa sayohat jarayonini ancha qulay va yoqimli qiladi.

O‘zining boy madaniy merosi va o‘sib borayotgan sayyohlik salohiyatiga ega O‘zbekiston turizm sohasini modernizatsiya qilish uchun ushbu global tendensiyalarni joriy etish turistlar oqimini ko‘paytiradi hamda ularga keng qulayliklar yaratadi. Mamlakatning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi, masalan, “Turizm innovatsion markazi”ni tashkil etish bo‘yicha Mastercard bilan hamkorlik uning ilg‘or to‘lov yechimlari va ma’lumotlar tahlilini sayyohlik xizmatlariga integratsiyalashuviga sodiqligini ta’kidlaydi. Ushbu tashabbus xavfsiz va samarali to‘lov infratuzilmasini

yaratish, mahalliy va xalqaro tashrif buyuruvchilar uchun qulaylikni oshirishga qaratilgan.

Ключевые слова: *государственные закупки, уполномоченные органы, бюджетный заказчик, корпоративный заказчик, система закупок, контроль за закупками.*

KIRISH

Ma’lumki, davlat xaridlari har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojida katta ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi va u budjet barqarorligini saqlashning, shuningdek, davlat sektorini zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o‘z vaqtida ta’minlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini oshirish, iqtisodiyotning, jumladan, sanoatni hamda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning yangi imkoniyatlari yaratiladi. Davlat xaridlari o‘ziga xos tizim bo‘lib, uning asosiy turlarini tender, tanlov, elektron auksion savdolar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish, kapital qurilish bo‘yicha tanlov savdolarini tashkil etadi. Jahon mamlakatlarida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va budjet defitsitining kuchayishi davlat xaridlari tizimini takomillashtirishga bo‘lgan zaruratni yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekistonda davlat xaridi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar barqaror baholanayotgan bo‘lsa-da, uning tarkibiy tahlilida ayrim murakkabliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, davlat xaridining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamligi, elektron xaridlarni amalga oshirishdagi texnik muammolar raqobat muhitiga ta’sir etayotganligi davlat xaridlari tizimi ahamiyatini oshirmoqda. Shu bilan birga, davlat ulushi bo‘lgan korxonalar qarzi yuqoriligi saqlanib qolmoqda. Bu borada, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev “Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikromoliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo‘l ochib beriladi. Bu esa, davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda milliy iqtisodiyot subyektlari, xususan kichik biznesga alohida e’tibor berish lozimligini ifoda etib beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarali yo‘nalish hisoblanadi: davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish; davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring qilish va baholashni tatbiq etish.

G. Qosimovaning fikriga ko‘ra, davlat xaridiga e’tibor uning ahamiyatidan kelib chiqadi. Birinchidan, davlat xaridi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda eng katta ahamiyatga ega bo‘lgan davlat sektori ishlashi uchun zarur bo‘lgan tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o‘z vaqtida ta’minlab turadi. Ikkinchidan, Davlat budjeti xarajatlarining katta qismini tashkil etuvchi davlat xaridi uning barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun davlat xaridi miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuqori samaradorligini ta’minlash o‘ta muhimdir. Uchinchidan, davlat xaridi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan kuchli vosita ekanligi, deb qayd etib o‘tiladi (Qosimova G., 2019).

Davlat xaridi - bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to‘liq davlat mablag‘lari evaziga sotib olishdir (Rahimova G., 2014).

Bizningcha, davlat xaridini boshqarishga tizimli yondashuv maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun tovar (ish, xizmat)larni xarid qilishni rejalashtirish, elektron savdolarda raqobat muhiti shaffofligini ta’minlagan holda amalga oshirish jarayoni *davlat xaridi tizimini* yuzaga keltiradi.


Fikrimizcha, standart turdagi davlat xaridlari mezonlari raqobatga asoslangan mexanizmni shakllantirishi nazarda tutilmoqda. Mazkur holatda ma’lum bir tovar (ish, xizmat)lar guruhiga ustunlik berilmaydi. “Murakkab” mezonlar asosida tanlab olinishi nazarda tutilgan ma’lum bir guruh tovar (ish, xizmat)larga ustunlik uchun imtiyozlar berilishi mumkin. Xususiy mezonlar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilinishiga yoki biror yetkazib beruvchiga hujjat asosida alohida ustunlik beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola yozish jarayonida davlat xaridini tashkil etish tizimi statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, induktiv, deduktiv, mantiqiy, monitoring, ekspress-baholash va boshqa tahlil usullaridan, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyotda ko'plab sanoqsiz shartnomalar mavjud. Hart va Holmstryom tomonidan ishlab chiqilgan yangi nazariy instrumentlar haqiqiy shartnoma va institutlarni, shuningdek, shartnomalar tuzishda potensial muammolarni tushunishda alohida ahamiyatga ega[1]. Tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, davlat xaridlarini tartibga solishda shartnoma munosabatlari muhim o'rin egallaydi. Bunda davlat buyurtmachisi sifatida budjetdan mablag' oluvchi, yetkazib beruvchi sifatida biznes subyektlari o'zaro munosabatlarga kirishadi. Davlat budjeti mablag'lari rentabelligini oshirish uchun buyurtmachilarning arzon narx va sifat jihatidan talablarini shakllantirish, boshqa jihatdan yetkazib beruvchilarning huquqlarini ta'minlash shartnoma qoidalarida o'z aksini topishi lozim. Bu esa, ikki tomonlama manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga imkon beradi. Davlat xaridi borasida izlanishlar olib borgan bir qator iqtisodchi olimlarning ishlarini o'rganish, ilmiy maqola va boshqa ilmiy ishlanmalarini tahlil qilish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, davlat xaridini tashkil etishning jahon amaliyotida bir nechta modellari qo'llaniladi, ular bir-biridan xaridning qamrovi, unda ishtirok etuvchi subyektlarning vakolatlari, savdolarni tashkil etishning markazlashish darajasi kabilar bilan farq qiladi (1-rasm).



1-rasm. Davlat xaridini tashkil etish modellari (Burhonov U., 2010:14)

[1] The Sveriges Riksbank Prize in Economic Sciences in Memory of Alfred Nobel 2016 https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/2016/press-release/

Markazlashgan modelda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiya hukumatning yagona tarkibiy bo‘linmasi – xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Markazlashgan model barcha tarmoq va bo‘limlardan tushadigan xarid arizalari jamlanadigan xarid markazini tashkil etishni nazarda tutadi. Agar markazlashish darajasi yuqori bo‘lsa, barcha turdagi xaridga javobgar bo‘lgan maxsus idora (yoki yirik kompaniyalarda xarid departamenti) shakllantiriladi.

Markazlashgan modelda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiya hukumatning yagona tarkibiy bo‘linmasi – xaridni tashkil etuvchi tomonidan amalga oshiriladi. Markazlashgan model barcha tarmoq va bo‘limlardan tushadigan xarid arizalari jamlanadigan xarid markazini tashkil etishni nazarda tutadi. Agar markazlashish darajasi yuqori bo‘lsa, barcha turdagi xaridga javobgar bo‘lgan maxsus idora (yoki yirik kompaniyalarda xarid departamenti) shakllantiriladi.

Bizningcha, davlat xaridini rejalashtirishdagi mavjud muammolarning sabablari quyidagilardir:

- budjet jarayonining takomillashmaganligi - budjetni shakllantirish faqat bir yil chegarasida bo‘lib, unda o‘tgan yil budjetida ko‘zda tutilgan va tugallanmagan loyihalarni moliyalashtirish majburiyati ko‘rsatilmaydi;

- davlat xaridlarini rejalashtirilgan davr bilan xaridni amalga oshirish davri o‘rtasidagi muddatning bir kalendar yiliga qarab qilinishida narx bilan bog‘liq murakkabliklar yuzaga keladi.

- davlat budjetini shakllantirishning uslubiy asoslarining yetarli darajada takomillashmaganligi, ya’ni daromad va xarajat moddalarini rejalashtirish o‘zaro mustaqillikning past darajada ekanligi.

Tadqiqotlarga asoslanib aytish mumkinki, budjet xarajatlari doirasida davlat xaridlarini rejalashtirish jarayonida ehtiyoj bo‘lgan tovar (ish, xizmat)ning kelgusida bo‘lishi mumkin bo‘lgan bozor qiymatini aniqlash mexanizmini o‘zida aks ettirgan ma’lumotlarning elektron dasturini joriy etish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo‘lishi, ko‘p jihatdan, davlat xaridi borasida qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining malaka darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog‘liq. Ko‘pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug‘ullanadigan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifa hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan yo‘nalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga katta e’tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda qatnashuvchi boshqa subyektlar ishtirokida davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda (Urolov D., Shernayev A., Narimonov S., 2020).

1–jadval

Davlat xaridlarini amalga oshirish turlari bo‘yicha mezonlari (Bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan)

Xarid turi		Budjet buyurtmachilari uchun	Korporativ buyurtmachilari uchun	Muddati
To‘g‘ridan to‘g‘ri (soddalashtirilgan tanlash)	Tovar ish, xizmat	0* - 25* 0-6 125 000 so‘m	0* - 50* 0-12 250 000 so‘m	-
	Bir moliya yilida	0* - 500* 122 500 000 so‘m	0* - 1000* 245 000 000 so‘m	
Elektron do‘kon	Tovar	0* - 2500* 0-612 500 000 so‘m *bir moliya yilida ayni bir turdagi tovar 10 ming baravargacha	0*-25000* 0 – 6 125 000 000 so‘m	48 soat
	Ish, xizmat	0* - 50* 0 – 12 250 000 so‘m *bir moliya yilida ayni bir turdagi ish,xizmatlar 500 baravargacha	0* - 100* 0 – 24 500 000 so‘m *bir moliya yilida ayni bir turdagi ish, xizmatlar 1000 baravargacha	
Auksion	Tovar	0* - 6000* 0 – 1 470 000 000 so‘m	0* - 25000* 0 – 6 125 000 000 so‘m	5 ish kuni
	Ish, xizmat	-	-	
Eng yaxshi takliflarni tanlash	Tovar	0* - 6000* 0 – 1 470 000 000 so‘m	0* - 25000* 0 – 6 125 000 000 so‘m	5 ish kuni (2 ish kuni muhokama)
	Ish, xizmat	0* - 6000* 0 – 1 470 000 000 so‘m	0* - 25000* 0 – 6 125 000 000 so‘m	
Tender	Tovar, ish, xizmat	6000* - …. 1 470 000 000 so‘m - ….	25000* - …. 6 125 000 000 so‘m - …	12 – 30 ish kuni

Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasida davlat budjetining g‘azna ijrosi sharoitida davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni mexanizmlarini amaliyotga joriy etish bugungi kunda budjet islohotlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etish kompleks yondashuvni talab etmoqda. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo‘yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli xil davlat organlari o‘rtasida hamkorlikda harakatni yo‘lga qo‘yish, ular o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbatining tengligini ta’minlovchi o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi (G‘ofurov D., 2020).

Davlat xaridlarini amalga oshirishda quyidagi prinsiplarga amal qilinadi:

– Davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati;
– Asoslanganlik;
– Moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;
– Ochiqlik va shaffoflik;
– Tortishuv va xolislik;
– Mutanosiblik;
– Davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;
– Korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik.

Har bir davlat xaridlari amalga oshirilayotganda yuqoridagi prinsiplarga amal qilish talab etiladi. Shundagina biz davlat xaridlari sohasida yanada rivojlanishga erishishimiz mumkin. Xususan, korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslikni oladigan bo‘lsak, hozirgi kunda davlatimizda korrupsiyaga qarshi keskin kurashilmoqda. Davlat xaridlari sohasida ham korrupsiya yo‘q bo‘lsa, raqobat bo‘ladi va bu davlat xaridlari tizimini yanada rivojlanishiga olib keladi. Agar biror bir budjet yoki korporativ tashkilot tovar yoki ish, xizmat xarid qilmoqchi bo‘lsa, tovar yoki ish, xizmatning qiymatiga qarab yuqoridagi mezon asosida davlat xaridlari turlarining birini tanlaydi.

Yuqoridagi o‘rganilgan masalalar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, davlat xaridi tushunchasi sobiq sovet davridagi “davlat xaridi” tushunchasidan tubdan farq qiladi. Bugungi kunda davlat xaridi mexanizmlari orqali hukumat davlat sektorining tovar va xizmatlarga bo‘lgan talabini qondiribgina qolmay, undan iqtisodiy o‘sish omili sifatida foydalanadi, davlat xaridi ishlab chiqaruvchilar va mahsulot yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatni mustahkamlaydi, davlat xaridiga kichik biznes subyektlarini jalb qilish mexanizmlari orqali bu soha tadbirkorlari qo‘llab-quvvatlanadi, sotilayotgan mahsulotlarning maqbul narxlarda taklif etilishi ta’minlanadi (G‘ofurov D., 2020).

Xulosa qilib aytganda, davlat xaridlari sohasini rivojlantirishga qaratilib qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar hamda ko‘rilayotgan choralar qo‘yilgan maqsadlarga

erishishning asosiy omili bo‘lmoqda. Ayni paytda kuzatilayotgan samaralar salmog‘ini yanada oshirish, davlat xaridlari amaliyotini bundan ham kengaytirish, shu orqali davlat bilan xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik imkoniyatlaridan unumli foydalanish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi. Buning uchun esa, avvalo, soha qonunchiligini takomillashtirish zarurati tug‘ilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari mavjud qonunlar doirasida, o‘zi va jamiyat manfaati uchun, aqliy va jismoniy qobiliyatiga tayanadigan, xususiy mol-mulki va jamg‘armasiga ega bo‘lgan, bozor uchun turli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko‘rsatuvchi, foyda ko‘rishni mo‘ljallovchi, jismoniy yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan yoki ega bo‘lmagan tadbirkor, ishbilarmon, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha soha va tarmoqlarida, raqobatli bozorda iqtisodiy nafli xatti-harakatlarni amalga oshiruvchi subyektlardir. Ularning tarkibi yakka mehnat faoliyati, mikrofirma, kichik korxonalar, dehqon-fermer xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, kasanachilardan iborat bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik shakllarini ustuvor rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun iqtisodiy islohotlar o‘tkazildi, uning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va uni kafolatlovchi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, tadbirkorlarga ko‘maklashuvchi nodavlat tashkilotlar, korxonalar shular jumlasiga kiradi. O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes korxonalari majmuini tashkil etish muvaffaqiyatli bormoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlikni huquqiy himoya qilish masalasi mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Keyingi yillarda ushbu soha jadal sur’atlar bilan ravnaq topib, aholi bandligi va turmush farovonligini ta’minlashda yetakchi kuchga aylandi.

Bugungi kunda davlat boshqaruvi organlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini yanada ko‘proq cheklash, davlatning nazorat va boshqaruv vakolatini keskin kamaytirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf qilish bo‘yicha islohotlar davom etmoqda. Shubhasiz, ushbu jarayonda litsenziyalar va turli ruxsatnomalar berishni keskin qisqartirish, amaldagi ro‘yxatga olish, biznes yuritish uchun litsenziya va ruxsatnoma berish tizimini yana bir bor chuqur tahlil qilish, yangi korxonalar va biznes tashkilotlarini ro‘yxatga olishning aksariyat hollarda xabardor etish tizimiga o‘tish kabi yangiliklarning joriy qilingani biznes subyektlarini tashkil etishni soddalashtirish va ularning yanada erkin faoliyat yuritishlarini ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Burxanov U., Atamuradov T. (2012) Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”.

2. Ibragimov A., Sugirbayev B. (2009) Budjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “InfoCOM.uz”.

3. Vahobov A., Malikov T. (2012) Moliya. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”.

4. Dauda Ibrahim Sarawaa, Abdulsalam Mas’ud. Strategic public procurement regulatory compliance model with mediating effect of ethical behavior // Journal of Heliyon. Volume 6, Issue 1, January 2020.

5. Gulyamov S., Jumaev N., Raxmonov D., Tashxodjaev M. (2019) Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot – 335 b.

6. Pulatov D.X. (2017) O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g‘azna ijrosini takomillashtirishning metodologik jihatlari. I.f.d. (DSc) ... avtoreferat. – Toshkent.

7. Qosimova G. (2019) G‘aznachilik tizimida davlat xaridining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. – Toshkent. - № 2 (aprel).

8. Rahimova G. (2014) O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish asoslari // “Iqtisod va moliya” ilmiy-amaliy jurnali. № 4.

9. Raxmonov D., Sherov A. (2020) Budjet siyosatini shakllantirishning zamonaviy yo‘nalishlari. // Innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent.

10. Urolov D., Shernayev A., Narimonov S. (2020) O‘zbekiston Respublikasida davlat xaridlari munosabatlarini takomillashtirish va barqaror rivojlantirish // Pedagogs international research journal. – Toshkent.

11. G‘ofurov D. (2020) O‘zbekistonda davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirish: i.f.f.d. (PhD) ... avtoreferat. – Toshkent: TMI.

12. Burxonov U. (2010) Davlat xaridi. – Toshkent: “InfoCOM.uz”

REFERENCES:

1. Burxanov U., Atamuradov T. (2012) Davlat xaridi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”. (In Uzbek)

2. Ibragimov A., Sugirbayev B. (2009) Budjet nazorati va auditi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “InfoCOM.uz”. (In Uzbek)

3. Vahobov A., Malikov T. (2012) Moliya. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. (In Uzbek)

4. Dauda Ibrahim Sarawaa, Abdulsalam Mas'ud. Strategic public procurement regulatory compliance model with mediating effect of ethical behavior // Journal of Heliyon. Volume 6, Issue 1, January 2020.

5. Gulyamov S., Jumaev N., Raxmonov D., Tashxodjaev M. (2019) Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. – Toshkent: Iqtisodiyot – 335 b. (In Uzbek)

6. Pulatov D.X. (2017) O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti g'azna ijrosini takomillashtirishning metodologik jihatlari. I.f.d. (DSc) ... avtoreferat. – Toshkent. (In Uzbek)

7. Qosimova G. (2019) G'aznachilik tizimida davlat xaridining huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali. – Toshkent. - № 2 (aprel). (In Uzbek)

8. Rahimova G. (2014) O'zbekiston Respublikasida davlat xaridini tashkil etish asoslari // "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnali. № 4. (In Uzbek)

9. Raxmonov D., Sherov A. (2020) Budjet siyosatini shakllantirishning zamonaviy yo'nalishlari. // Innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliya tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent. (In Uzbek)

10. Urolov D., Shernayev A., Narimonov S. (2020) O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari munosabatlarini takomillashtirish va barqaror rivojlantirish // Pedagogs international research journal. – Toshkent. (In Uzbek)

11. G'ofurov D. (2020) O'zbekistonda davlat va korporativ xaridlar jarayonini takomillashtirish: i.f.f.d. (PhD) ... avtoreferat. – Toshkent: TMI. (In Uzbek)

12. Burxonov U. (2010) Davlat xaridi. – Toshkent: "InfoCOM.uz" (In Uzbek)

OLIY TA’LIM MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

ISSUES OF IMPROVING THE STRATEGIC MANAGEMENT MECHANISM IN THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

ПРОБЛЕМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМА СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Isoxonov Javlonxon Hasan o‘g‘li
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi
Tel.: +998 99 854-82-84
e-mail: javlonxonisoxonov87@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida strategik boshqaruvni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish masalalari atroflicha ko‘rib chiqilgan hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash strategiyasi, shuningdek, oliy ta’lim sohasida tizimli strategik boshqaruvni shakllantirish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta’lim jarayonini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari va ushbu jarayonda strategik yondashuvlarni joriy etishning dolzarb jihatlari alohida e’tibor markazida bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida tizimli strategik boshqaruvni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalariga urg‘u berilgan. Xususan, ta’lim dasturlarini mustaqil tanlash va amalda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida ijtimoiy-matematik, huquqiy, tashkiliy, psixologik-pedagogik va boshqa muhim omillarni hisobga olgan holda kompleks yondashuv taklif etiladi. Shu bilan birga, oila, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatni chuqur anglagan, barkamol shaxsni tarbiyalash oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sifatida ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: *boshqaruv, strategik boshqaruv, kreativ fikrlash, iqtisodiy masalalar, tanqidiy fikrlash, amaliyotga tatbiq etish.*

Annotation. This article comprehensively examines the development of recommendations for the main directions of implementing strategic management in the higher education system, alongside analyzing strategies for preparing competitive personnel and the processes of forming systematic strategic management within the higher education sector. The study places particular emphasis on the distinctive features of managing the educational process and the critical aspects of integrating strategic approaches into this process. Special attention is given to creating the necessary conditions for the development of systematic strategic management in higher education institutions. Specifically, a comprehensive approach is proposed,

taking into account socio-mathematical, legal, organizational, psychological-pedagogical, and other significant factors, with the aim of expanding opportunities for the independent selection and practical application of educational programs. Furthermore, fostering a well-rounded individual who deeply understands their responsibilities towards family, society, and the state is regarded as one of the primary objectives of the higher education system.

Keywords: *management, strategic management, creative thinking, economic issues, critical thinking, practical application*.

Аннотация. В данной статье всесторонне рассмотрены вопросы разработки рекомендаций по основным направлениям реализации стратегического управления в системе высшего образования, а также проведен анализ стратегии подготовки конкурентоспособных кадров и процессов формирования системного стратегического управления в сфере высшего образования. В исследовании особое внимание уделено специфическим особенностям управления образовательным процессом и актуальным аспектам внедрения стратегических подходов в этот процесс, с акцентом на создание необходимых условий для развития системного стратегического управления в высших учебных заведениях. В частности, предложен комплексный подход, учитывающий социально-математические, правовые, организационные, психолого-педагогические и другие значимые факторы, с целью расширения возможностей самостоятельного выбора и практического применения образовательных программ. При этом воспитание гармонично развитой личности, глубоко осознающей свою ответственность перед семьей, обществом и государством, рассматривается как одна из ключевых задач системы высшего образования.

Ключевые слова: *управление, стратегическое управление, креативное мышление, экономические вопросы, критическое мышление, внедрение в практику*.

KIRISH

Ta’lim tizimida, xususan, oliy o‘quv yurtlarida ta’limning zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion ta’limni joriy etish sifatini boshqarish samaradorligini oshirish va ta’lim jarayonini loyihalash strategiyasi muammosini yoritishda bu strategiyani amalga oshiruvchi ta’lim muassasasi jamoasi – oliy o‘quv yurtining professor-o‘qituvchilari tarkibi, uning ilmiy salohiyati muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tizimida yangiliklar kiritish mazmuni, unda sifatni boshqarish tizimini joriy etish orqali ta’lim sifatini oshirish xususiyati va yo‘nalishlari masalasini tadqiq qilishdan oldin mana shu sifat tizimining joriy etilishi ko‘zda tutilayotgan “ta’lim faoliyati va pedagogik tizim”, “ta’lim tizimiga yangiliklar kiritish”, “sifatni

oshirish bo‘yicha ilmiy-innovatsion hamkorlik” tushunchalarining mazmun-mohiyatini aniqlash zarurati yuzaga keladi.

Ma’lumki, oliy o‘quv yurtlarida pedagogik jarayon pedagogik tizim asosida yo‘lga qo‘yiladi. Oliy o‘quv yurtidagi pedagogik tizim – bu ta’lim jarayonini tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo‘lib, ular ma’lum bir o‘zgartirishlar kiritilganda ham barqarorligini saqlab qolaveradi. Agarda qandaydir o‘zgarishlar – yangiliklar, innovatsiyalar kiritilishi mumkin bo‘lgan chegaradan oshib ketsa, pedagogik tizim shaklan buzilishga duchor bo‘ladi, uning o‘rniga endi sifat jihatdan boshqacha xususiyatga ega bo‘lgan tizimni shakllantirish zarurati paydo bo‘ladi. Dunyoda ta’lim boshqaruvining yangi strategiyalariga moslashtirilgan, muntazam takomillashib borayotgan infrastrukturasida kasbiy faoliyatga aloqador parametrlarni egallash, uning natijaviyligiga aloqador (functional education, competence-based approach, competence) modellarni texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirishda strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalasi zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar va adabiyotlarni tahlil qilish mavzuning turli jihatlarini yoritishga imkon beradi. Quyida ushbu mavzu bo‘yicha bir nechta muhim manbalar asosida tahlil keltiriladi.

R. Xendersonning “Компенсационный менеджмент: стратегия и тактика формирования заработной платы и других выплат” asari strategik boshqaruvning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida xodimlarni rag‘batlantirish va moddiy ta’minot tizimini shakllantirish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif kompensatsiya strategiyasini tashkilotning umumiy maqsadlari bilan bog‘lash zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv oliy ta’lim muassasalari kontekstida ham dolzarb bo‘lib, professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlarning samarali faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Xendersonning ishida taklif qilingan taktikalarni oliy ta’lim tizimida xodimlarning malakasini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni jalb qilish strategiyalariga integratsiya qilish imkoniyati mavjud (Хендерсон Р., 2004).

A. Shebotonovning “Визуализация стратегических KPI организации с использованием инструментальных средств” asari esa strategik boshqaruvda vizualizatsiya vositalaridan foydalanishning ahamiyatiga urg‘u beradi. Muallif tashkilotning asosiy ko‘rsatkichlarini (KPI) aniq va tushunarli shaklda taqdim etish orqali boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish usullarini ko‘rib chiqadi. Oliy ta’lim muassasalari nuqtayi nazaridan, ushbu yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini

baholash, talabalarning o‘qish natijalarini monitoring qilish va umumiy strategik maqsadlarga erishish darajasini aniqlashda qo‘llanilishi mumkin. Shebotonovning ishida keltirilgan instrumental vositalar tahlili tizimli strategik boshqaruvni shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi (Шеботонов А., 2018).

A. Mamajonov va boshqalarning “KPI asosida rag‘batlantirish tizimi” asari esa KPI (Key Performance Indicators) ga asoslangan rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish masalalariga qaratilgan. Mualliflar ushbu tizimni tashkilot ichidagi samaradorlikni oshirish va xodimlarning faoliyatini maqsadli ravishda boshqarish uchun samarali vosita sifatida ko‘rib chiqadilar. Oliy ta’lim muassasalari nuqtayi nazaridan, bu yondashuv o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini baholash, ilmiy tadqiqotlar natijalarini rag‘batlantirish va talabalarning o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatini qo‘llab-quvvatlashda qo‘llanilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu tizimni joriy etishda mahalliy sharoitlar va ta’lim muassasasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta’kidlanadi (Mamajonov A., Berdimurodov P., Maxmudova S., 2019).

Yuqoridagi manbalarni umumlashtirgan holda, oliy ta’lim muassasalarida strategik boshqaruv mexanizmini takomillashtirishda kompleks yondashuv zarurligi aniq bo‘ladi. Xendersonning kompensatsiya strategiyasi, Shebotonovning vizualizatsiya vositalari va Mamajonov va boshqalarning KPI asosidagi rag‘batlantirish tizimi birgalikda ta’lim jarayonini boshqarishda yangiliklarni joriy etish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga xizmat qilishi mumkin. Ushbu adabiyotlar tahlili oliy ta’lim tizimida strategik boshqaruvni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida belgilangan vazifalarning yechimini topish maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, ekspert baholash, ijtimoiy metodlar (anketa, so‘rovnoma, suhbat, test) qo‘llanilib, muammoga oid hujjatlarning nazariy hamda qiyosiy pedagogik tahlili, empirik ma’lumotlarni qayta ishlashning matematik statistikasi kompleks nazariy va empirik tadqiqotlar amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta’lim muassasalarining amaliyotida bir xillikdan uzoqlashish aholining turli qatlamlari ehtiyojlariga mos ravishda o‘zgaruvchan ta’lim menejerligi xizmatlarini ko‘rsatishga alohida urg‘u berilmoqda.

Yangilanayotgan O‘zbekistonning Uchinchi Renessans pallasida insonparvarlik g‘oyasini ta’lim boshqaruviga singdirish va keng jamoatchilik ongiga yetkazish oliy ta’lim muassasalari boshqaruvining metodologik va tashkiliy-pedagogik asoslarini

takomillashtirish bilan bog‘liqlikda qaraladi. Bu esa, menejmentning yangi shakllari va imkoniyatlari orqali yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, demokratik tamoyillarga asoslangan innovatsion ta’lim boshqaruvini amalga oshirish, uzluksiz ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhimligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak kadrlarning kasbiy va boshqaruv kompetentligini shakllantirish, kasbiy faoliyatga tayyorlashning texnologik aspektlarini takomillashtirish zaruriyati mavjud bo‘lib, ushbu jarayonlarning zamirida bo‘lajak mutaxassislarni pedagogik jarayonlarni boshqarishga o‘rgatish samaradorligini oshirish taqozo etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son, 2018-yilning 7-maydagi “Iqtisodiyot va soha yo‘nalishlariga innovatsiyalarni tatbiq qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 3569-son hamda “Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” va “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan va bu davom etishiga ishonish uchun barcha asoslar bor. Chunki uskunalar va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan birga turli yo‘nalishlarda intensiv raqamlashtirish davom etmoqda.

Oliy ta’limni raqamlashtirish haqida gapirganda, biz zamonaviy universitetda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uchta jihati haqida gapiramiz:

• raqamli texnologiyalardan foydalangan holda malakani oshirib borish;

• shaxs sifatida va oliy ta’lim muassasasi sifatida ta’limni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish (jumladan, o‘quv materialini, kompetensiyalarni o‘zlashtirish darajasini baholash);

• raqamli texnologiyalardan foydalana oluvchi mutaxassislarni tayyorlash.

Bugungi kunda texnik qoidalarni ishlab chiquvchilar pedagogik vazifalarni hisobga olishga harakat qilgan holda fundamental bilimlarni ulashishi, ularni tushunishni tashkil etishi, amaliy masalalar uchun ko‘nikmalarni qo‘llashi lozim. Buning uchun platformalar o‘qituvchi bilan muloqot shakli, forumlar, test bloklari, laboratoriyalarga kira olish - maslahatlar, bilimlarni tekshirish, talabaning tanqidiy fikrlashini shakllantirishga yordam beradigan loyihalarda ishtirok etishni o‘z ichiga

oladi. Bu masofaviy ta’lim tizimida pedagogik tamoyilni amalga oshirishdir. Bundan tashqari:

Multimedia o‘quv jarayonini idrok etish va tushunishni osonlashtiradi. Muhim ma’lumotlarning maksimal miqdori turli formatlarda ixcham tarzda taqdim etiladi - audio va video, matn, taqdimot, master-klass, va hokazo. Bu formatlar eslab qolishga va samaraliroq o‘rganishga ko‘proq yordam beradi. O‘quv jarayonini raqamli muhitda bevosita va masofadan o‘qitishni tashkil etishda ham o‘z navbatida ta’lim berish texnologiyalari ham o‘z oldiga bir qancha maqsad va vazifalarni qo‘yadi.

Jumladan, tashkilotning ta’lim faoliyatida elektron ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishdan asosiy maqsad, ularning yashash joyi, yoshi, sog‘lig‘i va ijtimoiy holatidan qat’iy nazar, ta’lim sifatini zamonaviy texnik vositalar bilan oshirish imkoniyatini ta’minlashdan iborat.

Shuningdek, tashkilotning ta’lim faoliyatida elektron ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ta’lim dasturlari mazmunini takomillashtirish, uning o‘zgaruvchanligini ta’minlash va individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish imkoniyatini yaratish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirish;

- talabalarning zamonaviy ta’lim texnologiyalari va o‘quv vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- o‘quvchilarning ta’lim faoliyati samaradorligini oshirish;

- o‘quv faoliyatini tashkil etish samaradorligini oshirish;

- o‘quvchilarning qo‘shimcha bilimga bo‘lgan ehtiyojini va o‘qishga qiziqishini, shaxsiy o‘zini o‘zi baholash va o‘zini o‘zi anglash qobiliyatini rivojlantirishni rag‘batlantirish;

- qiziqishni rivojlantirish, o‘quvchilarning bilim va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- ta’limni differensiallashtirishga asoslangan o‘quv faoliyatining mustaqil ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- o‘quvchilarning intellektual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va hokazo.

Raqamli ta’lim faoliyatini joriy etishdagi texnologiyaning quyidagi muhim xususiyatlariga ham e’tibor qaratish zarur:

1. Raqamli ta’limni joriy etish o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida bilvosita (masofaviy) aloqa orqali ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar va boshqa turdagi darslarni o‘tkazish, shuningdek, mustaqil va test ishlarini, kurs ishlari va loyihalarini tekshirish, maslahatlashuvlar o‘tkazish uchun elektron ta’lim resurslaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi;

2. Raqamli muhitda o‘quv jarayonini tashkil etishda foydalanuvchi o‘qituvchi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani va/yoki internet orqali bilvosita o‘zaro laboratoriya resursi bazalari orqali ta’sir qiladi;

3. Elektron ta’lim va raqamli muhitda o‘quv jarayonini tashkil etishdan foydalangan holda o‘quv mashg‘ulotlari turlari va shakllari - mustaqil ish, shu jumladan masofaviy ta’limda elektron kurs mazmuni bilan ishlash, shu jumladan onlayn yoki oflayn multimedia elektron darslik va amaliy mashg‘ulotlar, individual uy vazifalari, kurs loyihalari, kurs ishlarini bajarish, ma’ruza, vebinar, shu jumladan video aloqa rejimida tarmoq sinfida ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, shu jumladan kompyuter yoki virtual laboratoriya mashg‘ulotlari, individual va guruhli maslahatlar, bilimlarni nazorat qilish (sinov) va boshqalar.

Bundan tashqari masofaviy ta’limni joriy etishdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabr, 559-son qarorida ta’lim tashkilotida ta’lim dasturlarini amalga oshirishda elektron ta’lim, masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish elektron ta’limdan foydalanishning maqsadlari va tartibini belgilaydi. Ta’lim, masofaviy ta’lim texnologiyalari, ta’lim faoliyatida elektron ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish shartlari, oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi masalalar qayd qilingan.

Raqamli texnologiyalar orqali onlayn darslarni olib borishda, o‘zaro munosabatlar va ta’limning samarali olib borilishida o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar o‘qishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu munosabatlarga ta’sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat:

1. Texnologiya vosita sifatida: Texnologiya o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilash uchun kuchli vosita bo‘lishi mumkin. Bu muloqotni kuchaytirishga yordam beradi, yanada samarali o‘rganish imkonini beradi va hatto ishtirokchilar turli joylarda bo‘lsa ham muloqot uchun platformalar yaratadi;

2. Ijtimoiy-emotsional ta’lim: texnologiyadan foydalanish ijtimoiy-emotsional ta’limni amalga oshirishga imkon beradi. Bu o‘quvchilarda qiziquvchanlik, moslashuvchanlik, chidamlilik va hamdardlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘qituvchi va talaba birgalikda o‘rgansa, bu chuqurroq munosabatlarni rivojlantiradi;

3. Shaxsiy ehtiyojlar: Texnologiya ta’lim tajribasini har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. O‘qituvchilar o‘z talabalarini yaxshiroq tushunishlari va o‘quvchining holatiga nisbatan ma’lumot taqdim etishlari mumkin;

4. Hamkorlik va fikr-mulohazalar: Texnologiya o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni osonlashtiradi. Ular onlayn platformalar orqali fikr almashishlari, savollar berishlari va fikr bildirishlari mumkin.

Raqamli muhitda o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi munosabatlar internet orqali amalga oshirilganligi sababli yanada qulay va ochiq bo‘lishi mumkin, bu esa o‘rganishni har ikki tomon uchun ham ochiqroq va qulayroq qiladi. O‘qituvchilar talabalarga qo‘shimcha materiallar va topshiriqlarni bemalol taqdim etishlari va ularning savollariga bir zumda javob berishlari mumkin.

Shu bilan birga, onlayn muloqot qilishda professional chegaralarni saqlash va ma’lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligini ta’minlash muhimdir. O‘qituvchilar onlayn ta’lim jarayonida talabalarning ehtiyojlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarga e’tiborli bo‘lishlari va ularga zarur yordam ko‘rsatishga tayyor bo‘lishlari kerak (Mamajonov A., Berdimurodov P., Maxmudova S., 2019).

Ta’lim tizimida strategik boshqaruvni takomillashtirish mexanizmining asosiy yo‘nalishlarini va istiqbolini belgilab beruvchi oliy ta’lim sifatini ta’minlashda, belgilangan tartibda me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va aniq, majmuaviy hamda kelishilgan strategiyani shakllantirishda maqsadli o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi (Mamajonov A., Berdimurodov P., Maxmudova S., 2019).

Bunday boshqaruvda ta’lim sifatini aniqlashda professor-o‘qituvchilar tarkibi sifati, o‘quv yurtining moddiy-texnik bazasi, o‘quv dasturlarining sifati, talabalar salohiyati, bilim sifati, rahbariyatning innovatsion faolligi, innovatsion faoliyatning tatbiq etilishi va bilim darajasini oshirishda asosiy maqsadli strategik boshqaruvni o‘quv jarayoniga tatbiq qilish mexanizmi ishlab chiqiladi va ta’limni strategik boshqaruvi tamoyillariga bog‘liq bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqqan holda strategik boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi quyidagi tavsiyalar keltirildi:

Bizning fikrimizcha, OTMlarda strategik boshqaruvni ta’minlashda quyidagi maqsadlarga erishish nazarda tutiladi:

- ta’lim tizimini operativ takomillashtirishda, ta’lim jarayonidagi kamchiliklarni izlash va strategik boshqaruvni amalga oshirishning nazariy jihatlariga tayanib, uzoq muddatli yangi g‘oyalarni tadqiq etish va istiqbolli rejalarni ishlab chiqish lozim;

- oliy ta’limda tizimli strategik boshqarishni shakllantirish va rejalashtirish asosida mutaxassislar tayyorlash masalasini jadallashtirish;

- OTMlarda rahbar kadrlar karyerasini takomillashtirish strategiyasi va zaxiraga kiritish mezonlarini ishlab chiqishda malakali mutaxassislarni tanlab olishda zamonaviy usullarini joriy etishni takomillashtirish;

- oliy ta’lim tizimida zamonaviy boshqaruv vositalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda innovatsion ta’limni joriy etishni doimiy ravishda oshirib borish;

- ta’lim tizimida strategik qarorlar qabul qilishda o‘quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borish;

- o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish va o‘quv normativlarini to‘g‘ri joriy etish;

- oliy ta’limda innovatsion loyihalarni kengaytirish va byudjetdan tashqari resurslarni jalb etishda korporativ hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda maxsus maslahat markazlarini tashkil etish;

- oliy ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim muhitini tashkil etishda, talabalar bilimlarini mustahkamlash maqsadida bilim darajasini baholash uchun tuzilgan testlar, takrorlash uchun tayyorlangan savollar va keyslar to‘plami sifatini oshirishdagi zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash maqsadida OTMlar uchun platformalarni shakllantirish zarur;

- oliy malakali kadrlar tayyorlash raqobatbardoshligini ta’minlovchi strategiyani ishlab chiqishda, professor-o‘qituvchilar va personal mehnatini rag‘batlantirish hamda o‘quv jarayoni bilan bog‘liq sifat boshqaruvini tahlil qilib borish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Strategiyani amalga oshirishda quyidagi omillarni asos qilib olish lozim:

- tajriba mavjudligi va faoliyat haqida tasavvur bo‘lishi;
- ijrochilar sohaning yangi yoki eski xodimlari bo‘lishi;
- shaxsiy munosabatlar va uning xususiyatlari;
- diagnostika, ma’muriy ko‘nikmalar va muammolarni yechish qobiliyatining mavjudligi;
- vakolatlarning samarali taqsimoti;
- rahbarlik usuli;
- rahbarlarning tashkilotdagi roli.

Oliy ta’lim tizimida boshqaruv strategiyasini qo‘llash masalalari bo‘yicha quyidagilarga e’tibor berish lozim:

- ta’lim sohasidagi yangiliklar - ta’limning yangi standartlari va mutaxassislar modellarini ishlab chiqish, yangi o‘quv yurtlarini tashkil etish;

- kadrlarni izlash va tanlash, ya’ni yangi va samarali kadrlar potensialini yaratish. Mehnat bozorida kadrlarni izlashning innovatsiyasini, kadrlar marketingining yangi usullarini, yangi ehtiyojlar, talab va takliflar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bankini shakllantirish, ishchi o‘rinlarini reklama qilish, mehnat birjalari, firmalar, kadrlarni tanlash bo‘yicha, kadrlarga baho berish va ularni qabul qilishning yangi usullari yaratilishi lozim. Shuningdek kadrlar zaxirasini shakllantirish va tayyorlash siyosatida asosan tashkiliy hamda texnologik vazifalarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratish, kadrlar karyerasi strategiyasi shunga asoslanishi kerakki, oliy ta’lim xizmatini kadrlar bilan ta’minlash mexanizmini yaratish, ya’ni amalda ro‘yobga chiqariladigan muayyan tizim, tegishli maqsadlarga erishish yo‘lida kadrlar faoliyatini belgilovchi dasturlar bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, № 637.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi” 467-sonli Qarori.

4. Дулесова В.А. (2015) Разработка системы управления мотивацией персонала в образовательной организации высшего образования // Вестник Удмуртского Университета, Т. 25, вып. 6. – С. 21-26.

5. Каплан Р., Нортон Д. (2003) Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию / Пер. с англ. – Москва: ЗАО «Олимп-Бизнес». – 304 с.

6. Хендерсон Р. (2004) Компенсационный менеджмент: стратегия и тактика формирования заработной платы и других выплат. 8-е издание. – Санкт-Петербург. – 880 с.

7. Шеботонов А. (2018) Визуализация стратегических KPI организации с использованием инструментальных средств // Business Intelligence. Вопросы студенческой науки, Выпуск №4 (20), апрель. – С. 27-37.

8. Mamajonov A., Berdimurodov P., Maxmudova S. (2019) KPI asosida rag‘batlantirish tizimi. – Toshkent: ACTA TTPU, № 3. – B. 51-58.

9. Mustafakulov Sh., Xakimov Z. (2019) Kichik biznes uchun marketing bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent. – 68 b.

10. Tojiboyeva D. (2017) Samaradorlik va unga nazariy jihatdan klassik va neoklassik yondashuv // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali, № 5.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentyabr, № 637. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli Farmoni. (In Uzbek)

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi” 467-sonli Qarori. (In Uzbek)

4. Дулесова В.А. (2015) Разработка системы управления мотивацией персонала в образовательной организации высшего образования // Вестник Удмуртского Университета, Т. 25, вып. 6. – С. 21-26. (In Russian)

5. Каплан Р., Нортон Д. (2003) Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию / Пер. с англ. – Москва: ЗАО «Олимп-Бизнес». – 304 с. (In Russian)

6. Хендерсон Р. (2004) Компенсационный менеджмент: стратегия и тактика формирования заработной платы и других выплат. 8-е издание. – Санкт-Петербург. – 880 с. (In Russian)

7. Шеботонов А. (2018) Визуализация стратегических KPI организации с использованием инструментальных средств // Business Intelligence. Вопросы студенческой науки, Выпуск №4 (20), апрель. – С. 27-37. (In Russian)

8. Mamajonov A., Berdimurodov P., Maxmudova S. (2019) KPI asosida rag‘batlantirish tizimi. – Toshkent: ACTA TTPU, № 3. – B. 51-58. (In Uzbek)

9. Mustafakulov Sh., Xakimov Z. (2019) Kichik biznes uchun marketing bo‘yicha qo‘llanma. – Toshkent. – 68 b. (In Uzbek)

10. Tojiboyeva D. (2017) Samaradorlik va unga nazariy jihatdan klassik va neoklassik yondashuv // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali, № 5. (In Uzbek)

INVENTARIZATSIYA O‘TKAZISH JARAYONINING TALABLARI VA UNING AHAMIYATI

REQUIREMENTS OF THE INVENTORY CONDUCT PROCESS AND ITS SIGNIFICANCE

ТРЕБОВАНИЯ К ПРОЦЕССУ ПРОВЕДЕНИЯ ИНВЕНТАРИЗАЦИИ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ

Abdurayimov Ma’rufjon Saydulla o‘g‘li
TDIU, Davlat moliyaviy nazorati va auditi mutaxassisligi magistranti
Tel.: + 99890 320-22-97
e-mail: abdurayimovmarufjon89@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada inventarizatsiyadan o‘tkazish jarayonining huquqiy talablari va uning ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Byudjet tashkilotlarining moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish masalalari keng yoritib berilgan. Inventarizatsiya har qanday savdo nuqtasi uchun eng og‘riqli jarayonlardan biridir. Ko‘pincha menejerlar, kassirlar va sotuvchilar barcha tovarlarni hisoblash uchun tuni bilan qolishlariga to‘g‘ri keladi va menejerlar aldanib qolmaslik uchun jarayonni to‘liq nazorat qiladilar. Inventarizatsiya jarayoni ko‘p vaqt, kuch va ortiqcha harakatni talab qiladi. Axir, siz har doim ham qanday tovarlar borligi, xodimlar sizni aldamasligi va tashrif buyuruvchilarning o‘g‘irlik qilmasliklarini bilmaysiz. Mamlakatimizdagi byudjet tashkilotlari moliya-xo‘jalik faoliyatini yanada rivojlantirishda davlat moliyaviy nazoratining o‘rni va ahamiyatini oshirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Inventarizatsiya, buxgalteriya hisobi, subyekt, xo‘jalik mablag‘lari, pul mablag‘lari, byudjet tizimi, davlat byudjeti, byudjet tashkilotlari, moliya-xo‘jalik faoliyati, moliyaviy nazorat, byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar, davlat moliyaviy nazorati, byudjet ijrosi.*

Annotation. This article provides information on the legal requirements for the inventory process and its importance. The issues of organizing state financial control over the financial and economic activities of budgetary organizations are widely covered. Inventory is one of the most painful processes for any point of sale. Often, managers, cashiers and sellers have to stay up all night to count all the goods, and managers fully control the process so as not to be deceived. The inventory process takes a lot of time, effort and wasted effort. After all, you do not always know what goods are there, whether employees will deceive you or steal from visitors. Ways to increase the role and importance of state financial control in the further development

of the financial and economic activities of budgetary organizations in our country are studied.

Key words: *Inventory, accounting, subject, economic funds, funds, budget system, state budget, budget organizations, financial activities, financial control, allocators of budget funds, state financial control, budget execution.*

Аннотация. В данной статье представлена информация о правовых требованиях к процессу инвентаризации и его важности. Широко освещены вопросы организации государственного финансового контроля за финансово-хозяйственной деятельностью бюджетных организаций. Инвентаризация — один из самых болезненных процессов для любой точки продаж. Зачастую менеджерам, кассирам и продавцам приходится не спать всю ночь, чтобы пересчитать все товары, при этом менеджеры полностью контролируют процесс, чтобы избежать мошенничества. Процесс инвентаризации требует много времени, усилий и напрасных трат. Ведь не всегда знаешь, какой товар есть в наличии, не обманут ли вас сотрудники и не ограбят ли посетителей. Рассмотрены пути повышения роли и значения государственного финансового контроля в дальнейшем развитии финансово-хозяйственной деятельности бюджетных организаций нашей страны.

Ключевые слова: *инвентаризация, учет, субъект, хозяйственные фонды, фонды, бюджетная система, государственный бюджет, бюджетные организации, финансовая деятельность, финансовый контроль, распределители бюджетных средств, государственный финансовый контроль, исполнение бюджета.*

KIRISH

Byudjet tashkilotlariga har qanday xo‘jalik subyektlari kabi muayyan mol-mulk biriktiriladi. Ushbu mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash, mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan taqqoslash, hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish inventarizatsiya o‘tkazishning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Muassasa rahbari korxona hisobi tashkil qilinishini hamda to‘liq va aniq yuritilishini, moliya-xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish tartibini, hisob-kitoblar o‘z vaqtida amalga oshirilishini, shuningdek, hujjatlarning saqlanishini ta’minlanishi shart. Tashkilotlarning rahbarlari va bosh hisobchilari, hisobchilari o‘z tizimlaridagi tashkilotlarda hisob yuritilishini va moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri tuzilishini muntazam nazorat qilib turadilar. Bosh hisobchi boshchilik qiladigan tashkilot mustaqil tarkibiy bo‘linma hisoblanadi va tashkilotning boshqa biron-bir bo‘linmasi tarkibiga kiritilishi taqiqlanadi. Tashkilot bosh hisobchisi bevosita mazkur tashkilot rahbariga, hisobini yuritish, hisobotlarni tuzish va taqdim qilish masalalari bo‘yicha esa, yuqori tashkilot bosh hisobchisiga bo‘ysunadi hamda tashkilotda hisobning yuritilishiga, moliyaviy

hisobotlarning o‘z vaqtida va to‘liq topshirilishiga hamda normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga javobgar bo‘ladi. Bosh hisobchi xodimlari uchun xizmat vazifalarini har bir xodim uchun alohida belgilaydi. Xizmat vazifalari funksional belgilarga qarab taqsimlanadi. Ya’ni xodimlarning har bir guruhiga yoki alohida bir xodimga ishning hajmiga qarab, ma’lum bir soha biriktiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliya tizimining samarali faoliyat yuritishida davlat budjeti muhim hisoblanib, unga mamlakatimizning yetuk iqtisodchi, nazariyotchi olimlari iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sh. Shodmonov hamda iqtisodiyot fanlari doktori, professor T. Jo‘rayev tomonidan shunday ta’rif berilgan: Davlat pul mablag‘larining asosiy markazlashgan fondi bo‘lmish davlat budjeti moliya tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qiladi. Davlat budjeti – davlat xarajatlari va ularni moliyaviy qoplash mablag‘larining yillik rejasidir, - deb izoh berishgan. Ushbu ta’riflar juda o‘rinli va mazmun jihatdan batafsil bayon qilingan. Shu bilan birga ushbu ta’rifga qo‘shimcha tarzda davlat budjetining maqsadli tarzda shakllantirilishi masalasi ham bayon qilinganda maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Xorijiy davlat olimlaridan esa, professor Anvar Shah davlat budjeti bu hukumat tomonidan belgilangan vaqt davomida daromadlar va xarajatlarni uzluksiz hisobda qayd etib borishdir. Bu belgilangan davr mobaynida davlat tegishli faoliyat turlarini qachon va qanday qilib moliyalashtirish maqsadini anglatadi, - deb ta’rif bergan. Ushbu xorijlik olim tomonidan berilgan ta’rifda davlat budjetining rejalashtirilishi, tasdiqlanishi va ijrosi jarayoni to‘g‘risidagi jihatlari ham e’tiborga olinsa, o‘rinli bo‘lar edi. Chunki, davlat budjeti vakolatli organlar tomonidan ishlab chiqiladi va qonunchilik organi hamda davlat rahbari tomonidan reja shaklida tasdiqlanadi. Tasdiqlangan budjet ijrosi keyin amalga oshiriladi. Ushbu ijro jarayonida mutasaddi idoralar budjetning ijrosi yuzasidan hisobdor sanaladi hamda qonunchilik organi hamda davlat rahbari oldida davriy hisob berib boradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozish davomida inventarizatsiya o‘tkazish jarayonining talablari va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma’lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jarayonga o‘tishdan oldin, keling, inventarizatsiya nima ekanligi, qanday maqsadlarga ega ekanligi va u qanday turlarga bo‘linishini ko‘rib chiqaylik. Inventarizatsiya bu haqiqiy ma’lumotlarni buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan taqqoslash yo‘li orqali ma’lum bir sanada tashkilot mavjud mulki va uning moliyaviy

majburiyatlari holatini tekshirishdir. Bu mulkiy qiymatlar va mablag‘larning saqlanishini aniq nazorat qilishning asosiy usulidir. Tovarlar, jihozlar va do‘konning boshqa moddiy boyliklari ko‘rinishidagi mulkiy qiymatlarning xavfsizligini nazorat qilishning ajoyib usuli hisoblanadi.

Nima uchun inventarizatsiya juda muhim. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, chakana savdoda o‘g‘irlik va tovlamachilik tufayli o‘rtacha yo‘qotish aylanmaning 2% ni tashkil qiladi. Bu unchalik ko‘p emasga o‘xshaydi, lekin hisoblasangiz, raqamlar hayratlanarli bo‘lishi mumkin.

Tasavvur qiling, sizning savdo nuqtangiz oyiga 100 million so‘m tovar aylanmasini amalga oshiradi. Ya’ni har oy o‘rtacha 2 million so‘m yo‘qotasiz, yillik masshtabda hisoblansa, 24 million so‘mga aylanyapti. Bu juda ham sezilarli summa. Bu pulni xodimlaringizga bonuslar, reklama aksiyalari yoki xayriya ishlariga sarflash yaxshiroqdir. Qanchalik kam hisob-kitob qilsangiz, o‘g‘irlik va yo‘qotish darajasi xavf zonasiga kirib borishi va tez sur’atlarda o‘sishi ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi va eng muhimi, uni kuzatib borish siz uchun qiyin bo‘ladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, siz inventarizatsiyani qanchalik kamroq qilsangiz, o‘g‘irlik va yo‘qotishlar shunchalik ko‘p bo‘ladi. Ushbu maqolada biz inventarizatsiya nima ekanligi, uni qanday qilib to‘g‘ri o‘tkazish kerakligi va zamonaviy vositalar ushbu jarayonni optimallashtirishga qanday yordam berishini tushuntirib o‘tamiz va buni ham xodimlar, ham do‘kon egalari uchun osonlashtirmoqchimiz.

Inventarizatsiyaning asosiy maqsadlari:

1. Haqiqiy mavjud tovarlarni hisob tizimi ma’lumotlari yoki boshqa manbalar bilan taqqoslash (Excelda, qog‘ozda — hisobni qo‘lda yuritadiganlar uchun);
2. Do‘kon ichidagi yo‘qotishlar va o‘g‘irliklar foizini nazorat qilish;
3. Regradatsiyani aniqlash;
4. Ortiqcha narsalarni aniqlash;
5. Xodimlar orasida firibgarlik va o‘g‘irlikni aniqlash;
6. Hisobot ma’lumotlari bilan qoldiqlarni aktuallashtirish;
7. Do‘konni kerakli assortiment bilan to‘ldirish.

Inventarizatsiya turlari. Inventarizatsiyaning har xil turlari mavjud bo‘lib, biznesingiz va jarayonlarning miqyosi va o‘ziga xos xususiyatlariga qarab siz o‘zingizga mos keladigan turlarni tanlashingiz va ularni biznesingizda ishlatishingiz mumkin.

To‘liq inventarizatsiya. Bu do‘kondagi mutlaqo barcha tovarlar va boshqa moddiy boyliklarni tekshirishni o‘z ichiga olgan inventarizatsiyadir. Xohishga ko‘ra, bunday usul ko‘p vaqt va resurslarni talab qiladi. Shuning uchun bunday inventarizatsiyani bir-ikki oyda bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Qisman inventarizatsiya. Bu tovarlarning bir qismi tekshiriladigan inventarizatsiyadir. Misol uchun, siz bir yoki ikkita mahsulot turini tekshirishingiz mumkin. Qoidaga ko‘ra, qisman hisoblash qilingan holda, ko‘plab sotuv, hisobdan chiqarish yoki boshqa harakatlar mavjud bo‘lgan mahsulot turlari tanlanadi.

Tanlanma inventarizatsiya. Bu ma’lum bir hisobdor xodimni tekshiradigan turi. Siz unga biriktirilgan do‘konni tekshirishingiz va to‘liq yoki qisman inventarizatsiya qilishingiz mumkin. Odatda, ushbu turdagi hisoblash xodim ishdan bo‘shatilayotganda yoki ushbu moliyaviy javobgar shaxs bilan bog‘liq salbiy signallar yoki pretsedentlar mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi. Doimiy inventarizatsiya. Bu sizning barcha do‘konlaringiz va omborlaringizda bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladigan audit. Qayta inventarizatsiya qilish. Ushbu turdagi hisoblash, agar o‘tkazilgan inventarizatsiya ishonchliligi, obyektivligi va sifatiga shubha tug‘ilsa amalga oshiriladi (Karimova Z., Jamalov X., Islamkulov A., 2012).

Nazorat inventarizatsiyasi. Bu inventarizatsiyaning to‘g‘riligini tekshirish uchun takrorlanadigan inventarizatsiyadir. Bunday inventarizatsiya odatda rahbariyat va moliyaviy javobgar shaxslar ishtirokida amalga oshiriladi. O‘g‘irlik va yo‘qotishlarni minimallashtirish uchun inventarizatsiya jarayonini qanday tashkil qilish kerak. Har bir takroriy amalni yaxshilaydigan inventarizatsiyadagi aniq va soddalashtirilgan jarayonlar rahbar va xodim muammo hamda bosh og‘riqlarini kamaytiradi. Har bir do‘kon yoki tarmoqning o‘z audit qilish va natijalar qayd etish usuli bo‘lishi mumkin. Jamoaning har bir a’zosi do‘konni qachon, kim va qanday tekshirishini bilgani yaxshi.

Ushbu jarayonning amalga oshirilishi psixologik darajaga ham ta’sir qiladi va ichki o‘g‘irlik ehtimolini kamaytiradi. Chunki hisob qilishda ularni aniqlash juda oson va tekshirilishini bilib turib ham xodimlar do‘kondan tovarlarni o‘g‘irlashlari dargumon. Albatta, bu siz yo‘qotishlar va o‘g‘irliklarni nolga tushirasiz degani emas, lekin siz doimiy taxminlar va xodimlar tomonidan o‘g‘irlik bilan bog‘liq bo‘lgan shubhali vaziyatlardan albatta xalos bo‘lishingiz mumkin. Bu esa keraksiz ziddiyatli vaziyatlar xavfini kamaytiradi. Quyida biz inventarizatsiya qilishda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan asosiy elementlarni sanab o‘tamiz.

Inventarizatsiya jarayoni. Har bir do‘kon o‘z audit jarayonini mustaqil ravishda belgilashi mumkin, ammo biz sizga o‘z yo‘nalishingizni yaratishda yordam beradigan asosiy qadamlar ro‘yxatini taqdim etamiz. Rollarni va mas’ul shaxslarni aniqlang. Avvalo, inventarizatsiyani kim o‘tkazishini va ma’lum bir do‘kon yoki omborda kim moddiy javobgar ekanligini aniqlash kerak (Mehmonov S., 2012).

Misol uchun, agar sizda do‘konlar tarmog‘i mavjud bo‘lsa, u holda sizning do‘koningizdagi tovarlarning yaxlitligi va xavfsizligini nazorat qiluvchi moddiy

mas’ul xodim bo‘lishi kerak. Odatda bu do‘kon boshlig‘i yoki sotuvchilar bilan kassirlardir (Mehmonov S., 2012).

Quyidagi misolda ko‘rsatilganidek, har bir do‘kon uchun siz jadval tuzib olib, unda rollarni tavsiflashingiz mumkin:

1. Do‘kon: Demo Store Next.
2. Moliyaviy javobgar shaxs: Shahlo Qambarova.
3. Inventarizatsiyani olib boruvchi xodim: Sa’dullayeva Nargiza.

Ushbu jarayonni tugatgandan so‘ng, keyingi bosqichga o‘tishingiz mumkin.

Inventarizatsiyani necha marta qilish kerak. Inventarizatsiyani qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi. Siz do‘konlardagi o‘g‘irlik va yo‘qotish xavfini kamaytirishingiz mumkin. Boshqacha aytganda, siz inventarizatsiyani qanchalik tez-tez o‘tkazsangiz, yo‘qotish xavfi shunchalik kam bo‘ladi (Karimova Z., Jamalov X., Islamkulov A., 2012).

Albatta, do‘kon mollarini to‘liq inventarizatsiya qilishning har doim ham imkoni bo‘lmaydi. Bunday hollarda, qisman inventarizatsiya qilish yaxshiroqdir, ya’ni, siz tez sotiladigan mahsulotlar va toifalarni tanlaysiz va aynan ularni tekshirasiz. Qisman inventarizatsiya kategoriya, javon yoki brend bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, bu sizdan ko‘p vaqt talab qilmaydi va uni har hafta bir soatdan o‘tkazishingiz mumkin. Eng muhimi, aynan bugun qaysi tovarlarni tekshirishingiz haqida xodimlarga oldindan xabar bermaslikdir.

Qisman inventarizatsiyani haftada bir marta, to‘liq inventarizatsiyani esa oyda kamida bir yoki ikki marta amalga oshirish tavsiya etiladi.

Bosqichma-bosqich inventarizatsiya jarayonini yarating. Birinchi bosqich – tayyorgarlik. U quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

1. Inventarizatsiya o‘tkazish sanasini aniqlash;
2. Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asbob-uskunalar yoki boshqa vositalar mavjudligini tekshirish;
3. Inventarizatsiyani o‘tkazadigan xodimlarni aniqlash;
4. Vitrinalar va omborlardagi tovarlarni inventarizatsiya jarayoniga tayyorlash.

Ikkinchi bosqich — hisobot ma’lumotlari bilan do‘kon yoki ombordagi tovarlarning haqiqiy mavjudligini tekshirish. Ushbu bosqichda, tovarlarni hisoblash ishi olib boriladi. Agar siz hech qanday hisoblash tizimidan foydalanmasangiz, unda siz barcha hisob-kitoblarni tekshiring va qog‘ozga qayd qiling, agar siz tizimdan foydalansangiz, unda siz shunchaki tovarlarni skanerlaysiz va tizim siz uchun natijalarni hisoblab chiqadi.

Uchinchi bosqich — do‘kon yoki ombordagi barcha tovarlarni tekshirgandan so‘ng, siz hisob-kitoblarni amalga oshirishingiz va tanqislik va hisoblashni qayta tekshirishingiz kerak. Ushbu bosqichda, hisob-kitoblardan so‘ng, aynan noto‘g‘ri

chiqqan tovarlarni aniq tekshirish muhimdir. Bundan tashqari, inventarizatsiya paytida siz teglar yoki narx belgilari bo‘lmagan tovarlarni topishingiz mumkin, ular ham ushbu bosqichda bartaraf etilishi lozim (Karimova Z., Jamalov X., Islamkulov A., 2012).

Yakuniy bosqich — inventarizatsiya natijalarini ro‘yxatdan o‘tkazish. Ushbu bosqichda barcha tekshiruvlardan so‘ng inventarizatsiya natijalari qayd etiladi va bu natijalar umumlashtiriladi. Agar sizda yetishmovchilik va yo‘qotishlar aniqlangan bo‘lsa, ular uchun kim va qanday javob berishini aniqlashingiz kerak. Siz do‘kon siyosatiga qarab xodimlarni jarimaga tortishingiz yoki boshqa sanksiyalarni qo‘llashingiz mumkin. Endi siz inventarizatsiya qilishga tayyor ekanligingizda, keling, ushbu tartibni siz uchun osonlashtiradigan usullarni ko‘rib chiqamiz.

Inventarizatsiyani o‘tkazish usullari. Barcha chakana sotuvchilar kamida bir marta o‘zlariga “Qanday qilib inventarizatsiyani tezroq qilish mumkin?” degan savolni berishgan. Darhol javob beradigan bo‘lsak, agar siz aniq va tez inventarizatsiya qilishni istasangiz, tovarlarni hisobga olish tizimisiz buning iloji yo‘q. Albatta, siz hisob-kitoblarni qo‘lda daftarlarda yoki Excelda qilishingiz mumkin, lekin har safar xato qilish xavfi mavjud va bunday xatolar qanchalik ko‘p bo‘lsa, biznes sifatida shunchalik ko‘p pul yo‘qotasiz. Shuning uchun, agar siz ushbu bosh og‘rig‘idan xalos bo‘lishni istasangiz, sizga albatta buxgalteriya (hisob) tizimi kerak bo‘ladi. Quyida biz hisoblashning bir necha usullarini ko‘rib chiqamiz va ijobiy va salbiy tomonlarini taqqoslaymiz. Qo‘lda inventarizatsiya qilish. Eng keng tarqalgan usullardan biri. Biroq, bu juda ko‘p vaqt, kuch va do‘konni ma’lum muddatga yopishni talab qiladi. Bu, o‘z navbatida, potensial foydaning yo‘qolishiga olib keladi. Masalan, do‘konning bir kunlik o‘rtacha daromadi 5 million so‘m bo‘lsa, do‘konni inventarizatsiya qilish uchun 2 kunga yopish orqali siz shu vaqt ichida 10 million so‘m yo‘qotishingiz mumkin. O‘z kunlik daromadingizni qo‘yib ko‘rib, siz potensial yo‘qotishingiz mumkin bo‘lgan miqdorni hisoblashingiz mumkin.

Bundan tashqari, bu yondashuv xodimlarga juda ko‘p noqulayliklar keltiradi, chunki tovarlar harakati tarixini tiklash uchun siz daftar va Excel faylini ko‘rib chiqishingiz kerak. Bu, o‘z navbatida, ko‘p vaqt va kuch talab etadi.

BILLZ bilan inventarizatsiya. BILLZdagi inventarizatsiya funksiyalari 100 dan ortiq do‘konlarda sinovdan o‘tgan va inventarizatsiya tezligi, aniqligi va samaradorligi muammosini hal qiladigan tarzda ishlab chiqilgan.

Tizim qisman va to‘liq inventarizatsiyani o‘z ichiga oladi, shuningdek, Internet bilan ham, Internetsiz ham ishlaydi. Yana bir katta afzallik shundaki, siz inventarizatsiya qilish uchun do‘konni yopishingiz shart emas, chunki barcha sotuvlar avtomatik ravishda hisobga olinadi. Bundan tashqari, siz kun bo‘yi o‘tkazgan odatiy inventarizatsiyani 2 soat ichida qilishingiz mumkin.

BILLZ inventarizatsiyasining afzalliklari. Quyida biz BILLZ bilan inventarizatsiyaning asosiy afzalliklarini ko‘rib chiqamiz:

1. Inventarizatsiya internet bilan ham, internetsiz ham amalga oshirilishi mumkin. Omborlar ko‘pincha aloqa yaxshi bo‘lmagan joylarda joylashgan bo‘ladi. Bunday hollarda inventarizatsiyani offlayn rejimda o‘tkazish juda qulay;

2. Do‘konni yopish va daromadni yo‘qotish kerak emas. Bu juda katta plyus, chunki inventarizatsiya paytida do‘konni yopish orqali siz mijozlar va pullarni yo‘qotasiz;

3. Masofaviy boshqarish. Inventarizatsiyani masofadan boshqarish mumkin. Ya’ni do‘kondan uzoqda bo‘lganingizda, siz har doim ish qanday ketayotganini ko‘rishingiz va natijalarini tekshirishingiz mumkin;

4. Tezlik. Bu inventarizatsiya kabi biznes jarayoni uchun juda muhim ko‘rsatkichdir. Qo‘lda inventarizatsiya qilish bir necha kun davom etishi mumkin bo‘lgan bir paytda, siz 2-3 soat ichida tovarlarni to‘liq inventarizatsiya qilish imkoniyatiga egasiz. Bularning barchasi tovarlarni tezkor skanerlash sabablidir;

5. Bir vaqtning o‘zida bir nechta qurilmalarni ulash imkoniyati. Tizim bir vaqtning o‘zida bir nechta kompyuterlarga ulanish imkonini beradi, bu ham jarayonni tezlashtirishga yordam beradi. Misol uchun, siz tovarlarni shartli guruhlarga bo‘lishingiz va guruhlarga mas’ul shaxs tayinlab, ishni taqsimlashingiz va jarayonni tezlashtirishingiz mumkin;

6. Inventarizatsiya hisoboti. Deyarli har qanday inventarizatsiyadan so‘ng, qayta saralash va yetishmovchiliklar aniqlanadi. Bunda sizga amaliyotlar tarixi kerak bo‘ladi. Inventarizatsiya bo‘yicha tovarlar tarixini ko‘rish funksiyasi sizga tugmani bir necha marta bosish orqali butun tarixni tiklashga va moliyaviy javobgar shaxslarga nisbatan yakuniy qaror qabul qilish uchun, hamda tovarlar bilan nima sodir bo‘lganligini ko‘rishga yordam beradi;

7. Barcha inventarizatsiyalarning tarixi. BILLZning yana bir katta afzalligi shundaki, butun inventarizatsiya tarixi tizimda saqlanadi va siz istalgan vaqtda kim nimani skaner qilganini, qaysi kuni qanday ma’lumotlarni olganingizni ko‘rishingiz mumkin. Bu bir necha oy oldingi ma’lumotlarni ko‘rib chiqish va tekshirish kerak bo‘lganda yordam beradi (Karimova Z., Jamalov X., Islamkulov A., 2012).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, inventarizatsiya bu o‘g‘irlik va yo‘qotishlarni kamaytirish, shuningdek, do‘konda samarali assortimentni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri, shuning uchun unga alohida e’tibor berish kerak. Buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga nisbatan inventarizatsiya va boshqa tekshiruvlarda aniqlangan haqiqiy qiymatlar o‘rtasidagi farqlar quyidagi tartibda tartibga solinadi. Ortiqcha asosiy vositalar, moddiy boyliklar, pul mablag‘lari va boshqa aktivlar xorijdan olib

kelinadi va xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalariga o‘tkaziladi (byudjet tashkilotlarida moliyalashtirishni ko‘paytirish uchun), so‘ngra ortiqchalik sabablari va aybdor shaxslar aniqlanadi. Belgilangan normalar doirasida qiymatlarni pasaytirish xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbarining buyrug‘i bilan xo‘jalik yurituvchi subyektning tegishli xarajatlariga qo‘shiladi (byudjet tashkilotlarida moliyalashtirishni ko‘paytirish uchun). Kamaytirish mezonlari faqat kamomad haqiqatda aniqlangan hollarda saqlanishi mumkin. Belgilangan mezonlar doirasida qiymatni pasaytirish turlarning aralashmasidan kelib chiqadigan kamchiliklarni ortiqchalik bilan qoplagandan keyingina aniqlanadi. Belgilangan tartibda turlar almashinuvi amalga oshirilgandan keyin ham qiymatlar taqchilligi yuzaga kelsa, tabiiy pasayish normalari faqat defitsit aniqlangan qiymat nomiga nisbatan qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘RQ-360-son. 26.12.2013. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y. №52-I-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining 19-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 19 oktyabrdagi EG/17-19-2075-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2 noyabrda 833-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan).

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2006 yil 15 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (4-sonli BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralar»ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 52-sonli buyrug‘i.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010 yil 17 dekabrdagi 105-sonli buyrug‘iga asosan «Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma».

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 9 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) «Asosiy vositalar»ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 114-sonli buyrug‘i.

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004 yil 10 martdagi 37-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining 2004 yil 10 martdagi 2004- 26-sonli, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 20/1-sonli qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to‘g‘risida nizom».

7. Ostonaqulov M. (2011) Byudjet tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi».

8. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari” / Tarjimonlar: Rizaqulov A., Xasanov B., Usanov A., Mamatov Z. – Toshkent, 2004.

9. Karimova Z., Jamalov X., Islamkulov A. (2012) Byudjet tizimi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Voris nashriyot”.

10. Mehmonov S. (2012) Byudjet hisobi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”. – 352 b.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘RQ-360-son. 26.12.2013. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y. №52-I-son. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasining 19-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 19 oktyabrdagi EG/17-19-2075-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2 noyabrda 833-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan). (In Uzbek)

3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2006 yil 15 iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (4-sonli BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralar»ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 52-sonli buyrug‘i. (In Uzbek)

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2010 yil 17 dekabrdagi 105-sonli buyrug‘iga asosan «Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma». (In Uzbek)

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 9 oktyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) «Asosiy vositalar»ni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 114-sonli buyrug‘i. (In Uzbek)

6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004 yil 10 martdagi 37-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasining 2004 yil 10 martdagi 2004- 26-sonli, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining 20/1-sonli qo‘shma qarori bilan tasdiqlangan «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish tartibi to‘g‘risida nizom». (In Uzbek)

7. Ostonaqulov M. (2011) Byudjet tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. – Toshkent: «Yangi asr avlodi». (In Uzbek)

8. “Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari” / Tarjimonlar: Rizaqulov A., Xasanov B., Usanov A., Mamatov Z. – Toshkent, 2004. (In Uzbek)

9. Karimova Z., Jamalov X., Islamkulov A. (2012) Byudjet tizimi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Voris nashriyot”. (In Uzbek)

10. Mehmonov S. (2012) Byudjet hisobi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”. – 352 b. (In Uzbek)

IQTISODIYOT TARMOQLARIGA JALB ETILGAN INVESTITSIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

MECHANISMS FOR INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF INVESTMENTS ATTRACTED TO SECTORS OF THE ECONOMY

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ, ПРИВЛЕКАЕМЫХ В ОТРАСЛИ ЭКОНОМИКИ

Aqmirzayeva Feruza Aqmirza qizi
Oriental universitetining Iqtisodiyot mutaxassisligi magistranti
Tel.: +998 99 974-18-18
e-mail: aqmizaevaferuza@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada hududiy investitsion siyosat strategik maqsadlarini to‘g‘ri belgilash, ushbu maqsadni samarali realizatsiya qilishga yo‘naltirilgan vazifalar algoritmini ishlab chiqish hamda optimal investitsion menejment tizimini shakllantirish hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni to‘g‘ri tashkil qilishning bosh omili hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, boshqarish samaradorligining asosiy determinantlari investitsiyalarning turli mezonlari bo‘yicha samaradorligi orqali baholanadi. Investitsiyalar samaradorligi ma’lum loyihalarni realizatsiya qilish orqali olinadigan aniq qiymat ekvivalentlari yoki jamiyat ko‘rishi mumkin bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy naflilik bilan belgilanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlariga kiritilgan investitsiyalar tahlil etilgan, respublikaning investitsion salohiyatiga ta’sir etuvchi asosiy omillari o‘rganilgan, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion jozibadorligi va salohiyatini oshirish imkoniyatlari yuzasidan asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *investitsiya, real investitsiya, moliyaviy investitsiya, ichki va tashqi investitsiya, bevosita xorijiy investitsiyalar, investitsion salohiyat, investitsion jozibadorlik, investitsiyalar samaradorligi.*

Annotation. The article shows that the correct definition of the strategic goals of the regional investment policy, the development of an algorithm of tasks aimed at the effective implementation of this goal, and the formation of an optimal investment management system are the main factors for the correct organization of regional socio-economic development. It is worth noting that the main determinants of management effectiveness are assessed through the effectiveness of investments according to various criteria. The effectiveness of investments can be determined by the specific value equivalents obtained through the implementation of certain projects or by the socio-economic benefits that society can see. Investments in the economic sectors of

the Republic of Uzbekistan are analyzed, the main factors affecting the investment potential of the republic are studied, and conclusions and recommendations are developed based on the possibilities of increasing the investment attractiveness and potential of economic sectors.

Keywords: *investment, real investment, financial investment, domestic and foreign investment, foreign direct investment, investment potential, investment attractiveness, investment efficiency.*

Аннотация. В статье утверждается, что правильное определение стратегических целей региональной инвестиционной политики, разработка алгоритма задач, направленных на эффективную реализацию этой цели, и формирование оптимальной системы управления инвестициями являются основными факторами правильной организации регионального социально-экономического развития. Стоит отметить, что основные показатели эффективности управления оцениваются через эффективность инвестиций по различным критериям. Эффективность инвестиций может определяться конкретными стоимостными эквивалентами, полученными в результате реализации тех или иных проектов, или социально-экономическими выгодами, которые получает общество. Проведен анализ инвестиций в секторах экономики Республики Узбекистан, изучены основные факторы, влияющие на инвестиционный потенциал республики, разработаны выводы и рекомендации, основанные на возможностях повышения инвестиционной привлекательности и потенциала секторов экономики.

Ключевые слова: *инвестиции, реальные инвестиции, финансовые инвестиции, внутренние и иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, инвестиционный потенциал, инвестиционная привлекательность, эффективность инвестиций.*

KIRISH

O‘zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog‘liqligini bugungi kunda deyarli har bir mutaxassis va xo‘jalik yurituvchi subyekt anglab etganligini nazarda tutsak, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarini kengroq jalb etish mamlakatimizda o‘tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning samarali ijrosini ta’minlashning muhim asosiga aylangan. Mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma’lumki, har qanday davlat jahon tajribalarini o‘rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. Investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirish ancha

murakkab jarayon hisoblanadi. Xalqaro va milliy darajada investitsiyalarni jalb qilish va moliyalashtirishda yetarli tajribalar mavjud. Investitsiyani moliyalashtirish asosan, mamlakatdagi iqtisodiy siyosat, qonunchilik, investitsiyani jalb qilish infratuzilmasi rivoji, darajasi va mamlakatning iqtisodiy ahvoliga bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatimizda sifatli xom-ashyoning boy resurslari mavjudligi, iqtisodiyotimiz uchun investitsiyalarni jalb qilishning o‘ta zarurligi va shu bilan birga, xom-ashyo resurslar bazasidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga e’tibor qaratishimiz zarurligi yaqqol namoyon bo‘lib turibdi.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida jahonda investitsiyalar uchun qat’iy raqobatli kurash izchil davom etmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta’minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o‘tkazish, mablag‘larni mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog‘liq yo‘nalishlarda mujassam qilish respublikada o‘tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin emas. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyatlar va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyalarni, eksportbop tovarlarni o‘zlashtirishga, ularni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Investitsion jozibadorlikni oshirish borasida iqtisodchi olimlar quyidagi fikrlarni keltirganlar. Xususan, D. Ednovitskiy, V. Babushkin, N. Baturinalar investitsion jozibadorlikni investitsion tavakkalchilik bilan bog‘laydilar. Ular investitsion jozibadorlik deganda tashkilotning shunday holatini tushunadiki, bunda kapital egasida tavakkalchilikka borish, shuningdek, pul ko‘rinishida va asosiy vositalar shaklidagi investitsiyalar oqimini ta’minlash istagi paydo bo‘ladi. Bu vaziyatda kapital ta’minlovchi va ma’lumot oluvchilarning ishonchi tashkilotning investitsion jozibadorlik darajasining asosiy va juda sezuvchan hosilasi hisoblanadi (Ендиновицкий Д., Бабушкин В., Батурина Н., 2010).

Biroq mamlakatimizda investitsiyalarni jalb qilish va boshqarish usullarini takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, ularni moliyalashtirish manbalarini

optimallashtirish kabi hali o‘z yechimini to‘liq topmagan muammolar mavjud.

Ushbu muammolarni hal etishda quyidagi takliflarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning investitsion jozibadorligini oshirishda investitsiya fondlarini rivojlantirish va yangilarini yaratish;

– barcha turdagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan ixtisoslashgan fondlarni shakllantirish;

– tijorat banklari tomonidan subyektlarning boshlang‘ich kapitalini shakllantirish va ularning investitsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida uzoq muddatli kreditlar hajmini oshirish orqali mamlakatimizdagi investitsiyani boshqarish muammolarini hal qilishga erishish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma’lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Strategik maqsadlarni shakllantirish strategik imkoniyatlar tahlili, investitsion faoliyatning strategik yo‘nalishlari va shakllarini tanlash, shuningdek investitsion resurslar shakllanishining strategik yo‘nalishlarini aniqlash korxona investitsion strategiyasini ishlab chiqishda muhim bosqichlar hisoblanadi. Ularning mohiyati va tuzilishini quyida ko‘rib chiqamiz.


Investitsion siyosat investitsion faoliyatning eng muhim yo‘nalishlari kesimida uni amalga oshirishning alohida bosqichlarida korxona investitsion strategiyasini amalga oshirish shaklini o‘zida aks ettiradi. Investitsion siyosatning investitsion strategiyadan farqi bosh strategik maqsadlarga erishish uchun samarali boshqaruvni ta’minlashni talab qiluvchi aniq faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha shakllanadi. Odatda bu strategiya bozor konyunkturasining nisbatan kuchsiz tebranishi va raqobat pozitsiyasining barqarorligi sharoitida tanlanib, investitsion strategiya birinchi navbatda mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmining cheklangan o‘sishini ta’minlovchi takror ishlab chiqarish jarayoni va aktivlar o‘sishini samarali ta’minlashga yo‘naltirilgandir. Investitsion faoliyatning strategik o‘zgarishlari mazkur bazaviy strategiya bo‘yicha minimal darajada aks etadi.

Jadallashgan o‘sish strategiyasi korxona tomonidan o‘z hayotiy siklining dastlabki bosqichlarida yuqori sur’atlarda taraqqiy etayotgan sohalarda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarining yuqori darajada qo‘llanilishini ko‘rsatib beradi. Bunday bazaviy strategiya asosidagi investitsion strategiya investitsion faoliyatni rivojlantirishning yuqori sur’atlarini ta’minlashning zarurligini hisobga olgan holda,

shuningdek investitsion faoliyatning turli shakllari, yo‘nalishlari, hududlar va tarmoqlar (sohalar) bo‘yicha diversifikatsiyalash birmuncha murakkablik kasb etadi.

Qisqartirish (siqish) strategiyasiga korxonaning hayotiy sikli so‘nggi bosqichlarida, shuningdek iqtisodiy rivojlanishning moliyaviy inqiroz fazasida e’tibor ko‘proq qaratiladi. O‘z mohiyati bo‘yicha bu strategiya ortiqcha faoliyatlardan voz kechishni anglatadi. U chiqarilayotgan mahsulot hajmi va assortimentini qisqartish, bozorning alohida segmentidan chiqish va boshqalarni nazarda tutadi. Bunday sharoitda investitsion strategiya bo‘shayotgan kapital uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi investitsiyalash obyektlarida foydalanish asosida yuqori aylanuvchanlikni ta’minlashi lozim. Birlashtirish (kombinatsiyalash) strategiyasidan yirik korxonalarning investitsion faoliyatni tarmoq va hududlar bo‘yicha keng diversifikatsiyalashida foydalaniladi. U turli tipdagi xo‘jalik yuritishning strategik zonalari yoki strategik xo‘jalik markazlari alohida strategiyalarini o‘zida birlashtiradi. Jahon investitsiya bozorida suzib yuruvchi xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda quyidagi uch tartibli rag‘batlantiruvchi chorasi qo‘l keladi. Ammo ko‘pgina holatlarda investitsiyani qabul qiluvchi mamlakatning soliq tizimiga ham bog‘liq.

Hozirgi vaqtga kelib rag‘batlantirish omillari qatoriga investorlar ham kiritilgan. Ushbu dasturning asosiy foydalanuvchi mamlakatlar ishlab chiqarishga subsidiyalar maqsadi, investor faoliyati davomida ko‘rgan subsidiya ajratish, moliyaviy ko‘maklashish hamda mehnat daromadini yana qayta aynan shu davlatga ajratib, bozorini shakllantirib, mahsulot yetkazib berishdan iborat investitsiyalashga qaratilgan. Buning uchun qabul tarmoqlarini rivojlantirishga qaratadi.




1-rasm. Xorijiy sarmoyani jalb qilishning rag‘batlantiruvchi omillari tasnifi (Urinbayev R., 2022)

“O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati oldiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonida “Iqtisodiyot tarmoqlari va aholiga neft-gaz mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berilishini ta’minlash hamda neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali tabiiy gaz

ta’minotida ijtimoiy himoya kafolatlari belgilangan holda bozor mexanizmlarini joriy etish kabi bir qator vazifalar qo‘yilgan”.

Investitsiya jozibadorligi mamlakat investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasining bir vaqtda ta’sir etishi orqali aniqlanadi. Bu kabi ko‘rsatgichlar esa investitsiyalarning maqsadga muvofiqligi hamda jozibadorligini aniqlashga yordam beradi. Investitsiya riski darajasi investitsiya muhitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Investitsiya muhiti makroiqtisodiyot darajasida, ya’ni investor va aniq davlat organlari, xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi munosabatlarda o‘z aksini topadi. Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv holat bo‘lib, kapital qo‘yish uchun mavjud sharoitlarning majmuasini o‘zida qamrab oladi. Lekin investitsiya muhiti davlat organlarining boshqarish faoliyati ta’sirida shakllanadi. Shuning uchun davlatning investitsiya siyosati eng muhim omillardandir. Shu ma’noda har bir davlat kapital import qilishda o‘zining aniq kapital qabul qilish tizimiga ega bo‘ladi.




2-rasm. Mamlakat investitsiya muhitiga ta’sir etuvchi omillar (Ergasheva Sh., Uzoqov A., 2008)

Investitsiya muhiti darajasi qanchalik yomon bo‘lsa, investor o‘z riskini shunchalik yuqori belgilaydi. Investitsiya muhitini makroiqtisodiy darajada quyidagi rasm ko‘rinishida tasvirlash mumkin.

Yuqoridagi 2-rasmda ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekistonda investitsion jozibadorlikni belgilovchi kengaytirilgan uchta eng yirik segmentlar mavjud bo‘lib, ular siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tarmoqlar tarkibidagi ta’sir etish kuchiga ega turli xil omillar sanaladi. O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb etishni

faollashtirishga katta e’tibor qaratilib, investorlarga ko‘maklashish va kafolatlar berish uchun ularga investitsiya, soliq tizimida va bojxona to‘lovlari sohalarida ma’lum imtiyozlar, sharoitlar va kafolatlar tizimi yaratildi. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibasini baholashda ko‘pchilik xorijiy investorlar ham “BERI” (Business Environment Risk Index) indeksidan foydalanadilar. Bu indeks asosiy 15 ko‘rsatkichda aniqlanadi, 0 dan 4 ballgacha. Indeksning optimal jihatlari shundaki, u bilan hududlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy strukturani qay tarzda ishlayotganini bilish mumkin bo‘ladi. Quyidagi 3-rasmda baholash mezonlari ularning investitsiya qarorlarini qabul qilish bo‘yicha ahamiyatidan kelib chiqib aks ettirilgan.



3-rasm. Xorijiy investitsiyalar uchun hudud jozibadorligini baholashning “BERI” indeksi (Ochilov B., 2023: 75)

Yuqorida keltirilgan infografik shakldagi rasmda “BERI” (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida ma’lumot) indeksi mamlakat investitsiya muhitini turli hajmga ega bo‘lgan 15 ta baholash mezonlariga asoslangani berilgan bo‘lib, har bir mezonga 0 dan (to‘g‘ri kelmaydi) 4 gacha (o‘ta qulay) baho beriladi. To‘plangan ballarning yuqori bo‘lishi barqaror mamlakatni anglatadi. Mamlakat to‘plagan ball qanchalik past bo‘lsa, investitsiyalashdan olinishi mo‘ljallangan foyda yuqori bo‘lishi zarur, aks holda investitsiyalash samara keltirmaydi. Shu o‘rinda, «BERI» indeksiga kirgan

ko‘rsatgichlar orasida siyosiy barqarorlik (0,12 foiz) eng katta ahamiyatga ega hisoblanadi (Ochilov B., 2023: 75-80).

Kombinatsiyalash prinsipi. Bu prinsip investitsion faoliyatni istiqbolli (strategik), joriy va operativ boshqarishning o‘zaro birlashishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqilgan korxona investitsion strategiyasida investitsion faoliyatni strategik boshqarish jarayoniga muhimligi bo‘yicha faqat birinchi bosqichda ko‘rib chiqiladi. Bunday strategiya korxona investitsion portfelini shakllantirish investitsion faoliyatni taktik (joriy) boshqarish asosida yotadi. O‘z navbatida taktik boshqaruv alohida real investitsion loyihalarni amalga oshirish va moliyaviy instrumentlar portfelini qayta tarkiblash yo‘lida investitsion faoliyatni operativ boshqarishning bazasi hisoblanadi.

Investitsion portfelni shakllantirish o‘rta muddatli boshqaruv jarayoni bo‘lib, strategik qarorlar va korxonaning joriy investitsion imkoniyatlari doirasida amalga oshiriladi. Investitsion moslashuvchanlik va muqobillik prinsipi. Investitsion strategiya tashqi investitsion muhit omillarining o‘zgarishiga moslashuvchanlikni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari strategik investitsion qarorlar asosida investitsion faoliyatni amalga oshirishning yo‘nalishlari, shakllari va metodlarining mumkin bo‘lgan (muqobil) variantlarini doimiy qidirish, ulardan eng yaxshisini tanlash va shu asosda umumiy investitsion strategiyani qurish hamda uni samarali amalga oshirish mexanizmini shakllantirish yotishi kerak.

Innovatsion faoliyat. Investitsion strategiyani shakllantirishda investitsion faoliyat korxonaning bozordagi raqobat pozitsiyasini oshirishni ta’minlovchi texnologik yangiliklarni joriy etish bosh mexanizm sifatida qaraladi. Nafaqat investitsion strategiyani, shu bilan birga korxonaning strategik rivojlanish umumiy maqsadlarini amalga oshirish ilmiy-texnik taraqqiyotning so‘nggi natijalaridan va ularni zudlik bilan foydalanishga moslashtirish yuqori darajada bog‘liqlik kasb etadi. Mazkur prinsip aynan yuqoridagilar bilan izohlanadi.

Investitsion risklarni minimallashtirish prinsipi. Amaliy jihatdan korxonada investitsion strategiyani shakllantirish jarayonida qabul qilingan barcha investitsion qarorlar investitsion risklarga duch keladi. Har bir korxonada investitsion strategiyani ishlab chiqish jarayonida riskka munosabat bo‘yicha turli investitsion xatti-harakatlar bilan bog‘liqlikda ularga yo‘l qo‘yishning mumkin bo‘lgan darajasi tabaqalashtirilgan holda o‘rnatilishi lozim (Mamatov B., Xojamkulov D., Nurbekov O., 2014).

Asoslanganlik prinsipi. Investitsion strategiyalarning alohida parametrlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni nafaqat bilim, shu bilan birga malaka va boshqaruv tajribasiga, shuningdek investitsion madaniyatga ega, professional mutaxassislar – moliyaviy menejerlar ta’minlashi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, iqtisodiyot tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kelgusida takomillashtirish yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishishga, yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqarilishiga va eng muhimi mamlakatimiz mintaqalarida yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, shu orqali aholi turmush tarzining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish asosida ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Hukumat kafolati asosidagi xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi chet ellik investorlarda mamlakatimiz iqtisodiyotiga qiziqish uyg‘otadi.

Ikkinchidan, import o‘rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotni ustuvor sohalariga yo‘naltirish, pirovardida, aholining me’yordagi turmush darajasini ta’minlashga imkon yaratadi.

Uchinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o‘sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta’minlaydi (Mamatov B., Xojamkulov D., Nurbekov O., 2014).

To‘rtinchidan, yutuqlar bilan birga bu borada to‘siq va kamchiliklar mavjud. Mamlakatni investitsiya iqlimi holatini belgilaydigan asosiy ko‘rsatkich bo‘lgan, bevosita xorijiy investitsiyalar oqimining yetarli darajada ko‘paymaganligini ko‘rsatish mumkin. Shu nuqtai nazardan ham xorijiy investitsiyali korxonalar faoliyatini jonlantirish va bevosita xorijiy investitsiyalar oqimini oshirish maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish kerak:

- Mamlakat investitsiya iqlimini yaxshilash va yechimini topish maqsadida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mutaxassislari, hududiy hokimliklarning mutaxassis vakillari, investitsiya imkoniyatiga ega bo‘lgan yirik kompaniya va korxonalar rahbarlari hamda respublikaning investitsiyalar sohasidagi yetuk olimlari ishtirokida, keng jamoatchilik o‘rtasida ochiq muloqot tashkil qilinib, mavjud muammolar oshkoralik bilan har tomonlama muhokama etilishi lozim. Shu asosda masalaga keng jamoatchilik fikrini jalb qilgan holda, mutaxassislar, olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida ilmiy va iqtisodiy asoslangan yagona investitsiya siyosatini, shuningdek, qabul qilingan qonun va qarorlarni amalda ishlash mexanizmini ishlab chiqish va hayotiyligini ta’minlash lozim;

- Investitsiyalar oqimiga (nafaqat xorijiy, balki ko‘p tomonlama ichki investitsiyalar taalluqli) ta’sir qiluvchi omillardan biri sifatida marketing tadqiqotining zaif olib borilayotgani, natijada ko‘plab ishlab chiqarilgan mahsulotlar omborlarda qoldiq bo‘lib qolayotganligi ko‘rsatilmoqda. Bu muammo faqat investitsiyalarning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, yechim izlamasdan, aholi va korxonalarning iste’mol qobiliyatini

ko‘tarish, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarga nisbatan sog‘lom talab darajasini oshirish nuqtai nazaridan qaralishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5233-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.08.2021-yil, 07/21/5233/0822-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020-yil, 06/20/6042/1190-son.

3. Imomov X. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”.

4. Капитенко В. (2007) Инвестиции и хеджирование: Учебно-практическое пособие для вузов. – Москва: «Издателство ПРИОР».

5. Колтынюк Б. (2000) Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среди: Учебник. – СПБ: “Михайлова В.А.”.

6. Mahmudov N., Madjidov Sh. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU.

7. Mamatov B., Xojamkulov D., Nurbekov O. (2014) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”.

8. Nosirov E., Asomxodjayeva Sh., Aliqulov M. (2020) Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. 1-qism. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”.

9. Ендиновицкий Д., Бабушкин В., Батурина Н. (2010) Анализ инвестиционной привлекательности организации: научное издание. – Москва: КНОРУС. – 376 с.

10. Urinbayev R. Sanoat kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish // Moliya va Bank ishi Jurnali 3, (2022), 34-41.

11. Ergasheva Sh., Uzoqov A. (2008) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya.

12. Ochilov B. (2023). Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsion jozibadorlikni yaxshilash masalalari // Iqtisodiyot va ta’lim, 24(1), 75–81. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a10

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5233-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.08.2021-yil, 07/21/5233/0822-son. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020-yil, 06/20/6042/1190-son. (In Uzbek)

3. Imomov X. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. (In Uzbek)

4. Капитенко В. (2007) Инвестиции и хеджирование: Учебно-практическое пособие для вузов. – Москва: «Издателство ПРИОР». (In Russian)

5. Колтынюк Б. (2000) Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среди: Учебник. – СПБ: “Михайлова В.А.” (In Russian)

6. Mahmudov N., Madjidov Sh. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU. (In Uzbek)

7. Mamatov B., Xojamkulov D., Nurbekov O. (2014) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”. (In Uzbek)

8. Nosirov E., Asomxodjayeva Sh., Aliqulov M. (2020) Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. 1-qism. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya”. (In Uzbek)

9. Ендиновицкий Д., Бабушкин В., Батурина Н. (2010) Анализ инвестиционной привлекательности организации: научное издание. – Москва: КНОРУС. – 376 с. (In Russian)

10. Urinbayev R. Sanoat kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini boshqarish // Moliya va Bank ishi Jurnali 3, (2022), 34-41. (In Uzbek)

11. Ergasheva Sh., Uzoqov A. (2008) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. (In Uzbek)

12. Ochilov B. (2023). Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsion jozibadorlikni yaxshilash masalalari // Iqtisodiyot va ta’lim, 24(1), 75–81. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a10 (In Uzbek)

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

WAYS TO IMPROVE THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF JOINT-STOCK COMPANIES

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ

Norqobilova Nargiza Abduqodirovna
TDIU, Korporativ moliya va qimmatli qog’ozlar bozori mutaxassisligi magistranti
Tel.: + 998 99 481-60-77
e-mail: abdukodirova.nargiza@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo‘llarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari investitsiyalarni jalb qilishda ko‘plab muammolarga duch kelmoqda. Ushbu mavzu doirasida aksiyadorlik jamiyatlarining jozibadorligini oshirish uchun korporativ boshqaruvni yaxshilash, moliyaviy ko‘rsatkichlarni mustahkamlash, ochiqlik va shaffoflikni oshirish, yuqori malakali boshqaruv kadrlarini jalb qilish, shuningdek, kompaniya strategiyasini uzoq muddatli rivojlanish va barqarorlikka qaratish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Mazkur ish aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish bo‘yicha tahliliy ko‘rsatmalar beradi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari uchun zamonaviy investitsiya boshqaruvi va jozibadorlikni oshirish strategiyalari keltirib o‘tiladi, bu esa kompaniyalarning o‘sishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Aksiyadorlik jamiyati, bozor iqtisodiyoti, investitsion jozibadorlik, investitsiya, dividend, aksiyadorlik jamiyati, investitsiya, investor, rentabellik, biznes.*

Annotation. This article is devoted to the study of ways to increase the investment attractiveness of joint-stock companies. In today’s global economy, joint-stock companies face many problems in attracting investments. Within the framework of this topic, it is emphasized that in order to increase the attractiveness of joint-stock companies, factors such as improving corporate governance, strengthening financial indicators, increasing openness and transparency, attracting highly qualified management personnel, as well as focusing the company’s strategy on long-term development and stability are of great importance. This work provides analytical guidelines for increasing the effectiveness of measures aimed at increasing the investment attractiveness of joint-stock companies. At the same time, modern

investment management and attractiveness strategies for joint-stock companies are presented, which will serve the growth and development of companies.

Keywords: *Joint-stock company, market economy, investment attractiveness, investment, dividend, joint-stock company, investment, investor, profitability, business.*

Аннотация. Данная статья посвящена изучению путей повышения инвестиционной привлекательности акционерных обществ. В современной мировой экономике акционерные общества сталкиваются со многими проблемами при привлечении инвестиций. В рамках данной темы подчеркивается, что такие факторы, как совершенствование корпоративного управления, укрепление финансовых показателей, повышение открытости и прозрачности, привлечение высококвалифицированных управленческих кадров, а также ориентация стратегии компании на долгосрочное развитие и устойчивость, имеют важное значение в повышении привлекательности акционерных обществ. В работе даны аналитические рекомендации по повышению эффективности мероприятий, направленных на повышение инвестиционной привлекательности акционерных обществ. В то же время представлены современные методы управления инвестициями и стратегии повышения привлекательности акционерных обществ, которые будут служить росту и развитию компаний.

Ключевые слова: *Акционерное общество, рыночная экономика, инвестиционная привлекательность, инвестиции, дивиденды, акционерное общество, инвестиции, инвестор, прибыльность, бизнес.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘sishni jonlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda, Respublika hududlarining investitsion salohiyatini oshirish va ushbu jarayonni muvaffaqiyatli olib borishga hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarning mavjudligi, uning zaxirasi, mehnat resurslarining soni, yoshi va malakasi, shuningdek, hududlarda bir necha yillardan beri saqlanib kelinayotgan ixtisoslashuv darajasi, infratuzilmalarning holati kabi bir qancha omillarni inobatga olish asosiy shartlardan hisoblanadi. Hozirda, tafovut yiliga taxminan 4 trillion dollarni tashkil etadi, bu ko‘rsatkich 2015-yilda BRM dasturlari qabul qilinganda 2,5 trillion dollarni tashkil etgan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini 2022-yilda 12%ga tushishi va investitsiya siyosati hamda kapital bozori tendensiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatgani[2] aksiyadorlik jamiyatlari xo‘jalik yuritish tizimini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

[2] Manba: https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdagi PQ-2454-son «Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2023-yil 11-sentyabrdagi «O‘zbekiston–2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 158-son PF va 2023-yil 16-noyabrdagi PF-195-son «Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan amalga oshirilayotgan loyihalarni yanada jadallashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi. Bularning barchasi investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammoning dolzarbligini belgilab beradi va bu borada maxsus kompleks tadqiqotning o‘tkazilishini talab etadi.

Shunday bo‘lishiga qaramasdan, yuqoridagi ilmiy izlanishlarda masala kun tartibiga yaxlit tarzda investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish aspektida qo‘yilmagan. Ularda tadqiqot obyekti sifatida respublikamiz iqtisodining eng muhim xo‘jalik yurituvchi subyektlari bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari tanlanmagan. Holbuki, bunday shaklda xo‘jalik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarda, investitsion faoliyatni amalga oshirish va uni moliyalashtirish bir necha o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lib, ular investitsion faoliyatni moliyalashtirish hamda uni takomillashtirishga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Muammoning dolzarbligi va O‘zbekiston sharoitida, uning aksiyadorlik jamiyatlari misolida yetarli darajada o‘rganilmaganligi, investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari mavzusida maqolaning zarurligini ko‘rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dividend hisobiga aksiyadorlik jamiyati olgan foydada qatnashish huquqi amalga oshiriladi. Dividendlarni olish tartibi va shartlari, shuningdek ularning miqdori aksiyadorlik jamiyati tomonidan olib borilayotgan dividend siyosati bilan belgilanadi. Bu dividend siyosatining jamiyatdagi roli va ahamiyati unga biznesda, moliyaviy menejmentda va moliyaviy fanda unga qaratilayotgan e’tibor bilan o‘lchanadi.

Shunday qilib, dividend siyosati nazariyasida asosiy savollar quyidagicha: jamiyatda dividend to‘lovlari jamiyatning bozor qiymatiga ta’sir qiladimi va o‘z aksiyadorlariga katta dividendlar to‘laydigan jamiyatlar bozorni qanday baholaydilar?

Shuning uchun foydani taqsimlash masalasi, xususan, dividend siyosati, R. Brayl va S. Mayersaning fikriga ko‘ra, moliya nazariyasida hal qilinmagan muammolar o‘ntaligiga kiritilgan. Ushbu masalalar olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida munozarali mavzu bo‘lib qolmoqda (Лукасевич И., 2011: 719).

M. Harake ta’kidlashicha, ma’lumot asimmetriyasining pasayishi dividend siyosati bo‘yicha agentlik nizolarni yengillashtirishini va shu bilan dividendlarni

to‘lash uchun ko‘p xarajat talab etadigan investitsiyalarni jalb qilish zaruratini kamaytirishini ko‘rsatadi (Harake M., 2020).

Ma’lumki, dividend siyosati bo‘yicha keng ilmiy munozaralarning boshlanishi M. Miller va F. Modigliani tomonidan o‘z maqolalarida yaratilgan. Mualliflar bozor sharoitida jamiyatning qiymati dividend siyosatiga bog‘liq emasligini, aksincha aksiyadorlarning boyligiga qaratilgan. Ularning fikricha, jamiyatlarning daromad olish imkoniyati bilan belgilanadi va ko‘p jihatdan foydani taqsimlash mexanizmiga emas, balki investitsiya siyosatining samaradorligiga bog‘liq. Ular taqdim etgan model dividendlarning nomuvofiqligi nazariyasiga asos yaratdi. Boshqacha qilib aytganda, dividend siyosati kompaniyaning bozor qiymatiga ta’sir etuvchi omil emas, shundan kelib chiqib investitsiya loyihalarini moliyalashtirgandan so‘ng dividendlar qoldiq asosida hisoblanishi kerak (Elmirzayev S., Omonov S., 2020).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani yozishda aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini oshirish yo‘llari va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma’lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

“O‘zbekneftgaz” AJ 2024-yil oxirigacha 29,3 milliard kub metr gaz qazib olish uchun gaz quduqlarini burg‘ilashga 320 million dollardan ortiq, ularni ta’mirlashga 45 million dollar va 79,6 million dollarlik geologik qidiruv ishlarini amalga oshirishni rejalashtirgan edi. Ushbu ko‘rsatkich avvalgi prognozlardan 4,8 milliard kub metrga kam. 2024-yilga mo‘ljallangan davlat dasturiga ko‘ra, “O‘zbekneftgaz” kompaniyasi 29,3 milliard kub metr gaz qazib olishni maqsad qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich avvalgi prognozlardan past hisoblanadi. Davlat dasturining 52-maqsadi iqtisodiyot tarmoqlari va aholini zaruriy energiya resurslari bilan uzluksiz ta’minlashni nazarda tutadi. Ushbu maqsadga erishish uchun “O‘zbekneftgaz” quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshiradi: 95 ta gaz qudug‘ini burg‘ilash, 81 ta gaz qudug‘ini kompleks ta’mirlash, ish faoliyatini tiklash va 42 ta texnologik chora-tadbirlarni bajarish. Natijada, 29,3 milliard kub metr gaz qazib olish rejalashtirilgan.

Neft va gaz qazib olishning modernizatsiyasi. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish va qazib olish jarayonlarini samarali qilish uchun yangi texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan investitsiyalar amalga oshirilmoqda. Infrastruktura loyihalari. Gaz quvurlari, neftni qayta ishlash zavodlari va boshqa strategik inshootlarni qurish ishlari davom etmoqda.

Xalqaro hamkorlik va xususiy sektorga jalb qilish. “O‘zbekneftgaz” xalqaro

kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirib, investitsiyalarni jalb qilishda davom etmoqda. Xususan, Xitoy, Rossiya va Turkiyadagi kompaniyalar bilan hamkorlikda bir qancha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Sohada amalga oshirilgan eng yirik loyihalar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

1. O'zbekistonning gazni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish. Masalan, "Sho'rtan gazni qayta ishlash zavodi" va "Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" kabi obyektlarda zamonaviy texnologiyalar joriy etildi.

2. "O'zbekiston – Xitoy" gaz quvuri. Bu loyiha Xitoy bilan O'zbekistonning gaz resurslarini eksport qilishni osonlashtirishga qaratilgan.

3. Xalqaro investorlar. "O'zbekneftgaz"ga kiritilgan investitsiyalar asosan xalqaro energetika kompaniyalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, Xitoyning Sinopec, CNPC kompaniyalari, Rossiyaning Lukoil va Gazprom kompaniyalari, shuningdek, Turkiyaning Çalık Enerji kompaniyalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Asosiy va yirik investitsion dasturlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Yashil energiya loyihalari. O'zbekiston 2030-yilgacha energiya ishlab chiqarish va iste'molni barqarorlashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

2. Tabiiy gaz qazib olishni oshirish. Gaz qazib olish samaradorligini oshirish va yangi qazib olish maydonlarini rivojlantirish asosiy yo'nalishlardan biridir.

3. Eksportni diversifikatsiya qilish. "O'zbekneftgaz" Tojikiston va Qirg'iziston bilan gaz eksportini yo'lga qo'yish va mintaqada gaz eksporti va importini diversifikatsiya qilishni rejalashtirmoqda.

Investitsiyalarning samaradorligini tahlil qilish. Yuqori darajadagi statistik usullar yordamida "O'zbekneftgaz" AJga kiritilgan investitsiyalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish imkoniyati mavjud. Ushbu usullar kompaniyaning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga yordam beradi va investitsiyalarning samaradorligini o'lchashda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlarni belgilash imkonini beradi. Quyidagi jadvalda, 2021–2023-yillarda kiritilgan investitsiyalar va o'zgaruvchilar bo'yicha tahlil natijalari keltirilgan (1-jadval).


"O'zbekneftgaz" AJga kiritilgan investitsiyalarni ko'rib, 2021–2023-yillar davomida yillik investitsiya hajmining o'sib borganini kuzatish mumkin. 2021-yilda 1,200 million dollardan 2023-yilda 1,800 million dollarga yetgan bu o'sish kompaniyaning yangi investitsiya loyihalariga qaratilgan strategiyasi bilan bog'liqdir.

1-jadval

O‘zbekneftgaz AJga kiritilgan investitsiyalar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar (2021-2023-yillar)

Yil	Investitsiyalar (million $)	Yangi ish o‘rinlari	Iqtisodiy o‘sish (YalM o‘sish sur’ati)	Yangi texnologiyalarni joriy etish	Davlat byudjeti (million $)	Energetik samaradorlik (kWh/ton)
2021	1,200	2,500	5.8%	2 texnologiya joriy etildi	10,500	0.85
2022	1,500	3,200	6.1%	3 texnologiya joriy etildi	11,200	0.90
2023	1,800	3,800	6.5%	4 texnologiya joriy etildi	12,000	0.92


Yangi ish o‘rinlari yaratish ko‘rsatkichi ham har yili ortib borgan va 2023-yilga kelib 3,800 ta ish o‘rni yaratildi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sish va davlat byudjetiga qo‘shilgan hissaning oshganini ko‘rsatadi. Energetik samaradorlik (kWh/ton) ko‘rsatkichi ham har yili yaxshilangani kuzatiladi, bu texnologiyalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasidir. 2023-yilda yangi texnologiyalarni joriy etish ko‘rsatkichi 4 taga yetgan, bu esa sohaga raqamli transformatsiya va innovatsion yondashuvlar kiritilganini tasdiqlaydi. Komparativ tahlil usuli “O‘zbekneftgaz” AJning investitsiya faoliyatini boshqa davlatlar bilan solishtirishga imkon beradi. Ushbu yondashuv, O‘zbekiston energetika sektorining rivojlanish darajasini va uni global bozorga qo‘shgan hissasini tahlil qilishga yordam beradi. Xususan, O‘zbekiston, Rossiya va Qozog‘istonning soha bo‘yicha investitsiyalari, iqtisodiy o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratish va texnologiyalarni joriy etish ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Quyidagi jadvalda 2021–2023-yillar davomida ushbu davlatlar tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar taqdim etilgan (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekneftgaz AJ, Qozog‘iston va Rossiya neft-gaz sektorlarida investitsiyalar va iqtisodiy ko‘rsatkichlar (2021-2023-yillar)


O‘zbekistonning neft va gaz sektoriga kiritilgan investitsiyalar har yili oshib borgan. Biroq, Rossiya va Qozog‘iston bilan solishtirganda, O‘zbekistonning investitsiya hajmi ancha kichikroq.

Bu Rossiya va Qozog‘istonning neft va gaz sanoatidagi rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish salohiyatining yuqoriligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston uchun investitsiyalar hajmining oshishi iqtisodiy o‘sish va raqamli transformatsiya yo‘nalishida katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda (3-rasm).



3-rasm. Yaratilgan ish o‘rinlari

Yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha O‘zbekistonning ko‘rsatkichlari yildan-yilga ortib borgan. Biroq, Rossiya va Qozog‘iston kabi yirik energetika sanoatlarida ish o‘rinlari yaratishning miqdori ancha yuqori. Bu holat ushbu mamlakatlardagi sanoat o‘sishining katta miqyosini va ular tomonidan amalga oshirilgan investitsiyalar hajmining yuqoriligini aks ettiradi (4-rasm).



4-rasm. Iqtisodiy o‘sish (YaIM)

O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sish sur’ati 2021–2023-yillarda sezilarli darajada oshib, 5,8 foizdan 6,5 foizgacha yetdi. Biroq, Rossiya va Qozog‘istonning iqtisodiy o‘sish sur’ati nisbatan pastroq bo‘lsa-da, ular investitsiyalarning yuqori hajmi va

energetika sektorining rivojlanishini aks ettirmoqda. Rossiya va Qozog‘istonning investitsiyalari, katta miqdordagi zaxiralar va global bozorlarga integratsiya orqali amalga oshirilgan. Shuningdek, Rossiya iqtisodiyoti ko‘p yillik rivojlanish va modernizatsiya tajribasiga ega bo‘lib, bu uning energetika sektoriga katta miqdorda sarmoya jalb qilish imkonini beradi. O‘zbekistonda investitsiyalarning o‘sishi sezilarli bo‘lsa-da, mamlakatda yangi texnologiyalarni joriy etishga va texnologik modernizatsiyaga qaratilgan yirik loyihalar, ayniqsa neft-gaz sektorida, hali ham o‘rta darajada. Shu bilan birga, O‘zbekistonning investitsion salohiyati tobora o‘sib bormoqda, ammo bu sohada hali ko‘plab rivojlanish va optimallashtirish ishlari talab etiladi. Jadval va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekneftgaz” AJning investitsiyalari har yili ortib borib, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlarini ta’minlamoqda va energetika sektorida raqamli transformatsiya hamda innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Biroq, Rossiya va Qozog‘iston bilan solishtirganda, ularning investitsiya hajmlari va iqtisodiy samaradorliklari yuqoriroq. Bu holat, O‘zbekistonda investitsiya salohiyatining yanada oshishi va energetika sohasining modernizatsiyasi uchun ko‘proq resurslar va strategik yondashuvlarni talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada quyidagilarni xulosa sifatida keltiramiz:

Investitsion jozibadorlikni baholash uchun ikkita muhim jihatga e’tibor qaratish lozim. Birinchisi, ma’lum bir obyektni investitsiyalashning investitsion jozibadorligi. Bunda aniq bir hududiy tizimda mavjud tarmoq, soha va klasterlarning iqtisodiy holati tahlil etiladi. Iqtisodiy tahlilni amalga oshirishda investitsion loyiha va dasturlar samaradorligini aniqlashning tayanch ko‘rsatkichlari (sof diskontlangan daromad, qoplash muddati, foyda normasi, ichki rentabellik normasi) baholanadi. Ikkinchisi Aksiyadorlik jamiyatlari xo‘jalik tizimining investitsion jozibadorligi. Buning uchun esa, quyidagi holatlarni tahlil qilish nazarda tutiladi: mavjud huquqiy-normativ baza, siyosiy vaziyat, investitsion infratuzilmasi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, investorlar manfaatini himoya qilish darajasi, soliqqa tortish darajasi, strategik va ma’muriy resurslar (Nosirov E., Asomxodjayeva Sh., Aliqulov M., 2020).

Investitsiya muhiti va tavakkal darajalari bir-biriga teskari bog‘liqdir. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investorning tadbirkorlik tavakkali shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi. Aksincha, ya’ni investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, tavakkal darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarining o‘sishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir (Imomov X., 2010). Mamlakatimizda investor sifatida faoliyat yuritayotgan xorijiy investorlarning huquqlari O‘zbekiston Respublikasi qonunlar bilan muhofaza qilingan va kafolatlangan. Buning uchun, bir qator qonunlar va

me’yoriy hujjatlar tasdiqlangan hamda amaliyotga joriy etilgan. Mamlakatdagi mavjud neft-gaz sanoati korxonalarini innovatsion-investitsion faoliyatini mutanosib o‘sishini ta’minlash maqsadida ochiq innovatsiyalar bozori hamda erkin investitsiyalar oqimi uyg‘unligini saqlashga qaratilgan crowd sourcing modeli va uning qamrovidagi modellarni o‘z ichiga olgan strategiyani ishlab chiqish talab etilgani bois, crowd directing strategiyasi darajasiga qadar takomillashtirildi va tavsiyaviy xarakteri iqtisodiy jihatdan asoslab berildi. Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion aktivligini oshirishda moliyaviy menejerlarning o‘rni katta. Chunki korporativ tuzilmalarda moliyaviy menejmentning asosiy boshqaruv obyektlaridan biri korxonaning investitsion faoliyati hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion faoliyatini amalga oshirishda investitsion loyihadan keladigan daromad, uning samaradorligi, investitsion loyiha xavfsizligi hamda investitsion mablag‘larning likvidliligiga alohida e’tibor qaratiladi. Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyalarni jalb qilishning eng asosiy yo‘li bo‘lib xalqaro fond bozorlarida ishtirok etish hisoblanadi. Ammo bizga ma’lumki, xalqaro fond bozorlarida korporativ tuzilmalarning ro‘yxatdan o‘tishi uchun qator talablar qo‘yilgan. Bunday talablarni bajaradigan korporativ tuzilmalar mamlakatimizda juda kam.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5233-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.08.2021-yil, 07/21/5233/0822-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 09-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020-yil, 06/20/6042/1190-son.

3. Imomov X. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”.

4. Капитенко В. (2007) Инвестиции и хеджирование: Учебно-практическое пособие для вузов. – Москва: «Издателство ПРИОР».

5. Колтынюк Б. (2000) Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среди: Учебник. – СПБ: “Михайлова В.А”.

6. Mahmudov N., Madjidov Sh. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU.

7. Mamatov B., Xojamkulov D., Nurbekov O. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya.

8. Nosirov E., Asomxodjayeva Sh., Aliqulov M. (2020) Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. 1-qism. – Toshkent: Iqtisod-Moliya.

9. Лукасевич И. (2011) Финансовый менеджмент. 3-е издание. Учебник. – Москва: Эксмо.

10. Harake M. Dividend policy and corporate investment under information shocks // Journal of International Financial Markets, Institutions and Money. Article. February 21, 2020. www.sciencedirect.com

11. Elmirzayev S., Omonov S. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va dividend aristokratlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. 2-son, aprel 2020-yil.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-avgustdagi “Investitsiya loyihalarini tashqi infratuzilma bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5233-sonli Qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.08.2021-yil, 07/21/5233/0822-son. (In Uzbek)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 09-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4563-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.08.2020-yil, 06/20/6042/1190-son. (In Uzbek)

3. Imomov X. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”. (In Uzbek)

4. Капитенко В. (2007) Инвестиции и хеджирование: Учебно-практическое пособие для вузов. – Москва: «Издателство ПРИОР». (In Russian)

5. Колтынюк Б. (2000) Инвестиционное проектирование объектов социально-культурной среди: Учебник. – СПБ: “Михайлова В.А”. (In Russian)

6. Mahmudov N., Madjidov Sh. (2010) Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDIU. (In Uzbek)

7. Mamatov B., Xojamkulov D., Nurbekov O. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. (In Uzbek)

8. Nosirov E., Asomxodjayeva Sh., Aliqulov M. (2020) Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish. 1-qism. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. (In Uzbek)

9. Лукасевич И. (2011) Финансовый менеджмент. 3-е издание. Учебник. – Москва: Эксмо. (In Russian)

10. Harake M. Dividend policy and corporate investment under information shocks // Journal of International Financial Markets, Institutions and Money. Article. February 21, 2020. www.sciencedirect.com

11. Elmirzayev S., Omonov S. Rivojlangan mamlakatlarda dividend siyosati tahlili va dividend aristokratlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. 2-son, aprel 2020-yil. (In Uzbek)

Oriental universitetining “Iqtisod, menejment va pul” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

IQTISOD, MENEJMENT VA PUL

ECONOMICS, MANAGEMENT AND MONEY

Bosh muharrir: **Olimjon Astanaqulov**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Murodjon Axmedov**

Mas’ul muharrir: **Hayotjon Aminov**

Musahhih: **Komiljon Yunusov**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: iqtisodiyot-va-menejment@orientaluniversity.uz

“Iqtisod, menejment va pul” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 603829 raqamli guvohnomasi bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Oriental universiteti Kengashining
2024-yil 3-mart, 2-sonli navbatdan tashqari yig‘ilish bayonnomasiga asosan
nashrga tavsiya etildi.

